

5/12

ABDULLA RASULOV,
ALISHER ISOQBOYEV

TARIX FANINING ILMIY TADQIQOT ASOSLARI VA USLUBIYOTI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLA RASULOV, ALISHER ISOQBOYEV

**TARIX FANINING ILMIY TADQIQOT ASOSLARI VA
USLUBIYOTI
(o'quv qo'llanma)**

Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashr

Mazkur o'quv qo'llanma oliv o'quv yurtlari tarix ta'lif yo'nalishining bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari uchun ilmiy tadqiqot asoslari hamda uslubiyotiga oid. Unda mustaqil ta'lif – referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi yozish asoslari, maqsad va vazifalar, uslubiyot, ilmiy tadqiqot olib borish ko'nikmalari, rasmiylashtirish tartib-qoidalari bayon etilgan. Tarixiy adapbiyotlar, manbalar yig'ish hamda ularni qayta ishlash, ilmiy tadqiqotlarda sitata (iqtibos, ko'chirma)lar, tarixiy tushuncha va atamalar, izohlar keitirish tartiblari, usullari o'z ifodasini topgan. Mualliflar ushbu o'quv qo'llanmani yozish davomida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining me'yoriy hujjatlari, tadqiqotchilar uslublari va o'zlarining shaxsiy tajribalariga asoslandilar.

Mas'ul muharrir: tarix fanlari doktori S. B. Shodmonova

Taqrizchilar: **tarix fanlari nomzodi, dotsent B. R. Isoqov**
tarix fanlari nomzodi, dotsent A. A. Erqo'ziyev
tarix fanlari nomzodi, dotsent Z. Sh. Madrahimov

Ushbu o'quv qo'llanma Namangan Davlat universiteti Ilmiy kengashining 2008-yil 5-dekabrdagi 3-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

A. Rasulov, A. Isoqboev.

**Tarix fanining ilmiy tadqiqot asoslari va uslubiyoti
(o'quv qo'llanma)**

© Namangan Davlat universiteti



SO'Z BOSHI

Tarixni o'rganishda ilmiy tadqiqotlarning tutgan o'rni beqiyos hisoblanadi. Zero, Vatanimiz tarixini xolisona, har qanday mafkuraviy tazyiqlarsiz, zafarli va tushkunlik yillarini yashirmasdan xalqqa etka-zishda tarix fani tadqiqotchilarining xizmati katta. Prezident I. A. Karimov haqli ravishda ta'kidlaganidek, "... tarixiy xotira tuyg'usi to`laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarları, yo'qotish va qurbanları, quvonch va ıztirobları bilan xolis va haqqoniyligi o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladidi".¹

Ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanish jarayoni talabalikdan boshlab umrning oxirigacha, xususan, ilmiy darajalar, unvonlar olingandan keyin ham davom etaveradi. Aslida ilm bilan shug'ullangan tadqi-qotchiga berilgan ilmiy daraja va unvonlar ilmiy izlanishlari natijasining tasdiqlangani, e'tirof etilgani deyish ham mumkin. Ammo ana shu ilmiy daraja, unvon bo'yicha e'tirofga erishish yillar davomida ilmiy izlanishlar, maqolalar, kitoblar yozishni, shogirdlar etishtirishni taqozo etadi.

Tarix ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariiga jalb etish turli shakkarda, xususan talabalikning dastlabki bosqichlaridan oq referat – mustaqil ish, kurs ishi tarzida, oxirgi bosqichda bitiruv malakaviy ishi ko'rinishida amalga oshiriladi. Ushbu o'quv qo'llanmada ilk bor referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlarini yozish, rasmiylashtirish tartib-qoidalari, tarix fanida ilmiy tadqiqot olib borishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha tushunchalar beriladi. Shuningdek, mazkur o'quv qo'llanmadan tarix ta'lim yo'nalishida yoziladigan magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan talablar, uni rasmiylashtirish bo'yicha qabul qilingan tartib-qoidalari ham o'rin olgan. Tarix yo'nalishida ilmiy tadqiqot uchun mavzu tanlash, reja (ish rejasi) tuzish, ilmiy, tarixiy adabiyotlarni o'rganish, arxiv manbalari, davriy matbuot materiallarini yig'ish, qayta ishlash, muzey manbalari, kutubxona fondlaridan foydalanish bilan bog'liq jarayonlar muhim ahamiyatga molik ekanligi aniq dalillar asosida qo'llanmadan o'rin olgan. Tarix bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishda ko'chirmalarning turli shakkari, jadvallar, chizmalar, tarixiy geografik, tarixiy atamalar, tushunchalar, qisqartmalar va izohlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy maqola, risola, monografiya yozish uslubiyoti, o'quv qo'llanma, darslik to'g'risidagi tushunchalar ham o'z aksini topgan. Shuningdek, o'quv- qo'llanmada ilk bor tarixiy adabiyotlar, chop etilgan hujjatlar, to'plamlar, arxiv manbalari, davriy matbuot materiallaridan, ilmiy to'plamlardan ko'chirma keltirish tartib-qoidalari, o'ziga xos xususiyatlari ma'lum bir misollar asosida, namunalar keltirish orqali ko'rsatilgan.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 97.

O'quv-qo'llanma orqali talabalar ilmiy tadqiqot olib borishning oddiy shaklidan nisbatan murakkab turlariga, xususan referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi yozish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida keng qamrovli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ilmiy tadqiqot yozishga qaratilgan tavsiyalar bu boradagi tamoyillar talabalarda ilmiy ko'nikmalarni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqot olib borishning asoslari va uslubiyotiga qaratilgan ilk urinishlardan biri hisoblanadi. Mualliflar o'quv qo'llanma bo'yicha bildiriladigan fikr-mulohaza va tavsiyalarni samimiyat bilan qabul qildilar.

Mualliflar

1- MAVZU: ILMIY TADQIQOT ASOSLARI FANI PREDMETI, MAZMUNI VA VAZIFALARI

REJA

1. Fanning predmeti, dolzarbliji.
2. Fanning mazmuni va vazifalari.

Tarix fani bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda tadqiqotchi o'zi o'rghanayotgan fanning predmeti, dolzarbliji, mazmuni, vazifalari bo'yicha ma'lum bir tushunchaga ega bo'lishi kerak.

Fanning predmeti, dolzarbliji. Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotini o'rghanishda tarix fani ko'zga ko'rinarli va faxrli o'rinni egallaydi. Tarix ham boshqa har qanday fanlar kabi o'z predmetiga ega.Ushbu fan orqali ilmiy tadqiqot olib borishning dastlabki bosqichlaridan, ya'ni mustaqil ish - referat yozishdan boshlab, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasini yozishgacha bo'lgan jarayondagi o'ziga xos xususiyatlarni o'rghanadi. Tarix fani o'ziga xos vazifalari, bilish xususiyatlari va shundan kelib chiqadigan ilmiy tadqiqot usullariga ega bo'lib, boshqa ijtimoiy fanlardan quyidagi tarzda farq qiladi:

– tarix fanining o'ziga xos xususiyatlardan biri shuki, mazkur fan ilmiy tadqiqotlar asosida o'tmishni, ya'ni bo'lib o'tgan voqeа-hodisalarни o'rghanadi. Bo'lib o'tgan voqeа-hodisa, jarayonlar to'g'risida yozma va arxiv manbalari, moddiy yodgorliklar, madaniy yodgorliklar ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

– tarix fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan aniq fan hisobianadi. Bo'lib o'tgan tarixiy voqeа-hodisalar va ularning sanasini, xronologik izchillikda aniqlash, o'tmishdagi tarixiy jarayonlarni har tomonlama tiklash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Xususan, tarix fanida dalillar, xronologik sanalar, **tarixiy shaxslar nomi, voqeа-hodisalar bo'lib o'tgan joylar, tarixiy-geografik hududlar, ilmiy va tarixiy atama hamda iboralar, xulosalar muhim o'rinn tutadi;**

– tarix fani jamiyat va insoniyatning rivojlanish jarayonini, ko'plab voqeа-hodisalarda ma'lum bir umumiyl qonuniyatni ilmiy jihatdan o'rghanishga harakat qiladi;

– tarix fani jamiyat taraqqiyotining barcha tomonini, xususan iqtisodiy tarixini, ijtimoiy-siyosiy tuzilishini – tarixini, davlat qurilishi tarixini, ichki va tashqi hamda xalqaro miqyosdagi siyosatini, milliy va millatlararo munosabatlarni, madaniyatini ilmiy tadqiqotlar asosida o'rghanadi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkinki, ilmiy tadqiqot bilan asoslari predmetini chuqr o'rghanish o'rghanish amalda fan yo'liga ilk qadamdan boshlab tarixiy muammolar yechimidagi dolzarblikni belgilaydi. Chunki har qanday tarixga oid ilmiy tadqiqot o'z oldiga dolzarb muammolar yechimini qo'yadi va uning yechimida sa'y harakat qiladi.

Fanning mazmuni va vazifalari to'g'risida gapirganda asosiy e'tibor dalillar hamda ularning umumlashmasiga qaratiladi. Tarix fanida dalillar

muhim ahamiyatga ega. Dalillar ma'lum bir ma'noda asosiy material, ya'ni tarix fanining "xom ashyo"si hisoblanadi. Aynan dalillar asosida ilmiy-tarixiy bilimlar vujudga kelib, u ilmiy tadqiqot uchun asos bo'ladi. **Dalillar** tarix fani uchun havodek zarur bo'lib, tarixga oid ilmiy tadqiqotlar uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Tarix fanida to'la aniqlanmagan, bahsli-munozarali dalillarga tayangan va shu asosdagagi talqinlarga ega bo'lgan har qanday tarixiy kontseptsiya mutlaqo o'z ahamiyatiga ega emas. Shuning uchun ham tarixga oid ilmiy tadqiqotlarga kirishgan tarixchi tadqiqotchi mavjud tarixiy dalillarni sinchkovlik bilan o'rganishi, mavjud boshqa manbalar orqali solishtirishi, qiyosiy tahsil qilishi va shundan keyingina tegishli ravishda mas'uliyat bilan talqin qilishi mumkin bo'ladi.

Tarix fani bo'yicha ilmiy ishga kirishgan tadqiqotchilar uchun tarixdagi muammolarni o'rganish, voqeа-hodisalar va tarixiy xronologiyaga munosabat, tarixiy atamalar, iboralar va tushunchalar, tarixiy shaxslar ismi sharifi, tarixiy asarlar nomi va mualliflari, tarixiy sana va dalillarni keltirishda anglashil-movchilikka, xatolikka yo'l qo'yish mumkin emas. Buning uchun "tarix nonini eyish"ga ahd qilgan tadqiqotchi har tomonlama tayyorgarlik ko'rgan, xususan tarixga oid bilimiarni egallagan, o'zining mustahkam eslash qobiliyatiga, tarixiy voqeа-hodisa, jarayonlarni, dalillarni taqqoslash, tahsil qilish va mavjud manbalarni o'rganish va talqin qilishda keng qamrovli mushohadaga ega bo'lgan mutaxassis bo'lmog'i darkor. Tarix fanida mavjud muammolar yechimiga "sayoz" qarash, manbalarga shunchaki "ko'z yogurtirish", "arzon shov-shuv"larga intilish bilan jiddiy va asosli ilmiy tadqiqotni amalga oshirib bo'lmaydi.

Albatta, tarix fanida dalillar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchi tomonidan mavjud tarixiy dalillarni o'rganish, saralash va ularga baho berish, talqin qilish jarayoni shunchaki oddiy vazifalardan hisoblanmaydi. Tarixiy dalillar turlicha, ya'ni kichik, yirik, ahamiyatga molik, keng miqyosdagи tarixiy jarayonlar yoki alohida bir voqeani yorituvchi, xronologik jihatdan yaqinda yoki uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqeа-hodisani o'z ichiga olishi mumkin. Yuqorida qayd etilgan yo'nalishlardagi tarixiy dalillar qamrovini yana davom ettirish mumkin. Ammo shu narsa aniqki, tarix fanidagi dalillar katta-kichikligi, muhim, katta yoki kichik ahamiyatga molik ekanligi bilan turli tarzda talqin qilinishi mumkin bo'lgani holda, baribir chuqr va sinchkovlik bilan o'rganishni, qiyosiy tahliini taqozo etadi. Tarixiy dalillarga baho berish, ularni o'rganish uslubi, tizimga solish ma'lum darajada ilmiy tadqiqotchining bilim darajasi, tajribasi va mashaqqatlari ilmiy mehnatga sarflaydigan vaqtiga ham bog'liq bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlarda tarixiy dalillardan ishonchli va unumli tarzda foydalanish ko'nikmasi asta-sekin, talabalikning ilk bosqichlaridan boshlab, tarixiy fanlarni o'zlashtirib borish jarayoni natijasida vujudga keladi.

Tarix fanida dalillar muhim ahamiyatga molik ekanligini tasdiqlagan holda qayd etish mumkinki, tarixchi-tadqiqotchi uchun dalillarning o'ziga etarli emas. Ilmiy tadqiqotchining vazifasi shuki, mavjud tarixiy dalillarni chuqr o'rganishi, solishtirishi va ularni ilmiy talqinlar orqali "jonlantirish"i kerak. Tarix fanidagi tarixiy dalillarning o'zi – bu amalda hech narsa emas. Yig'ilgan tarixiy dalillarning o'zi o'rganilayotgan mavzuni yoritishda, xususan ilmiy tadqiqot uchun ma'lum bir poydevor vazifasini o'taydi. Tarix fanida dalillarni o'rganish

ilmiy tadqiqotda dastlabki pog'ona bo'lib, keyingi bosqich mavjud dalillarni **umumlashtirish** hisoblanadi.

Tarixchi-tadqiqotchining vazifasiga dalillarni qalashtirib tashlash emas, balki mavjud tarixiy dalillarni nazariy jihatdan mushohada qilish, umumlashtirish, saralash, tahlil qilish va ular orasidan eng muhimlarini ajratib, ilmiy tadqiqot matniga kiritish hisoblanadi. Ilmiy tadqiqot orqali tarixiy dalillarni ta kidlash bilan birga, voqeа-hodisalarining qonuniy jarayonini, sabab va oqibatlarini "tarix tarozisi"ga solib, uni xolisona, ilmiy bayon etish kerak bo'ladи.

Tarixiy dalillar va umumlashtirish o'rтasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lib, bu tarix bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradiganlar uchun muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, tarixiy tadqiqotda nafaqat dalillarga, balki ularni umumlashtirishga ham katta e'tibor qaratiladi. Zero, ilmiy tadqiqot ma'lum darajada avvaldan rejalashtirilgan ilmiy xulosalarga olib kelmasligi kerak.

Tarixiy tadqiqotga jazm qilgan ilmiy izlanuvchilar doimo o'z ustida ishlashi, tarixiy mushohadasini rivojlantirib borishi, uzlusiz ravishda o'qigan va **uqqanlari** hamda yiqqan manbalari, tarixiy materiallari bo'yicha o'ylab yurish odatini shakllantirishi, ilmiy taqqoslay olishi, umumlashtira va xulosa chiqara olish, mavjud materiallarni shunchaki o'rganmasdan, chuqur tahlil qilish xususiyatini asta-sekin shakllantirish kabi xislatlarni o'zida mujassamlashtirishi kerak.

Tarixchi boshqa ayrim fan mutaxassislaridan farqli o'laroq, ilmiy ish ustida sinovlar o'tkazishga, tadqiqot ob'ektini bevosita kuzatishga, xususan o'zi o'rganayotgan o'tmishni, voqeа-hodisalarini tom ma'noda qaytarishga imkoniyati yo'q. Chunki sodir bo`lgan tarixiy voqealar hech qachon yana o'sha tarzda, aynan o'sha joyda qaytarilmaydi. Demak, tarixchi o'z tadqiqoti uchun sodir bo`lgan voqeа-hodisalarini tiklash, tajriba, sinov yo'li bilan yana qaytarish imkoniyatiga ega emas. Ilmiy tadqiqot uchun izlanuvchi materialni tarixiy manbalardan, hujatlardan, yodgorliklardan oladi. Tarixchi uchun materiallar, xususan o'tmish materiallari har kuni keltiriladi va bu tarixiy bilimni kundankunga ko'payib borishidan dalolat beradi. Tadqiqotlar muammosi doimo kengayib, murakkablashib boraveradi. Ilmiy izlanishlar orqali yangi manbalar, dalillar yuzaga chiqib, ularni o'rganish, tahlil qilish takomillashib bormoqda. Bu esa tarix bo'yicha ilmiy tadqiqot qiladiganlardan zamon ruhi bilan qadam-baqadam yurishni, voqeа-hodisalarini, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni doimo kuzatib, taqqoslab, tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilib borishni taqozo etadi. Zero, hech bir ilmiy izlanuvchi tarixdagи barcha yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotga qo'l ura olmagani holda, ayni paytda ilmiy tadqiqotchi o'zigacha bo`lgan ilmiy izlanishlar va bugungi kundagi olib borilayotgan tadqiqotlar to`g'risida ma'lum bir tushunchalarga ega bo'lishi zarur. Bu esa tarixchini zamonaviy ilmiy tadqiqotlar holatidan boxabar qilish bilan birga, o'zi olib borayotgan tadqiqotlarida yangi ilmiy xulosalar chiqarishga undaydi. Tarixchi-tadqiqotchi tomonidan voqeа-hodisalarga, o'tmishga berilgan baho, bu amalda o'ziga xos tarixiy jarayonlar bo'yicha chiqarilgan hukm hisoblanadi. Shuning uchun ham tarixiy voqeа-hodisalar ustidan "o'qilayotgan hukm", ya'ni manbalarning tarixiy talqini xolisona yondashishni talab etadi. Bu bilan tarixchi ma'lum darajada tarixiy jarayonlar bo'yicha "hakam" vazifasini ham o'taydi. Tarixiy dalillarni

umumlashtirish, tahlil qilish asosida voqeа-hodisalarga nisbatan beriladigan tarixiy xulosada tadqiqotchi zimmasiga katta mas`ulyiat yuklanadi. Tadqiqotlarda adolatli xulosaga kelish tarixchining tarixiy manbalarni qay darajada o`rganganiga, nazariy bilimlariga bevosita bog`liq bo`ladi.

Tayanch so`zlar

Dalil, xronologik sana, tarixiy shaxs, voqeа-hodisa, jarayon, tarixiy-geografik hudud, tarixiy atama, iboralar, xulosa, umumlashma, o`qish, uqish, dolzarblik, mazmun, vazifa.

Nazorat savollari

1. Tarix fani ilmiy tadqiqot asoslari fani predmeti nimalardan iborat?
2. Tarix fani ilmiy tadqiqot asoslari fanining asosiy vazifalarini aytib bering.
3. Tarix fani bo`yicha tadqiqotga kirishgan izlanuvchilar uchun dastlabki vazifalar nimalardan iborat?
4. Tarixiy tahlil deganda nimani anglaysiz?

2- MAVZU: ILMIY TADQIQOTNI TASHKIL ETISH VA OLIB BORISH ASOSLARI

REJA

1. Tadqiqotni tashkil etish tamoyillari.
2. Ilmiy tadqiqot olib borish bo'yicha uslubiy asoslar.

Tadqiqotni tashkil etish tamoyillari. Tarix fanida ilmiy tadqiqot ishlariga jaib etish jarayoni oliy o'quv yurti talabalari uchun birinchi bosqichdanoq boshlanadi. Oliy o'quv yurtlaridagi o'quv jarayonida talabalmi ilmiy tadqiqot ishlariga faol yo'naltirish o'quv rejasining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Insoniyat tarixi nima sababdan ilmiy tadqiqot ishlariga katta e'tibor qaratilishiga juda ko'p misollar orqali javob bera oladi. Chunki har qanday taraqqiyot, kashfiyotlar asosida ilmiy tadqiqot yotadi.

Talabalar ilmiy tadqiqot ishlariga tegishli mavzular bilan birinchi kursdanoq referat, kurs ishi yozish orqali jaib etiladi. Talabalik yillarining dastlabki bosqichidanoq ilmiy tadqiqot ishlariga jaib qilish oxir-oqibatda malakali tarixchi-mutaxassislarни tayyorlash, ilmiy izlanishlar olib borishdek zahmatli yo'nalishda ma'lum bir ko'nikmalar, tajribalar orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalik yillarida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanqlarning hammasi ham keyinchalik ilmiy ishlar qilishi, ilmiy daraja va unvonlar olishi ko'zda tutilmaydi. Ammo ayni paytda, talabalik yillarida ilmiy tadqiqotga jaib etish oxir-oqibatda tadqiqotchining manbalar, ilmiy adabiyotlar bilan kengroq va chuqurroq tanishishiga imkon yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, har bir kishi dunyoqarashi va tarixiy mushohadasining kengayishi, keyinchalik qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar, qiyosiy tahlil ko'nikmasiga, tanqidiy xulosalar chiqara olishga undaydi. Albatta, talabalik yillarida boshlangan ilmiy tadqiqotga ko'nikma, yillar davomida ilmiy tashnalikka, ayrim shaxslar uchun bir umrlik hatti-harakatga, tarixiy kashfiyotlarga olib kelishi mumkin.

Oliy o'quv yurtida ilmiy tadqiqot ishlariga jaib qilish talabani ilmiy ijod bilan shug'ullanishga, o'z ustida mustaqil ishslashga, olgan bilimlarini bir tizimga solishga, umumlashtirishga, mustaqil ilmiy mushohada yuritishga o'rgatadi. Ilmiy tadqiqot talabada yana tarixiy manbalarni mustaqil tahlil qilish, qiyinchiliklarni engish, o'zini o'zi boshqarish, ilmiy izlanish natijasi uchun kurashga, yangi tadqiqotlar ustida o'ylashga, uning yechimi yo'lida qat'iy hatti-harakatlarga undaydi.

Talabalarni oliy o'quv yurtida ilmiy tadqiqot ishlariga jaib qilish (TITI) quyidagi shakkarda amalga oshiriladi:

1. Talabalarni o'quv rejasini asosida, o'quv jadvaliga kiritilgan holda ilmiy tadqiqot ishlariga jaib qilish.
2. Talabalarning o'z xohishiga ko'ra, o'quv jarayonidan xoli vaqtida, ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishi.


Oliy o'quv yurtlarida o'quv rejasini asosidagi TITI quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- talabalarni ilmiy izlanish asoslari, xususan usullari bilan tanishtirish;

- ilmiy reja tuzish va uni amalga oshirish yo'llarida ishlash;
- ilmiy adabiyotlar ustida ishlashga ko'nikma hosil qilish;
- yozma va arxiv manbalari bilan ishlashga yo'naltirish;
- davriy matbuot materiallarini tahlil qiliishga o'rgatish;
- yig'ilgan manba va adabiyotlar asosida materiallarni umumlashtirish, tegishli tarzda bir tizimga solish;
- mavjud tarixiy manba va adabiyotlarga tayangan holda, o'z tadqiqotini mantiqan bir-birini to'ldiradigan, asosli, erkin va ilmiy tarzda yozma bayon qilish tartib-qoidalari bilan tanishtirish;
- ilmiy tadqiqot xulosalari yuzasidan og'zaki bayon etish ko'nikmalarini shakllantirish.

Oliy o'quv yurtida TITI bo'yicha yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish, ilmiy ishga ko'nikma hosil qilish talabidan o'qish jarayonida hamma yo'nalishlardagi bilim olish shakllarini mustahkam egallashni taqozo etadi (1-shakl).

1-shakl



Oliy o'quv yurtida talabalarning o'z hohishiga ko'ra, o'quv vaqtidan xoli, ilmiy tadqiqot ishlari (ITI) bilan shug'ullanishi quyidagi shakllarda olib boriladi:

- talabalar o'zi qiziqqan tarixiy yo'nalishdagisi mavzularini o'rganishga kirishadi;
- talaba o'z xohishiga ko'ra, tegishli kafedralar qoshidagi ilmiy yo'nalishlar yechimidagi tadqiqotlar olib borishda qatnashadi;
- fakul'tet, kafedralar qoshidagi talabalar ilmiy to'garagida qatnashadi;
- talabalar ilmiy jamiyatni (TJ) faoliyatida faol ishtirop etadi;
- fakul'tet, oliy o'quv yurti miqyosidagi an'anaviy ilmiy anjumanlarda, respublika talabalari olimpiadasida, respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlarida ishtirop etadi;
- fakul'tet, oliy o'quv yurti, respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy to'plamlarda maqolalari bilan qatnashadi.

Umuman olganda, oliy o'quv yurtlarida ilmiy tadqiqot ishlariiga talabalarni jalb etish, oxir-oqibatda keng qamrovli, chuqur mushohadaga ega tarixchi mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratadi. Bu esa oliy o'quv yurti, tegishli fakul'tet, kafedralarda ilmiy tadqiqotni tashkil etish qaysi darajada yo'nga qo'yilganligiga bog'liq bo'ladi.

Tarix fanida ilmiy tadqiqot bo`yicha uslubiy asoslar. Ilmiy tadqiqot har qanday sharoitda xolislikni, u yoki bu hukmron mafkura tazyiqlarisiz ish yuritishni talab qiladi. Tarix fani bo`yicha ilmiy tadqiqotni amalga oshirayotgan tadqiqotchi oldida murakkab va ayni paytda qiziqarli vazifalarni bajarish mas`uliysi turadi. Murakkabligiga sabablar qatorida o`tmishni, ma`lum tarixiy manbalar orqali, sinchkovlik bilan o`rganish, o`rganilayotgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy-siyosiy, madaniy ahvoldan xabardor bo`lish, yig`ilgan manbalarni qiyosiy tahlil qilish va shular asosida voqeа-hodisalarga, ayrim hollarda, munozarali muammolarga xolisona baho berishdek vazifalarni keltirish mumkin. Tarixni o`rganishdagi qiziqarli va mas`uliyatli tomoniga kelsak, har qanday tarixiy ilmiy tadqiqotga qo`l urgan izlanuvchi uchun o`tmishni o`rganish va bu jarayonga xolisona yondashish, ma`lum bir xulosalarga ega bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo ana shu xolislik, tarixiy dalillar, voqeа-hodisalarni ob`ektiv, o`rab-chirmamasdan, mafkuraviy tazyiqlardan xoli yoritishda tarixchi ma`lum bir tamoyillarga e`tibor qaratishi lozim.

Ilmiy ishni yozishga kirishgan tadqiqotchi uchun eng avvalo **ilmiylik uslubiga** rioya qilish darkor. Tarix fanida ilmiylik uslubi nimalarni o`z ichiga oladi? **Birinchidan**, tadqiqot jarayonida yig`ilgan dalillar, voqeа-hodisalarga taalluqli materiallar, manbalar, tarixiy shaxslar faoliyatiga oid hujjatlarni tarixiy nuqtai nazardan, ob`ektiv o`rganish, hech qanday o`zboshimchaliklarsiz, qo`shimchalarsiz, tarix "tarozisi"ga solish va bularga shaxsiy munosabat, ehtiroslardan xoli tarzda ilmiy baho bera olish kerak bo`ladi. **Ikkinchidan**, tarix fani bo`yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda voqeа-hodisalarni "sanash", shaxslarning tarixda tutgan o`rnini qayd etish bilangina cheklanmaslik kerak. Shu voqeа-hodisalar sababi va oqibati, shaxslarning ma`lum bir tarixiy davrdagi tutgan o`mi bo`yicha nazariy mushohadalarni ilgari surish, tarixiy jarayonlar hamda shaxslar faoliyatidagi ijobiy, salbiy oqibatlarga ilmiy baho beriladi. Bu o`z navbatida bugungi kun va kelajak uchun muhim ahamiyatga ega bo`lib, tarixiy voqeа-hodisalar bo`yicha chuqur mulohaza yuritishga hamda tegishli saboqlar chiqarishga undaydi.

Tarix fanidagi ilmiy tadqiqot yo`nalishida **tarixiylik** uslubi ham katta ahamiyatga ega. Tarixiylik tadqiqotchidan dalillarni, o`z davrida ro`y bergan voqeа-hodisalarni tahlil qila bilish, ya`ni ularning vujudga kelish sabab va bahonalarini, bundagi tarixiy shart-sharoitni, ob`ektiv va sub`ektiv holatlarni tarixiylik bilan bog`lab o`rganishni taqozo etadi. Tadqiqotchi tomonidan tarixiylik uslubiga rivoja qilishda ma`lum bir muallif fikriga ko`r-ko`rona qo`shilib ketavermaslik darkor. Shu voqeа-hodisalarni izohlashda tarixiy dalillarni keltirayotgan muallifning o`zi qaysi zamonda yashagani, o`sha paytdagi bilim doirasining darjasini, davr ruhi, shaxslar xatti-harakati, shart-sharoit, sabablarini aniqlash hamda "davr tilli"ni o`rganishga e`tibor qaratish lozim. Tarixiylik uslubi tarixiy manbalar uzuq-yuluq holatda bo`lishiga, mavjud voqeа-hodisalarni muallifning "hohishiga ko`ra" bo`yab ko`rsatishga, "to`g`rilash"ga, "zamonaviylashtirish"ga, bir tomonlama talqiniga qarshi kurashib, ularni tarixiy nuqtai nazardan solishtirishga, tegishli dalillarni boshqa shunga o`xhash va daxldor manba hamda tadqiqotlar, shart-sharoitlar bilan o`rganishga undaydi. Bir so`z

bilan aytganda, yuqoridagilarning hammasi aniq tarixiy voqealar bayon etilishiga hizmat qiladi.

Tarix fanida yana **taqqoslash** usuli ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanish jarayonida tadqiqotchi u yoki bu dalilni, voqeahodisalarni hamma vaqt ham "oxirgi haqiqat" deb qaramasligi, mavjud manbalarni tarixiy nuqtai nazardan taqqoslashi, qiyosiy, mantiqiylaridan tahlil qilishi kerak. Bu jarayonda tadqiqotchi o'ziga qadar mazkur mavzuga yaqin ilmiy ishlar bilan shug'ullangan, xususan bu borada maqola, asarlar chop etgan, dissertatsiya yoqlagan mualliflar ishiga tanqidiy murojaat qilishi, talqin etilgan voqeahodisalarni, dalillarni o'zi izlab topgan manbalar bilan taqqoslashi zarur. Tarix fanida taqqoslash usuli, nafaqat o'zigacha bo'lgan ilmiy izlanuvchi va mavjud manbalarga, balki bir necha mualliflarning tarixiy dalillar, voqeahodisalarga nisbatan yondashuvi, talqiniga nisbatan ham qo'llanadi. Ikki, uch va undan ortiq mualliflar talqinidagi tarixiy dalillar, voqeahodisalar bir-biridan farq qilgan taqdirda ilmiy tadqiqotchi qaysi muallif nuqtai nazariga qo'shilishi kerak? **Birinchidan**, tarixiy taqqoslash usuli ilmiy tadqiqotchidan o'rganayotgan mavzusi bo'yicha chuqur tayyorgarlik bazasini talab qiladi. **Ikkinchidan**, mualliflar nuqtai nazariga nisbatan o'zidagi manbalar (*agar manbalar etarli bo'lsa – mualliflar*) qaysi tomonga moyil bo'lganidan kelib chiqadi. **Uchinchidan**, mualliflar talqinidagi voqeahodisalarga mavjud muhitning ta'siri bo'lganligi yoki bo'Imaganligini tahlil etadi. **To'rtinchidan**, ilmiy tadqiqotchining tarixiy dalillar, voqeahodisalar talqiniga ehtiyojkorlik bilan yondashishi, taqqoslash jarayonida har bir tarixiy jarayon ildizini o'rganish, baho berish – xulosa chiqarishda tarix tarozisidagi muvozanatga e'tibor qaratmog'i lozim. Shu bilan birga bir tomonlama talqinlardan, masalaning ijobiy yoxud salbiy tomonlarini bo'rttirib yoki ayni paytda susaytirib yuborishdan ham o'zini tiyishi kerak. Masalan, sovet hokimiyyati yillarda qo'llangan "bosmachi" so'zi bilan mustaqillik yillardagi "istiqlolchilik harakati" – "qarshilik harakati" o'rtaidagi farq, tarixiy nuqtai nazardan taqqoslaganda mutlaqo boshqa talqinga – tushunchaga asos bo'la oladi.

Ilmiy tadqiqotda tarixiy dalillar, voqeahodislar, tarixiy shaxslar faoliyatini o'rganish, talqin qilish jarayonida **tanqidiy** usuldan ham keng foydalananiladi. Ilmiy tadqiqot mavzusini yoritishda foydalananadigan manba va adabiyotlar, unda talqin etilgan voqeahodisalar, shaxslar faoliyati, keltirilgan tarixiy sanalar, atamalar, dalillarga ham sinchkovlik bilan va ma'lum darajada tanqidiy usulda yondashish ilmiy ish qiyamatini yanada oshiradi. Masalan, Vatanimiz tarixini sovet davrida yoritgan tarixchilar asaridagi "inqilob" – aslida davlat to'ntarishi bo'lgani, "jamoalashtirish" – amalda yerni egasidan tortib olib talon-taroj qilinishiga sabab bo'lgani, "xalq dushmani" – millatning etakchi ziyolilari ekanligi va shuningdek, "baynalmilal", "sotsialistik musobaqa", "sovet xalqi", "paxta ishi", "o'zbek ishi" kabi "atama"larga tanqidiy qarash zarurligi tarix yo'nalishida ilmiy izlanish olib borayotganlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Tarix fanida ilmiy izlanishlarni amalga oshirayotganlar uchun **ilmiy davriylik** qoidalarini o'zlashtirib olish va unga qat'iy rivoja qilish ham zarur. Tarixchi-tadqiqotchi o'z ilmiy ishini yoritishda davriylik tartiblariga amal qilishi kerak. Zero, tarixiy voqeahodisalar bayonini davriylik nuqtai nazaridan yoritish, voqealarning sabab va oqibatlarini davriy holatga mantiqan bog'lash hamda

ularni ketma-ketlik va uzviy, ya`ni bir-biriga bog`langan holda talqin etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Tarixchi-tadqiqotchi o`z ilmiy ishida davriylik masalasiga mavzusi, geografik hududidan kelib chiqqan holda yondashadi. Chunki davriylik turli xalqlar tarixida o`ziga xos, o`xshashlik va farqli holatlariga ham ega. Geografik hududlar, mamlakatlar, turli xalqlar tarixidagi o`zaro bog`liqlik hamda bir-birini inkor etish, taraqqiyotdan orqada qolishi yoki aksincha rivojlanib ketishi tarixiy davriylikka bir xil yondashmaslikni talab qiladi. Voqeа va hodisalarни ma`lum bir geografik hududlarga, aniq bir davrga nisbatan ilmiy izlanish ob`ekti qilib olish, tadqiqot mavzusini yoritishni juda uzoqdan emas, balki belgilangan davrga yaqin holatdan boshlash ilmiy ish qiymatini oshiradi. Chunki tarixda ilmiy tadqiqot orqali mavzuni yoritish, davriy ruhni bayon qilishni taqozo etadi.

Umuman, tarix fanida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish yuqorida qayd etilgan uslubiy asoslarga tayanadi. Ilmiy tadqiqot uslublaridan unumli foydalanish, ilmiy ish mavzusini to`laqonli yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Tayanch so`zlar

TITI, TIJ, uslubiy asos, ilmiylik, tarixiylik, taqqoslash, tanqidiy, davriylik, davr ruhi, "zamonaviylashtirish".

Nazorat savollari

1. Tarix fani bo`yicha tadqiqot olib borishning asosiy tamoyillarini aytib bering?
2. Oliy o`quv yurtida talabalarni ilmiy tadqiqot ishlari (TITI)ga jalb etishning qanday shakllari mavjud?
3. Tarix fanidagi ilmiy tadqiqotlar uslubiy asoslari haqida nimalarni bilasiz?

3- MAVZU: ILMYI TADQIQOT OLIB BORISH KO'NIKMALARI

REJA

1. Tarixchi - tadqiqotchilikdagi ilk qadam.
2. Mustaqil tadqiqot ustida ishlash tamoyillari.
3. Referat ishlarini yozish va rasmiylashtirish.

Tarixchi – tadqiqotchilikdagi ilk qadam. Tarixchi kasbini tanlash ma'lum bir mas'uliyat va mashaqqatli mehnatni ham talab qiladi. Chunki yoshlardagi orzuning ma'lum bir sa'y-harakatlar bilan mustahkamlangan taqdirdagina amalga oshishi mumkin. Aniq maqsadlarga yo'naltirilgan xatti-harakatlar talabalikning ilk bosqichidanoq boshlanadi. Bu tarixchi bo'lish niyatida oliv o'quv yurtiga kirgan talabandan nimalarga e'tibor qaratish lozim degan savolga javob izlashni talab qiladi...

Tarixchilik kasbini tanlagan talaba quyidagi larda rivoja qilishi kerak:

1. Nima sababdan shu kasbni egallashga qaror qilganligidan kelib chiqqan holda tarixchilikning o'ziga xos qiyinchiliklari, talablari, xususiyatlari ma'naviy, ruhiy jihatdan tayyor bo'lishi zarur.

2. O'quv rejasiga kiritilgan har bir predmet bo'yicha bo'ladigan ma'ruza va seminarlarga faol qatnashmog'i lozim.

Talabalik yillarining dastlabki davridan olishga kirishish muhim ahamiyatga ega. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'rta maxsus o'quv yurtlarida, xususan məktəb, litsey, kollejlarda yuritiladigan mustaqil ta'lim tizimi bilan oliv o'quv yurtida yo'lga qo'yilgan mustaqil ta'lim tizimi o'rtasida ma'lum darajada farq bor. O'rta maxsus o'quv yurtlarida o'quvchi-talaba asosan darslikni o'zlashtirishga yo'naltiriladi. Oliy o'quv yurtlarida esa talabaning e'tibori darslikni o'zlashtirishdan tashqari kutubxonalarda ishlash, amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy ko'rsatmalar, ijtimoiy-siyosiy va tarixiy adabiyotlardan tegishli tarzda foydalanish, shuningdek o'z ustida mustaqil ishslash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Talabalarga birinchi kursdanoq mustaqil ta'lim shakilari. xususan tanlangan ixtisosligi, ya'ni tarixchi bo'lish uchun nimalar qilish va nimalar qilmaslik xususida tushuntirish, dastlabki xatti-harakatlar faqat bilim olishga, ilmiy tadqiqot ishlariga jaib etishga yo'naltirishini singdirib borish maqsadga muvofiqdir.

Talabaning ilmiy tadqiqot ishlariga qiziqishi ortishiga bir necha omillar sabab bo'ladi:

- oilada, o'rta maxsus o'quv yurtida mustaqil orttirgan bilimi, mavjud muhit;
- oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarining o'zi ta'lim berayotgan faniga qiziqtira olishi;
- oliyoh professor-o'qituvchisining talaba oldida ustoz sifatida tutgan o'rni.

Talaba oliy o'quv yurtidagi ilk ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga qatnay boshlashi bilan kitob bilan ishslashni, ya'ni uni o'rganish, tahlil qilish, ko'plab kitoblar, o'quv qo'llanmalar orasidan eng zarurini tanlashni bilishi kerak. Talaba kitobni shunchaki ko'z yogurtirib emas, balki uning ma'no-mohiyatini, tarixiy sana, atama, voqeа-hodisalardagi o'xhashlik, tizimlilik mavjud ekanligi yoki

umuman tarixiylikka, davriylikka, voqealar rivojini poyma-poy, bir-biriga bog`lanmagan holda bayon qilinganiga e`tibor qarata bilishi, boshqacharoq ifodalaganda, tarixiy tahlil qila olishi lozim. Albatta, har qanday muvaffaqiyat zamirida nazari va amaliy bilim, sa`y-harakatlar yotadi. Shu asosda ilmiy tadqiqotni amalga oshirish ko`nikmalari shakllana boradi.

Tarixiy adabiyotlarni o`rganish shunchaki sana va voqealarni, tarixiy atamalarni yodlab olishdangina iborat bo`lmaydi. Har qanday holatda kitob o`qish – bu ilmiy-ijodiy mehnat deb qaralishi kerak. Kitob o`qishga shunday munosabatda bo`lish talaba tomonidan o`qiganini tahlil qilib borishga, o`ylashga, mushohada yuritishga undaydi. Talaba o`qiyotgan kitobini o`zlashtira olishida ma`lum bir tarixiy voqealar, sanalar, atamalar, qarorlar, hujjatlarni, tarixiy shaxslarga munosabatini yozib borishi kerak. Ammo yozib borish deganda to`la-to`kis ko`chirib olish emas, balki o`qiganini o`z so`zi bilan qisqa, ma`no-mazmunini va dalilini yo`qotmay qog`ozga tushirish demakdir. Bu ham ma`lum ma`noda talabani tahlil qilish, nimani yozib olish keragu, qaysi qismi shart emasligini ajrata olish, muallif fikrini o`z mushohadasi vositasida lo`nda ta`riflashga undaydi.

Talaba tomonidan tarixiy adabiyotlar nomi, mazmunini yozib borish usuli uning tadqiqot ishlarini yo`lga qo`yishida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ilmiy adabiyotlarni yozib borish, mustaqil ta`lim, amaliy mashg`ulotlarda foydalanishga, referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi ustida ishslashda foydalanishga qaratilgan bo`ladi. Ana shu yozib borish uslubi quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Oddiy va kengaytirilgan ish reja.
2. Ko`chirma.
3. Konspekt.

Har qanday ilmiy tadqiqot ishlarida bo`lganidek, tarixiy yo`nalishda ham reja muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi-talaba u yoki bu mavzu bo`yicha ilmiy ishini olib borishda dastlab zarur adabiyot va manbalarni to`plab, qayta ishlagandan keyin reja tuzishga kirishadi. Ilmiy tadqiqotlar rejasiga oddiy va kengaytirilgan holda tuziladi. Mavzuni yoritishda dastlab tuzilgan oddiy rejani kengaytirish tadqiqot ustida qaysi jihatlarga e`tibor qaratish, qaysi yo`nalishlarni chuquarroq o`rganish, qaysi bob va paragraflarni yoritishda tarixiy manbalar, dala yozuvlari, darslik va o`quv qo`llanmalari, monografiya, xrestomatiya, hujjatlar to`plami, xotiralardan foydalanish, qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiylik, davriylikka e`tibor qaratishga turki beradi. Oxir-oqibatda kengaytirilgan reja ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, oxirida mavjud materialllar asosida yozilgan tadqiqotni umumlashtirib, oddiy rejaga tushiriladi. Mavzu nomi boblar va ayni paytda bobning nomi bo`lim – paragraflarda qaytarilmasligi darkor. Yana shuni qayd etish lozimki, rejada shaklu shamoyil, mavzuga moslik hamda o`zarlo ma`no, mantiq va hajm jihatidan mutanosiblik ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, oddiy va kengaytirilgan rejalarga namuna tariqasida quyidagi misollarni keltirish mumkin.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi ko'chirish siyosati

(I jahon urushi yillarida ko'chirilganlar misolida)

REJA

Kirish

1. Rossiyaning Antanta ittifoqi tomonida birinchi jahon urushiga kirishi.
2. Rossiya Davlat Kengashida asirlar masalasining hal etilishi.
3. Turkistonga chex-venger asirlarining keltirilishi.
4. Turkistonga ko'chirilgan chex-venger asirlari ahvoli.
5. Asirlarni o'z vataniga qaytarish bo'yicha chora-tadbirlar.

Xulosa

Foydalaniqan manba va adabiyotlar ro'yxati.

Kengaytirilgan ish reja

Rossiya imperiyasining Turkistondagi ko'chirish siyosati

(I jahon urushi yillarida ko'chirilganlar misolida)

REJA

Kirish

1. Rossiyaning Antanta ittifoqi tomonida birinchi jahon urushiga kirishi.
 - a) XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining tashqi siyosati.
 - b) Antanta harbiy blokining tuzilishi sabablari.
 - v) Birinchi jahon urushini keltirib chiqargan asosiy sabablari.
 - g) Urushning boshlanishi va Rossiyaning urushga kirishi.
2. Rossiya Davlat Kengashida asirlar masalasining hal etilishi.
 - a) Rossiyaning Avstriya-Vengriyaga qarshi urushdagi muvaffaqiyatlari.
 - b) Chex-venger asirlari masalasining yuzaga kelishi.
 - v) Rossiya Davlat Kengashida asirlar masalasining ko'rib chiqilishi.
3. Turkistonga chex-venger asirlarining keltirilishi.
 - a) Chex-venger asirlarini Turkistonga yuborilish jarayoni.
 - b) Turkiston o'liasi bo'ylab chex-venger asirlarining joylashtirilishi.
4. Turkistonga ko'chirilgan chex-venger asirlari ahvoli.
 - a) Turkistonda chex-venger asirlari mehnatidan foydalananish.
 - b) Chex-venger asirlarining ijtimoiy ahvoli.
 - v) Rossiyadagi fevral inqilobi va Muvaqqat hukumatning chex-venger asirlari masalasiga munosabati.
5. Asirlarni o'z vataniga qaytarish bo'yicha chora-tadbirlar.
 - a) Oktyabr' davlat to'ntarishi va Rossiyaning urushdan chiqishi.
 - b) Bol'sheviklar hukumatining chex-venger asirlari masalasini hal etishi.
 - v) Chex-venger asirlarining o'z vataniga qaytarilishi.

Xulosa

Foydalaniqan manba va adabiyotlar ro'yxati.

Tarixiy ilmiy tadqiqotlarda k o'ch i r m a yoki s i t a t a ham muhim ahamiyatga ega. Tarixiy ilmiy adabiyot, badiiy adabiyotdan farqli o'laroq, boshqa fundamental adabiyotlar bilan uzviy aloqada, ya'ni ularga tayangan yoki

ularni inkor etgan, ular bilan munozaraga kirishgan holda amalga oshiriladi. Tarix sohada ilmiy izlanishni amalga oshirayotgan tadqiqotchi u yoki bu adabiyotni o'rganar ekan, undagi fikr-mulohazalar va tarixiy sanalar, statistik ma'lumotlar, atamalar, voqealar bo'yicha dalillar keltirish bilan ham shug'ullanadi.

Tarixiy ilmiy tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va asarlaridan, Oliy Majlis qarorlari va qabul qilingan qonunlardan, Respublika Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlaridan keltirilgan sitatalar ham muhim rol' o'ynaydi. Tadqiqotchi kutubxonalar, axborot-resurs markazlaridagi hamma adabiyotlarni tez va to`laqonli o'zlashtira olmaydi. Bunga sabab, hamma tarixiy adabiyotlar ham talaba-tadqiqotchining uyiga, talabalar turar joyiga olib ketib foydalanishga berilavermaydi. Chunki ayrim tarixiy adabiyotlar kutubxonada son jihatdan kamliyi, noyobligi tufayli ham tadqiqotchilarga kutubxona o'quv zalidagina foydalanishga beriladi. Ayni paytda, kutubxonadagi ayrim tarixiy qimmatga ega bo`lgan kitoblar, tadqiqotchilarga maxsus ruxsatnoma asosida, odatda, ilmiy tadqiqot mavzusiga taalluqli bo`lsagina beriladi. O`z navbatida tadqiqotchining qo`liga foydalanish uchun beriladigan adabiyotlar ham belgilangan muddatda kutubxonaga qaytarilishi shart. Demak, yuqoridaq sabablar tarixiy ilmiy tadqiqotga kirishganlarni o'rganayotgan ilmiy adabiyotlардан sitata, ko`chirmalarni ko`proq olishga undaydi. Ilmiy tadqiqotlarda keltiriladigan ko`chirmalarni shartli ravishda "so`zma-so`z, keng, qisqa, o`z so`zi bilan" kabi turkumlarga bo`lish mumkin. Albatta, har qanday holatda keltirilgan sitatalar o`z manbasiga ega bo`lishi kerak.

Keyinchalik ana shunday sitatalar ilmiy tadqiqotning bob- paragraflariga mos ravishda yoritish uchun maxsus papkalarda saqlanadi. Tadqiqotchilar tomonidan davlat rahbarlarining fikr-mulohazalari, hukumat qarorlari, tarixiy sanalar, jadvallarga oid ko`chirmani, mumkin qadar to`la-to`kis, ya`ni "so`zma-so`z" variantida keltirilishi maqsadga muvofiq. Yana shuni alohida qayd etish lozimki, ilmiy tadqiqotlarda keltirilayotgan sitatalar uzundan-uzun bo`lishi maqsadga muvofiq emas. Ammo ayni paytda sitatalar matnlarini qisqartirilgan holda keltirish oxir-oqibatda uzuq-yuluq, matnda keltirilgan fikr, tarixiy dalillar mohiyatini buzib ko`rsatilishiga ham olib kelmasligi lozim.

Umuman olganda, tarixiy ilmiy tadqiqotlarda sitata (ko`chirma, iqtibos)lar zaruriyatni nimalardan iborat? Keltirilgan sitatalar muallif shug'ullanayotgan, ilgari surayotgan nazariy g'oyalari va olib borayotgan tarixiy tadqiqoti uchun turki, tasdiq, isbot, inkor va munozara uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, tarixiy ilmiy tadqiqotlarda sitatalar keltirish sun`iy ravishda, ko`r-ko`rona, shunchaki tarzda bo`lmasligi kerak, aks holda ilmiy tadqiqot ahamiyati susayib ketadi.

Tarixiy ilmiy tadqiqotlar olib borishda yozma formalardan biri **konspekt** ham katta rol' o'ynaydi. Konspekt lotin tilidan **conspectus** ya`ni **izhor** degan ma`noni bildiradi. Tarixiy ilmiy tadqiqotlarni olib borishga kirishgan tadqiqotchilar ilmiy adabiyotlar konspekti uslubidan foydalanishiga to`g`ri keladi. Konspekt qilish anchagini vaqtini, o`ylashni mushohada bilan yozishni taqozo qiladi. Konspekt bu kitobdan to`g`ridan to`g`ri ko`chirib yozish emas, balki o`qiyotgan yoki eshitayotganini umumlashtirib, qisqartirilgan,

yo`qotmagan holda yozib borish demakdir. ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish jarayonida konspektning ikki turidan foydalanish mumkin:

- matnshunoslik;
- mavzuga oid.

Konspektning matnshunoslik turi u yoki bu asarga bag`ishlansa, **mavzuga oidi** esa bir necha asarlarni o`z ichiga oladi. Konspektning matnshunoslik turi, bu asarni o`qib bo`lgandan keyin konsept qilishni boshlab, asosan matn bo`yicha, mantiqiy yo`nalishda olib borilib, tarixiy sanalar, voqeahodisalar, xulosalar yozib boriladi va ayrim hollarda, so`zma-so`z sitatalar keltirilishi mumkin. Shuningdek, ushubu turda tarixiy dalillar, jadvallar ham o`rin oladi. Albatta, konspektning ushbu turida o`rganilayotgan ilmiy adabiyot muallifining ismi-sharifi, familiyasi, asarning to`liq nomi, qachon va qaysi nashriyot tomonidan, qayerda nashr qilingani, kitob to`laligicha necha betni tashkil qilganligi yozib olinadi. Agar ushbu kitobdan ko`chirma olinsa, unda olingan sitatalar kitobning qaysi betiga tegishli ekanligi ham qayd etiladi. Mavjud kitob maqolalar to`plami bo`lsa, unda qaysi maqola matnidan ko`chirma, yozuv olinsa, unda kitob nomidan tashqari, muallif ismi-sharifi va maqola ushbu to`plamda qaysi betlarni o`z ichiga olishi hamda keltirilgan sitata qaysi betlarga tegishli ekanligi yozib qo`yiladi. Chunki bu yozuvlar ilmiy tadqiqot ishini yozishda (*iqtibos va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati keltirilganda – mualliflar*) kerak bo`ladi.. Shuni hisobga olish kerakki, tadqiqotchi tomonidan qilinayotgan konseptni keyin bemalol boshqalar ham o`qiy olishi va tushuna olishi kerak. Afsuski, ayrim hollarda ba`zi bir tadqiqotchilar yozuvini nafaqat o`zgalar, balki izlanuvchining o`zi ham qiynalib o`qiydi... Konspekt jarayonida rangli ruchka, qalamdan foydalanish ishni birmuncha engillashtiradi. Rangli ruchka, qalamlar orqali konsept chetlariga, kerakli joylariga shartli tarzda "muhim" (!), "juda muhim" (!!), "juda to`g`ri" (!!!), "muammoli" (?), "tekshirish kerak" (??), "qo`shilmayman" (?!), "munozarali" (?!?), "juda dolzarb, kerak" (NB) kabi belgi yozuvlarini yozib qo`yish mumkin. Oxir-oqibatda bu belgilar, ilmiy tadqiqot ishini yozishda, kerakli paytda, biror so`z, dalilni tezda topib ishlatish borasida muhim rol o`ynaydi.

Tarixiy ilmiy tadqiqotlarda **mavzuga doir konsept usuli** ham muhim ahamiyatga ega. Bunday qoida kun tartibidagi bitta mavzuga oid bir necha ilmiy adabiyotlardan konsept qilinib, ularni umumlashtirishni taqozo etadi. Oxir-oqibatda bu tarixiy mavzudagi tadqiqotlarga turli yondashuvlarni va ularning tasdiq hamda inkor, bahsli yondashuvini aniqlashga imkon beradi. Talaba ilmiy tadqiqotida bunday uslubdan ham unumli foydalansa bo`ladi.

Mustaqil tadqiqot ustida ishlash tamoyillari. Talabalik yillardagi ilk qadamlardan biri tarixiy asarlarni mustaqil o`rganish, tahlil qila olish va ma`lum darajada xulosalarga ega bo`lish hisoblanadi. Talaba tomonidan mustaqil ish olib borish faol yo`lga qo`yilishiga quyidagi omillar sabab bo`la oladi:

- talaba har bir ma`ruzani va unda tavsiya etiladigan adabiyotlarni jiddiy o`qishi va uqishi darkor;
- amaliy mashg`ulotlarda faol qatnashib, tegishli tarixiy, siyosiy adabiyotlarni o`rganish zarur;

- professor-o`qituvchilar tomonidan tavsiya etiladigan, beriladigan mustaqil ish mavzulari bo`yicha adabiyot va manbalarni topish, o`rganish va qiyosiy tahlil qilishi lozim;
- talaba ustozni ya`ni professor-o`qituvchi maslahati asosida mustaqil tadqiqotga qo`l urishi kerak;
- nazariy va amaliy bilimlarni mustaqil mushohada asosida yoritishga (ma`ruza, referat shaklida) harakat qilishi zarur.

Mustaqil ta`lim bilan shug`ullanish talabada o`z ustida ishlash ko`nikmalarini hosil qilish, tanlagan ixtisosligi bo`yicha dastlabki tadqiqotlarga qo`l urish, hayotining keyingi bosqichlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy o`quv yurti o`quv dasturida talabalarni mustaqil ta`lim jarayonlariga jalb etish ishlari bilan tegishli kafedralar, professor-o`qituvchilar, uslubchilar ish olib boradi. Ammo mustaqil ta`limdan talabaning o`zi manfaatdor bo`lishi kerak. Talaba oliy ta`lim muassasasida o`qitiladi. Lekin u o`tilayotgan ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar bilangina cheklanib qolmasdan, qo`shimcha adabiyotlarni qunt bilan mustaqil o`qishi, nazariy bilimlarini mustahkamlab borishi, olgan hamda olayotgan bilimlariga tayanib o`zini qiziqtirgan u yoki bu mavzu bo`yicha tadqiqot ustida ishlashga harakat qilmog`i lozim. Bu talaba uchun nima beradi? Talabaning mustaqil ta`lim bilan shug`ullanishi ahyon-ahyonda emas, balki doimo, muntazam ravishda ma`lum bir reja va tizimga asoslangan tarzda bo`lishi zarur. Bu bilan har bir talabandan ilmiy tadqiqotchi "yaratish" kerak degan xulosa kelib chiqmasligi darkor. Talabaning mustaqil ta`lim bilan shug`ullanishi, tadqiqot ishlariiga jalb qilinishi oxir-oqibatda uni o`quv rejasidan tashqari adabiyotlar bilan tanishishga, tarixiy voqealarni, dalillarga, shaxslarga nisbatan mustaqil mushohadalar yuritishga, tahlil qila olishga, xulosalar chiqarishga undaydi. Bu esa tarix sohasida izlanayotgan talabalarda mushohada madaniyati rivojlanishi, o`qiyotgan asarlariiga nisbatan o`z fikrini shakllantirish, o`rganayotgan manba va adabiyotlar asosida kelib chiqadigan talqinlarida yangi xulosalar yasashga, mavjud asarlarga tanqidiy yondashishga olib keladi. Yuqorida qayd etilganlarning hammasi asta-sekin, nazariy, amaliy bilimlarning ko`payib, bir-birini to`ldirib borishi natijasida yuzaga kela boshlaydi. Oliy ta`lim muassasasi diplomini olish uchun sa`y-harakatlar jarayonida mustaqil ta`lim bilan shug`ullanish, ma`lum ma`noda ilmiy tadqiqot olib borish har bir talaba uchun muhim ahamiyatga ega. Agar talaba keyinchalik ilmiy ish bilan shug`ullanmagan taqdirda ham, oliy o`quv yurtidagi o`qish yillarda olingan bilimini ixtisoslik bo`yicha kerakli joylarda qo`llashga muvaffaq bo`ladi. O`z navbatida, ayrimlar uchun bu davrdagi ko`nikma bir umrlik bo`lib qolishi ham mumkin. Talabalik yillardagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga ko`nikma qanday xolatlar orqali shakllanishi mumkin degan savolga, – mustaqil ta`limni rivojlantirish orqali deya javob qaytarsha bo`ladi.

Talabalik yillarda o`z vaqtini behuda sarflamay, bilim asoslarini egallash nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o`rganish, kitob o`qish, ilmiy-amaliy anjumanlarda faol qatnashishga o`z vaqtini rejali taqsimlashga o`rganish katta ahamiyatga ega.

Talaba mustaqil ta`limni o`quv rejasida belgilangan fanlar bo`yicha ma`ruzalarni tinglash, amaliy mashg`ulotlarda faol qatnashish bilan birga,

hamohang ravishda olib boradi. Talabalar orasida ma'ruza, bu o'qishning passiv formasi, shakli degan tushuncha bor... Bunga qo'shilib bo'lmaydi. Ma'ruza – bu ta'limning faol turiga kirib, nafaqat professor-o'qituvchi, balki talabaning o'zidan ham ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Chunki ma'ruzani tinglayotgan, yozib borayotgan talaba ma'lum bir dalil, fikr-mulohazalarni tahlil qilib borishiga to'g'ri keladi. Ma'ruzachi tomonidan keltirilayotgan dalillar, voqe-a-hodisalar, tarixiy sanalar, bir so'z bilan aytganda materiallarni shunchaki, ko'r-ko'rona qabul qilmay, balki yo'l-yo'lakay tahlil qila borishi, umumlashtira, taqqoslay olishi kerak bo'ladi. Buning uchun talabada ma'lum bir ilmiy tushunchalar, "ilmiy yuk zahirasi" bo'lishi kerak. Bu esa mustaqil ta'lim bo'yicha yig'ilgan ilm zahirasidan kelib chiqadi. Ma'ruza tinglayotgan talabada ma'lum bir savollar tug'ilishi, ilmiy izlanishiar uchun turki paydo bo'lishi mumkin. Aynan ana shu savollar va ilmiy izlanishga turki bo'lishga arzugulik holatlarga javob izlash ishtiyoqi, oxir oqibatda talabani mustaqil ta'lim olishga, ma'lum bir mavzuni tadqiq qilishga undaydi.

Mustaqil ta'limda har bir kishi bajaradigan ishini, xususan tadqiqot mavzusi, tadqiqot maqsadini o'zi tanlaydi hamda uni amalga oshirish uchun zarur adabiyot va manbalarni ham yig'adi. Adabiyot va manbalarni o'rganib, ularning xolis yoki noxolisligini qiyosiy tahlil qilib, tadqiqotni bajarish muddati va sifati bo'yicha o'zini-o'zi nazorat qiladi. To'la mustaqil ta'lim bilan shug'ullanish, odatda, ilmiy tadqiqotchilar uchun anchagina ko'nikma, ya'ni qisman va nisbatan mustaqil ta'lim bosqichlarini o'tgandan keyin amalga oshiriladi.

Oliy o'quv yurtlaridagi dastlabki kurslarda ko'pincha qisman va nisbatan mustaqil ta'limni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Chunki talaba birinchi bosqichga qabul qilingandan keyin tegishli fanlar bo'yicha ma'ruza, amaliy mashg'uotlarda faol qatnashib, asta-sekin oliy ta'limdagisi o'qitish tizimini o'rganishga, o'zlashtirishga kirishadi.

Fanlar bo'yicha ma'ruza o'qiyotgan, amaliy mashg'ulot o'tkazayotgan professor-o'qituvchilar tomonidan tavsiya etiladigan mavzular bo'yicha mustaqil ta'lim tizimida ish olib boradi. Albatta, talaba professor-o'qituvchi va shuning-dek, kutubxona maslahatchilari, arxiv xodimlari yordamida mavzu bo'yicha adabiyotlar, yozma manbalar, arxiv manbalari, ashyoviy dalillar (axeologiya, etnografiya, numizmatikaga oid – mualliflar) bilan tanishadi. Shundan so'ng mavjud materiallarni ma'lum bir tizimga solib, qiyosiy tahlil qilgan holda mavzuni yoritishga tayyorlanadi. Mustaqil ta'lim bo'yicha mavzuni yoritishda chop etilgan o'quv-uslubiy qo'llanma va ishlanmalardan ham foydalanadi. Keyin mavzu bo'yicha tegishli adabiyotlar, manbalar tahliliga suyangan holda reja loyihasini tuzadi va uni ustoz bilan hamkorlikda takomillashtiradi. Ammo ayni paytda, mavzuga oid adabiyotlar, manbalarni o'rganish, tahlil qilish reja asosida mavzuni yoritish va xulosalar berishni mustaqil ravishda amalga oshiradi. Taiaba tomonidan yoritilgan mavzu tegishli fan professor-o'qituvchisi nazoratidan o'tadi va kafedraga topshiriladi.

Tarix fani bo'yicha talabalar tomonidan tayyorlangan mustaqil ta'limga oid ishlar qo'lyozma yoki kompyuterda yozilgan shaklda topshirilishi mumkin. Mustaqil ta'lim bo'yicha qo'lyozma odatda 15 – 20 varaqni, kompyuterda yozilishi bo'yicha esa 12 – 15 varaqni tashkil qilishi mumkin.

Tarix bo'yicha mustaqil ta'lim ishlarini yozgan talabalar, albatta, ushbu ishni to'la-to'kis o'zlashtirgan bo'lislari, xususan tarixiy asarlar, atamalar, voqealar, shaxslar bo'yicha ma'lumotlarni og'zaki ham tushuntira bera olishlari kerak. Bu mustaqil ta'lim va uni o'zlashtirishning asosiy talab-qoidalaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim bo'yicha tarixiy mavzuni to'laqonli yoritishda talaba o'qib-o'rgangan nazariy bilimlariga asoslanib, reja asosida, tegishli adabiyotlar, manbalarga tayanib, ilmiy javob yozib, ma'lum bir xulosalar bilan birga amalii tavsiyalar ham bermog'i lozim.

Har bir talaba mustaqil ta'lim mavzusini yoritish va tegishli xulosalar chiqarishga, yakka tartibda, o'qib-o'rgangan nazariy bilimlaridan kelib chiqqan holda yondashadi.

Referat ishlarini yozish va rasmiylashtirish. Talabalik yillaridagi ilk ilmiy ishlar qatoriga referat ishlarini yozish kiradi. Tarixiy tadqiqotlarda referat yozish – mustaqil ta'limning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Tarix yo'nalihsida referat yozishga talabalar birinchi bosqichdanoq jalg etila boshlaydi. Ammo referat bu nima, uni yozishning qanday usullari bor degan savolga hamma ham to'g'ri va asosli javob bera olmaydi. Referat (lotincha **Refero - axborot beryapman**) – u yoki bu ilmiy maqola, tadqiqot, asar, o'qilgan kitob va shu kabilarning qisqacha yozma yoki og'zaki bayoni hisoblanadi. Referat bu yana o'rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqidagi axborot, tegishli adabiyot va boshqa manbalarning qisqartirilgan shartli tahlilini ham o'z ichiga oladigan ma'lum mavzuli ma'ruza ham demakdir. Demak, referatda ma'lum bir mavzudan kelib chiqib, tegishli tarixiy adabiyot va manbalar tahlili asosida, ijobjiy hamda tanqidiy munosabatlarni o'z ichiga olishi ham mumkin. Albatta, referatda o'z aksini topgan ijobjiy yoki salbiy munosabat ma'lum bir datillarga, isbotlarga tayangan bo'lishi, ehtiroslardan yiroq va ayni paytda ilmiy asoslangan bo'lmog'i darkor. Referatda muayyan mavzu yoritilishi bilan birga tegishli ilmiy nazariyalar, ilmiy xulosalar, tarixiy tarozida tahlil etilishi, zarur hollarda, yordamchi tarixiy fanlar orqali qiyosiy tahlil qilinishi va asosli deb topilganda, tanqid ham qilinishi mumkin. Shuni eslatish lozimki, adabiyotlar, manbalarga asoslangan tarixiy ilmiy tadqiqot bilan ijodkorning badiiy tarixiy adabiyoti o'tasida katta farq bor. Ammo har qanday ijodkor ham tarixiy voqealar, shaxslar xususida yozayotganda, badiiy to'qimadan foydalanganda ham, tarixiy sanalar, ismi shariflar, tarixiy shaxslar bilan bog'liq holda kechgan voqealari-hodisalar, ma'lum ilmiy dalillarga asoslangan holda yondashuvi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, referat oliy o'quv yurti, xususan tarixiy tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Referat yozish quyidagi yo'nalihslarni o'z ichiga olish mumkin:

1. Ijtimoiy-siyosiy
2. Ijtimoiy-iqtisodiy
3. Tarixiy asarlar, manbalar
4. Tarixiy shaxslar
5. Tarixiy voqealar
6. Tarixiy sanalar v. b.
7. Qo'zg'olonlar, urushlar, shartnomalar

Referat yozishga tayyorgarlik davomida mavzudan kelib chiqib tegishli adabiyot va manbalarga murojaat qilinadi. Adabiyot va manbalarga murojaatni shartli ravishda quyidagi yo`nalishlarda olib borish mumkin:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, farmoyishlari, qarorlari, asarlari, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari.

2. Monografiya, ilmiy to`plamlar, hujjatlar to`plami, turli ma`lumotlar, tarixiy tadqiqotlar.

3. Jurnal va gazetalardagi maqolalar.

4. Arxiv, qo`lyozma manbalar.

5. Xotiralar.

Masalan, talabaga referat mavzusi sifatida "Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o`rni" masalasi belgilandi. Talaba qiladigan dastlabki ishlardan biri Amir Temur shaxsi va sultanatiga oid adabiyotlarni o`rganishga, tizimga solib ma`lum bir tarzda solishtirishga kirishishdan iborat bo`ladi. Shundan keyin referat rejasini tuzish kerak bo`ladi. Xususan, referat rejasida Amir Temur shaxsi va uning shakllanish jarayoni, sultanat sohibi, sarkarda ekanligi, uning davridagi xalqaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlari o`rin oladi. Ushbu mavzu bo`yicha referat rejasini quyidagi shaklda bo`lishi mumkin.

Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o`rni **REJA**

Kirish

1. Mavarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol.
2. Amir Temur davrida davlat kuriishi va ma`muriy islohotlar.
3. Amir Temuring harbiy sarkardalik mahorati.
4. Amir Temur davrida xalqaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlari.

Xulosa

Foydalanimanligi adabiyotlar ro`yxati.

Referatning kirish qismida Amir Temuring jahon tarixida tutgan o`rniga sobiq sovet davridagi hamda xorijdagi munosabat qisqa va asosli bayon etiladi. Xulosa qismida esa, Amir Temuring jahon tarixida tutgan o`rni va ahamiyatiga e`tibor qaratiladi.

Referat mavzusiga oid adabiyotlar tanlangandan keyin talaba oldida ularni o`rganish, tizimga solish, tahlil qilish vazifalari turadi. Referat mavzusini ustida ishlashning eng maqbul variantlaridan biri, tanlangan adabiyotlarni har tomonlama tahlil qilish, kerakli joylaridan iqtibosda foydalanimanligi uchun belgilab olish kerak bo`ladi.

Albatta, talaba tarixiy adabiyotlarda keltirilgan dalillarni tanqidiy o`rganishi va bir tomonlama talqindan voz kechgan holda, xolisona, mumkin qadar asosli ravishda o`z munosabatini bildirishi kerak. Mavzuni yoritishda uchraydigan bahsli masalalar keltirilishi, mumkin qadar, "so`zma-so`z" bo`lishi va bunga tadqiqotchi-talabanining yondashuvi, munosabati o`z aksini topish lozim.

Referat mavzusiga oid adabiyotlarni o`rganishni talaba qo`lida qalam bilan olib borishi kerak. Chunki adabiyotlarni o`rganish jarayonida talabada ma`lum bir fikr-mulohaza, savol tug`iladi va uni darrov yozib qo`yish maqsadga muvofiq

bo`ladi. Agar shunday qilinmasa, unda o`qish jarayonida tug'ilgan yangi fikr-mulohazalar, savollar keyinchalik esdan chiqib ketishi ham mumkin. Holbuki, yozib qo`yilgan fikr-mulohazalar, savollar va unga javoblar referat mazmunini yoritishda, xulosa qismida albatta asqotadi.

Talaba mavzudan kelib chiqib, dolzarb muammo, tarixiy voqe-a-hodisalar va shaxslarga munosabatni eng yangi ma`lumotlar, ya`ni ommaviy axborot vositalari, internet ma`lumotlari asosida ham to`ldirishi mumkin.

Yig`ilgan material, odatda, bir necha referat yozishga etishi mumkin. Ammo talaba mavzu bo`yicha atigi bitta referat yozishi kerak... Nima qilmoq kerak? Dastlab yig`ilgan materiallarni yana qaytadan, sinchkovlik bilan o`rganib chiqish darkor. Natijada, referatda foydalanish zarur bo`lgan birlamchi materiallar va ikkinchi darajali, ya`ni referatda foydalansa ham va foydalanmasa ham bo`laveradigan materiallar ko`zga tashlanadi. Ayni paytda bu referat rejasini yana qaytadan ko`rib chiqishga asos bo`la oladi. O`z navbatida bu jarayon to`plangan materiallardan unumli foydalanish imkonini yaratadi. Xususan, referat rejasini mantiqan bir-birini to`ldirishi, uzviy bog`liqligi bilan ham ahamiyatga ega. Ayni paytda referat rejasidan o`rin olgan har bir qism-paragraf mavzuning ma`lum bir tomonini yoritishi va oxir oqibatda hamma paragraflar birgalikda mavzuni qamrab olmog`i darkor. Paragrafda qo`yilgan masalalarni yoritishda qaytarishlar bo`lmasligi kerak.

Mavzuni yoritish jarayonida kirish qismi muhim ahamiyatga ega bo`lib, unda masalaning dolzarbligi, qo`yilgan muammolar va qisqacha tarzda tadqiqotchi o`z oldiga qo`yan maqsadlar yoritiladi. Referatning xulosa qismida muammo bo`yicha qisqa xulosalar beriladi. Umuman olganda, referat ishlarini bajarganda taiaba mustaqil ish bajaradi va bu quyidagi holatlarda ko`zga tashlanadi:

- dastlabki ilmiy tadqiqot shaklida bo`ladi;
- olingan nazariy natijalardan o`quv jarayonini takomillashtirishda foydalanish mumkin;
- referat yozgan talabalar tomonidan qiziqarli, mustaqil xulosalar beriladi.

Shunday qilib, oliy ta`lim tizimidagi tarixiy tadqiqotlarda referat – talaba tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil ish hisoblanadi. Referatda mavzu bo`yicha chop etilgan adabiyotlar o`rganilgani, shu masala bo`yicha muammo o`z aksini topishi lozim. Mavjud muammoga nazariy bilimlar asosida talabaning nuqtai nazari, tegishli xulosalar beriladi.

Referat oxirida talaba tegishli mavzuni yoritishda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini keltiradi. Adabiyotlar ro`yxatida talabaning qaysi adabiyotlarga murojaat qilgani ko`zga tashlanadi. Foydalanilgan adabiyotlarni tizim asosida aks ettirishda adabiyotlar referat rejasidagi bob, paragraflardan kelib chiqib taqsimlanadi. Har bir paragraf, bob uchun alohida, alifbo asosida adabiyotlar ro`yxati keltirilishi ham mumkin.

Referat mavzusidan kelib chiqib, ayrim hollarda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini xronologik tarzda, ya`ni uning chop etilishi yilidan kelib chiqqan holda keltirish ham qoidaga zid kelmaydi (9- mavzuga qarang).

Tayanch so`zlar

Mustaqil ta`lim shakllari, sitata, ko`chirma, iqtibos, konspekt, matnshunoslik, "muhim", "juda muhim", "juda to`g`ri", "qo`shilmayman", "munozarali", "tekshirish kerak", oddiy va kengaytirilgan reja, referat.

Nazorat savollari

1. Tarixchilik kasbini tanlagan talaba qaysi qoidalarga rioya qilishi kerak?
2. Oddiy va kengaytirilgan ish rejalarini haqida nimalarni bilasiz?
3. Konspektning qanday turlari mavjud?
4. Mustaqil ish referatdan o`zining qaysi jihatni bilan farq qiladi?

4- MAVZU: KURS ISHI YOZISH ASOSLARI

REJA

1. Kurs ishi yozishning nazariy asoslari.
2. Kurs ishi rejasini tuzish va mavzuni yoritish.
3. Mavzuga oid adabiyotlar, manbalarni to`plash va qayta ishlash.
4. Kurs ishini rasmiylashtirish.

Kurs ishi yozishning nazariy asoslari. Oliy ta`lim tizimida kurs ishi o`quv rejasiga kiritilgan va bajarilishi shart bo`lgan vazifalardan biri hisoblanadi. Kurs ishi referat yozishdan ma`lum darajada farq qiladi. Kurs ishi yozdirishdan maqsad oliy o`quv yurtida yil davomida talabaning u yoki bu fandan to`plagan bilim va ko`nikmalarini mustahkamlash, talabaning mustaqil ilmiy izlanish darajasi hamda tegishli kursdagi umumiylari maxsus bilimlarini o`zlashtirish to`g`risida tushuncha beradi. Shuningdek, mustaqil ravishda yangi bilimlarni o`zlashtirish darajasi, tarix yo`nalishidagi barcha fanlardan olgan bilimlarini mustaqil mustahkamlashdan dalolat beradi.

Kurs ishi referat yozishga nisbatan qamrovi, ilmiy tadqiqot yo`nalishidagi o`rni, talabada mustaqil ravishda o`quv dasturlarini o`zlashtirish hamda ilmiy mushohadani shakllantirish va ko`nikmalar hosil qilishidagi roli bilan ajralib turadi. Kurs ishi talabalarda nazariy bilimlarni kengaytirish va amaliy bilimlarni chuqur egallahsha undaydi. Kurs ishini yozish jarayoni asosan quyidagi yo`nalishlarni o`z ichiga oladi:

1. Kurs ishi mavzusini tanlash.
2. Mavzuga oid adabiyot va manbalarni to`plash va qayta ishlash.
3. Mavzuni yoritish bo`yicha reja va ish reja tuzish.
4. Kurs ishini yozish.
5. Kurs ishini talab darajasida rasmiylashtirish.

Kurs ishini yozish ham referat singari mavzu tanlashdan boshlanadi. Tarix fani tegishli yo`nalishi bo`yicha kurs ishi o`quv rejasida belgilangan bo`lib, mavzular tegishli fanlar o`qitiladigan kafedralarda ishlab chiqiladi va bunda kamida uch yiilik hajmdagi “**Mavzular jamg`armasi**” dan kelib chiqilishi lozim bo`ladi. Kurs ishi mavzusi o`z xohishiga ko`ra va kafedra professor-o`qituvchilari, xususan ilmiy rahbari bilan maslahatlashgan holda ham tanlanishi mumkin. Shuni qayd etish kerakki, har qanday ilmiy tadqiqot zamirida muvaffaqiyatli tanlangan mavzu, tadqiqotning o`z vaqtida, qiziqish bilan va sifatlari bajarishga zamin yaratadi.

Tanlanadigan kurs ishi mavzusi qanday bo`lishi maqsadga muvofiq? Mumkin qadar keng xronologik davrni o`z ichiga olmagan, aniq bir davr, tarixiy voqealari va shaxsni qamrab olgan mavzularni tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. O`z navbatida mavhum, aniqrog`i, u yoki bu mavzu bo`yicha adabiyot va manbalarni bordan ko`ra, yo`qligi aniqrog`ini tanlamagan ma`quil. Kurs ishi orqali talaba mavzusi bo`yicha kengroq ma`lumotlarga tegishli adabiyotlar va manbalarni o`rganish orqali erishadi. Ayni paytda kurs ishi bo`yicha tanlangan mavzu birinchi navbatda talabaning o`zida ma`lum bir

qiziqish uyg'otishi kerak. Bu qiziqish talabaning o'qish davomida olgan nazariy bilimlari va shuningdek, tegishli fan bo'yicha ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar olib borgan professor-o'qituvchi va kurs ishi bo'yicha ilmiy rahbari etib tayinlangan ustozining maslahatidan ham kelib chiqadi. Albatta, talaba tomonidan tanlangan kurs ishi mavzusi tegishli kafedra bilan kelishgan holda amalga oshirilib, keyin tasdiqlanadi. Talaba tanlangan kurs ishi mavzusini o'zgartirishi mumkinmi? Buning uchun talaba, birinchidan, mavzuni nega o'zgartirayotganini asoslay olishi (*masalan, adabiyotlar, manbalar etarli emasligi – mualliflar*), ikkinchidan, bu haqda ilmiy rahbari va tegishli kafedra roziligi, *uchinchidan*, kurs ishi mavzusi tanlanganidan keyin dastlabki kunlardayoq shu xulosaga kelishi kerak. Demak, talaba o'zboshimchalik bilan kurs ishi mavzusini o'zgartirishi mumkin emas. Shuning uchun har bir talaba dastlabki kurs ishi mavzusini tanlashda har tomonlama o'ylab, sinchkovlik bilan o'rganib, ilmiy rahbari maslahatini olibgina masalaga yondashish zarur. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, tarix yo'naliqidagi kurs ishlarini muvaffaqiyatlama oshirish uchun darslik, o'quv qo'llanma va bir – ikkita risolaning bo'lishigina etarli emas. Kurs ishi o'z qamroviga ko'ra keng miqyosdagi adabiyotlar, tarixiy manbalarni qamrab olishi lozim.

Kurs ishi rejasini tuzish va mavzuni yoritish. Kurs ishi mavzusi bo'yicha tarixiy adabiyotlar, manbalar bilan tanishish jarayonida **kengaytirilgan ish rejasi** tuziladi. Mavzuga oid tarixiy adabiyotlar va tegishli manbalar yig'ilgandan keyin reja tuzilib, shu asosda kurs ishini yozishga kirishiladi. Kurs ishi rejasini talabaga mavzuni to'laqonli va asosli tarzda yoritishga, boblar-paragraflar oraliq'idagi mantiqiy davomiylikka yordam beradi. Albatta, kurs ishi rejasini mavzu bo'yicha adabiyot va manbalarni yig'ish, qayta ishlash jarayonida bir necha marta o'zgarishi, aniqiik kiritilishi, to'ldirilishi mumkin. Shuning uchun ham kurs ishi bo'yicha dastlab ish rejasi yoki kengaytirilgan ish reja tuzib, mavjud materiallar qayta ishlangandan keyin haqiqiy reja tuzilishi mumkin.

Reja kurs ishi mavzusi qanday ekanligidan kelib chiqib tuziladi va bu tegishli mavzuga oid bo'ladi. Ammo har qanday kurs ishi mavzusini yoritishda quyidagi bo'limilar mavjud bo'ladi:

1. Kirish
2. Tarixiy obzor (tahlil)
3. Asosiy qism (bob va paragraflar)
4. Xulosa
5. Foydalilanigan manba va adabiyotlar ro'yxati

Kurs ishining kirish qismida ushbu mavzu dolzarbliji, xronologik davri, geografik hududi, maqsad va vazifalar qisqacha asoslab beriladi. Tarixiy obzor qismida esa taiaba tomonidan kurs ishi mavzusi bo'yicha foydalangan tarixiy adabiyotlar va manbalarga asoslanib, mavzuning o'rganilish darajasini asoslaydi hamda mavjud adabiyot – manbalarga o'zining tanqidiy munosabatini ham (*asosli bo'lsa – mualliflar*) bildiradi. Tarixiy obzorda, talaba kurs ishi mavzusi va uning xronologik davridan kelib chiqib, o'z munosbatini qiyosiy tahlilga yondashgan holda yoritadi. Tarixiy tahlil qismini kurs ishida alohida yoritish ham, kirish qismi tarkibida keltirish ham mumkin.

Kurs ishining asosiy qismi boblarga – paragraflarga, bo`limlarga bo`linishi va tegishli tarzda yoritilishi mumkin. Xulosa qismida esa talaba o`zi amalga oshirgan ilmiy tadqiqoti – kurs ishida ko`tarilgan masalalarni umumlashtiradi va mantiqiy yakunlashga erishadi. Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro`yxati qabul qilingan qoidalar asosida keltiriladi (9- mavzuga qarang).

Mavzuga oid adabiyotlar, manbalarni to`plash va qayta ishlash. Kurs ishi yozish jarayonida talabalar o`zлari tanlagan mavzusiga oid tarixiy adabiyotlar, manbalarni to`plash va ularni qayta ishlash jarayonida kutubxona va zarur hollarda, tegishli arxivlarda ishlaydilar. Talaba zimmasiga olgan dastlabki vazifalar qatoriga tanlangan mavzu bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, asarlari hamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, farmoyishi, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonuni, qarori yoki o`zgacharoq ifodalaganda mavzuga taalluqli rasmiy adabiyotlar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash kiradi. Keyin tanlangan mavzudan kelib chiqib, mavzuga bevosita yaqin adabiyotlarni o`rganishga kirishiladi. Chunki har bir kurs ishi yozishga kirishgan talaba tanlagan mavzusi bo`yicha mavjud tarixiy adabiyotlar, manbalarni chuqur o`rgangani, keyingi yillarda tarixshunoslik bu borada qanchalik oldinga ketganini yoki oqsayotganini asoslay olishi zarur. Bu o`z navbatida, talabalar tomonidan yoziladigan kurs ishi, o`zining tutgan o`rniga ko`ra, talabaning yuqori darajada nazariy bilimlidardan dalolat berishi zarur. Shuningdek, talaba tanlagan mavzusini yoritishda egallagan tarixiy–nazariy bilimi, voqeа va hodisalar, shaxslar hamda tarixiy sanalarga tanqidiy yondashuvini, mavzuga oid adabiyot hamda manbalarni to`plab, ularni har tomonlama tahlil qilib, xolisona fikr bildirishi hamda ilmiy asoslangan xulosa qila olishini ko`rsata bilishi kerak.

Kurs ishi bo`yicha adabiyotlarni to`plash, ayrim hollarda, qo`lyozma manbalariga, arxiv manbalariga murojaat qilish, ma`lum darajada mavzu xronologiyasi bilan ham belgilanadi. Masalan, kurs ishi mavzusi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida (*tarixiy davrlar ko`rsatkichi bo`yicha 13- ilovaga qarang - mualliflar*) Turkiston va Rossiya xalqlari o`rtasidagi ijtimoiy–siyosiy, iqtisodiy munosabatlar bilan bog`liq bo`lsa, bu mavzu bo`yicha ilmiy tarixiy adabiyotlar mustaqillikkacha va istiqlol yillarda ko`plab chop etilganini ta`kidlash mumkin. Ammo ayni paytda tarixiy adabiyotlarni to`plash va ularni tahlil qilib, qayta ishlashdan tashqari, shu davrga oid davriy matbuot materiallari (*o`zbek va rus tillarida Turkistonda, rus tilida Rossiyada chop etilgan gazeta va jumallar – mualliflar*), arxiv manbalarini ham to`plash va tizimga solib foydalanish kurs ishi ahamiyatini, ya`ni hali ilmiy iste`molga kiritilmagan manbalar bilan boyitilganligini ko`rsatadi. Ayni paytda kurs ishi mavzusi eng yangi tarix bilan bog`liq bo`lsa, unda tarixiy adabiyotlar xilma–xilligi nisbatan oz bo`lishi tabiiy va shundan kelib chiqib davriy matbuot materiallari, internet materiallariiga murojaat qilish mumkin. Demak, kurs ishi mavzusini yoritishda mavjud tarixiy adabiyotlardan, qo`lyozma va arxiv manbalaridan, davriy matbuot materiallariidan tashqari internet materiallariidan ham foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki internet materiallari orqali kurs ishi mavzusiga oid respublikamizda chop etilgan tarixiy adabiyotlar bilan birga xorijda bu mavzu yoritilishi, amalga oshirilayotgan tadqiqot mavzusi yoki unga yaqin qanday ilmiy izlanishlar yoki borilayotgani to`g`risida ma`lumotlarni

ham topish mumkin. Mavzu bo'yicha adabiyotlar, manbalar to'plashiga kirishgan talaba o'zi uchun alohida papka tutishi va kutubxonalarda foydalanish uchun maxsus kartochka tayyorlab olishi maqsadga muvofiq. Kartochka namunasi quyidagi tarzda tayyorlanishi mumkin (2- shakl):

2- shakl

KARTOCHKANING OLD TOMONI

Muallifning familiyasi, ismi sharifi	Kartochka №
Manba nomi (kitob, maqola) Nashr yili, nashriyot nomi, yil, necha betligi, qaysi betlardan foydalanildi? Jurnal(gazeta) nomi, yil, nomeri, qaysi betlardan foydalanildi?	

KARTOCHKANING ORQA TOMONI

Kurs ishining qaysi paragraflariga oid
TSitata (yoki o'z so'zi bilan)
Aniq dalil (argument)
Tarixiy sana
Hammasida manba beti-varag'i keltiriladi.
Mening e'tirozim

Albatta, kartochkani tayyorlashga ijodiy yondashib, buni komp'yuterda ko'paytirib olish ham mumkin. Bundan tashqari tarixiy adabiyotlar, arxiv, qo'lyozma, davriy matbuot materiallarini turlarga bo'lib, ma'lum bir tizim asosida bo'laklarga ajratib olsa ham bo'ladi. Tartibli, ma'lum bir tizimga asoslangan holda tarixiy adabiyotlarni o'rganish, tegishli manbalarni tahlil qilish va ularning qiyosiy tahlili asosida kurs ishining rejasini tuzishga kirishish mumkin.

Kurs ishini rasmiylashtirish. Kurs ishi sifat jihatidan ko'plab talablarga javob berishi, ya'ni keng qamrovli, tarixiy adabiyotlar, manbalarni o'z ichiga olganligi, tarixiy bog'langanligi va qiyosiy tahlili, ravon tilda yozilganligi, tushunarli, mantiqan, uzviy bog'liq holda ifoda etilganligi bilan hamda talab darajasida rasmiylashtirilganligi, sitatalardan o'rinni foydalanganligi, maqola, ilmiy adabiyot va to'plamlar, arxiv manbalariga berilgan iqtiboslarni qabul qilingan qoidalardan chetga chiqmagan holda keltirilganligi bilan ham muhim ahamiyatga ega.

Kurs ishi o'z hajmiga ko'ra komp'yuterda 25 – 30 betni, qo'lyozmada 35 – 50 betni tashkil etadi. Odatda kurs ishi talaba tomonidan qo'lyozma shaklda yoziladi. Istisno tariqasida kafedra, dekanat ruxsati bilan komp'yuterda ham yozilishi mumkin. Kurs ishi belgilangan hajmiga foydalangan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalar kirmaydi. Kurs ishida keltiriladigan iqtiboslar tartib-qoidasi ushbu qo'llanmada referat, kurs ishi, malakaviy bitiruv ishi, magistrlar dissertatsiyasi uchun bir xil belgilangan (9- mavzuga qarang).

Kurs ishini yozish quyi va yuqori bosqich talabalari uchun bir-biridan farq qiladimi? Albatta, 1-bosqichni bitirayotgan talaba bilan 2- 3- bosqichni tugatayotgan talaba nazariy, amaliy bilimlar, tarixiy mushohadalar nuqtai nazaridan o'zaro farq qiladi. Shuning uchun ham quyi bosqichdagi talabalardan kurs ishi yozish jarayoniga jalb etishdagi talablar, ma'lum darajada, yuqori bosqichdagi talabalaridan farqlanadi.

Quyi bosqich talabalaridan kurs ishiga oid asosiy talablar quyidagicha:

- kurs ishi mavzusidan kelib chiqib, maqsad va vazifalarni aniq va to'g'ri belgilash;
- mavzuga oid adabiyotlarni mustaqil o'rganish;
- adabiyotlarni turlarga ajratish;
- mavzu maqsad va vazifasidan kelib chiqib, adabiyotlarga tavsif berish;
- aniq yo'nalishli reja tuzish va mavjud materiallarni taqsimlash;
- mavjud adabiyotlarni tanqidiy o'rganish va tahlil qilish;
- ilgari surilayotgan fikr-mulohazalarni asoslash;
- kurs ishini ilmiy jihatdan to'g'ri rasmiylashtirish.

Quyi bosqich talabalaridan qilinayotgan asosiy talablarga nisbatan yuqori bosqichdagi talabalar uchun qo'shimcha vazifalar quyidagilardan iborat:

- mavzuning dolzarbligi va nazariy ahamiyatini asoslash;
- tarixiy va manbaviy obzor (tahlil) berish;
- mustaqil ravishda manba, adabiyotlarni o'rganish va qayta tiklash.

Yuqori bosqich talabalari kurs ishini yozishda tarixiy-nazariy bilimlari, dunyoqarash kengligini, ilmiy mushohadasi shakllanayotgani va eng asosiysi, mustaqil tarzda ilmiy tadqiqot ishini olib borishga tayyorgarlik ko'rganliklarini ko'rsata olishlari kerak. Kurs ishi muvaffaqiyatida talabaning aqliy, ilmiy salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kurs ishi matnida asosiy qism, ya'ni kirish va xulosadan tashqari, umumiy hajmining 2/3 qismiga to'g'ri kelishi kerak.

Kurs ishi yozib bo'linganidan keyin ilmiy rahbar ko'rígiga beriladi va so'ngra tegishli kafedraga topshiriladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, kurs ishi belgilangan muddatda ilmiy rahbarga va keyin kafedraga topshirilishi kerak, aks holda taiaba o'quv rejasini bajarmagan hisoblanadi.

Shunday qilib, kurs ishi yozish jarayonida taiaba avvalo mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishga jalb qilinadi. Tarixiy mavzulardagi kurs ishlari oxir-oqibatda talabandan mustaqil adabiyotlar tahlili bilan shug'ullanish, tarixiy manbalarni tahlil qilish, maxsus kurs va tegishli predmetlarda o'tilgan mavzularni chuqur, ilmiy asosda o'rganish va yozma ravishda ifoda qilishga ma'lum bir ko'nikma hosil qiladi.

Kurs ishini yozishda asosiy masala dalillarni yig'ishdangina iborat bo'lib qolmasligi kerak. eng muhimi va qiyini kurs ishi mavzusi bo'yicha yig'ilgan materiallarni muvaffaqiyatlari umumlashtirish, bir tizimga solishdan iborat. Kurs ishi yozish jarayonida kerakli adabiyotlarni yig'ish va dalillar toplashga e'tibor birinchi o'ringa chiqsa ham, kurs ishini bevosita yozishga kirishilganda asosiy vazifa mavjud materiallarni ahamiyatga molik yoki unchalik shart bo'lmagan guruhchalarga ajratib olish hisoblanadi. Shundan keyingina kurs ishini materiallarni asosida yozishga kirishish mumkin.

Kurs ishi titul varag'i (1- ilovaga qarang), hajmi, ko'chirma (sitata, iqtibos)lar keltirish tartib-qoidalari alohida qayd etiladi (9- mavzuga qarang).

Tayanch so'zlar

Kurs ishi, nazariy asoslар, mavzu tanlash, boblar, paragraflar, tarixiy obzor (tahlil), asosiy qism, xulosa, kartochka, "qunt bilan o'qish", rasmiylashtirish, titul varaq.

Nazorat savollari

1. Kurs ishi yozishning nazariy asoslariiga nimalar kirishini gapirib bering?
2. Kurs ishining tarkibiy qismi haqida qanday ma'lumotga egasiz?
3. Kurs ishini rasmiylashtirishda qaysi jihatlarga asosiy e'tibor qaratish lozim?
4. Kurs ishi tarkibiy tuzilishi nuqtai nazaridan mustaqil yoki referat ishlaridan qaysi jihat bilan farqlanadi?

5- MAVZU: BITIRUV MALAKAVIY ISHINI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISH

REJA

1. Bitiruv malakaviy ishi yozishga qo`yiladigan asosiy talablar, mavzu va reja.
2. Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.
3. Bitiruv malakaviy ishi tayyorlashda ilmiy rahbar va talabaning vazifasi.
4. Bitiruv malakaviy ishi yozishda material, manbalar yig`ish va uni qayta ishslash.
5. Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish.

Bitiruv malakaviy ishi yozishga qo`yiladigan asosiy talablar, mavzu va reja. Bitiruv malakaviy ishini bajarish, rasmiylashtirish va himoya qilish tartibi uchun O`zbekiston Respublikasi olyi ta`lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasi to`g`risidagi Nizom va O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2010-yil 9-iyundagi 225-sonli buyrug'i me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Oliy ta`lim tizimi o`quv rejasida ko`rsatilgan ilmiy tadqiqot ishlarining so`nggi bosqichida bitiruv malakaviy ishi yozish ko`zda tutilgan. Tarixiy tadqiqot ishlarining referat, kurs ishlari bosqichlaridan keyin 4-bosqich yakunida bitiruv malakaviy ishini tayyorlash, bu talabalik yillarda ilmiy tadqiqot olib borish usullarini o`rgangani, Vatanimiz tarixidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarni va jahon tarixiga oid fanlarni, maxsus kurslarni to`laqonli o`zlashtirgani hamda tegishli fanlar bo`yicha amaliy, pedagogik mashg`ulotlarni to`la o`tgandan keyin amalga oshiriladi. Bitiruv malakaviy ishi yozishda qo`yiladigan asosiy talablar:

- tajaba tomonidan yoziladigan bitiruv malakaviy ishi o`z xususiyatiga ko`ra, bitiruvchining yillar davomida olgan nazariy-amaliy bilimlarini umumlashmasi, xususan tarixiy tadqiqotlarga oid olgan bilimlari asosida mustaqil yondasha olishi, ya`ni tanlagan ilmiy tadqiqoti mavzusini yoritishda tarixiylik, davriylik talablariga, tarixiy voqealarni xolisona talqin qila olish qobiliyatini ko`rsata olishi kerak;
- bitiruv malakaviy ishi orqali talaba tanlagan mavzusini yoritishda tarixiy voqealar, sanalar, tarixiy shaxslar va hozirgi davrning dolzarb muammolarini tutgan o`rniga ko`ra xolisona, har qanday mafkuralar ta`siridan xoli tarzda yondasha bilishini, tarixiy jihatdan masalani qiyosiy tahlil qila olishi, tarixiy voqealarga tanqidiy munosabatda bo`la olishini isbotlay olishi lozim;
- bitiruv malakaviy ishi mustaqil olib borilgan ilmiy tadqiqot natijasi bo`lib, unda talaba tarix fanining umumiyligi va aniq masalalarini erkin ajrata olishi, mavzusiga oid yozma manbalarni, tarixiy adabiyotlar, arxiv manbalarni tanlay olish va qiyosiy tahlil qilish, shu paytga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tanqidiy o`rganish, mustaqil mushohada asosida o`z ilmiy ishini oxiriga etkazish imkoniyatiga ega bo`lishi kerak;
- bitiruv malakaviy ishida talabaning yuqori darajada nazariy-amaliy bilimlarni egallagani, xususan tarix fani bo`yicha olib borayotgan ilmiy tadqiqoti

- mavvusini yoritishda tarixiy dalillar, voqealarni asosli, ma'lum bir manbalarga suyangan holda, xolisona, mustaqillik mushohadasiga tayangan holda olib bora olishini ko'rsatishi zarur;
- bitiruv malakaviy ishi mavzulari tegishli kafedra professor-o'qituvchilarini tomonidan, kafedradagi mutaxassislar malakaviy yo'nalishini ham hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va bu "**Mavzular jamg'armasi**" kamida uch yillik bitiruvchilar sonidan kelib chiqishi kerak. Bitiruv malakaviy ishi mavzulari tegishli tarzda kafedra majlisi, fakul'tet va oliy o'quv yurti ilmiy kengashlarida muhokama qilinib, mavjud talabalar soniga muvofiqlashtirib tasdiqlanadi;
 - tarixiy "**Mavzular jamg'armasi**" dolzarb, talabani mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishga undaydigan, talaba tanlagan ixtisoslik bo'yicha ilmiy yoki amaliy masalalarni qamrab olgan bo'lishi kerak;
 - bitiruvchi talaba "**Mavzular jamg'armasi**"dan ilmiy rahbari bilan maslahatlashgan holda o'z ilmiy tadqiqoti uchun mavzu tanlaydi;
 - bitiruv malakaviy ishi rejasiga va uning yoritilishi, xususan uning ilmiy-amaliy darajasi ta'lim standart (me'yor, andoza)lariga javob berishi shart. Ushbu ilmiy tadqiqotni bajarilishi talaba tomonidan mustaqil tarzda ilmiy izlanish olib borish, tarixiy yo'nalishdagi muammolar bo'yicha hali yechimini kutayotgan masalalarni ko'ra bilishi, tahlil qila olishi, tarixiy tahlil asosida solishtirish olishini hamda ularning yechimida olayotgan ixtisosligi bo'yicha faoliyat ko'rsata olishi haqida ma'lum bir dalolat berishi lozim;
 - bitiruv malakaviy ishining barcha talablarga javob berishi amalda talabanining oladigan ixtisosligi bo'yicha chuqur ilmiy-nazariy tayyorgarlikka ega ekanligini namoyon etishi zarur. Buning uchun talaba bitiruv malakaviy ishida ilmiy tadqiqot olib borish borasida o'z ko'nikmalarini namoyish eta olishi kerak;
 - bitiruv malakaviy ishining mazmuni mavzusidan kelib chiqib, albatta, bitiruvchining salohiyatiga, mavzu bo'yicha adabiyot va manbalarning mavjudligiga ham bog'liq bo'ladi;
 - bitiruv malakaviy ishida mavzu bilan bog'liq nazariy jihatlar, muammolar va ularning yechimi tuzilgan reja va uning yechimidagi ilmiy izlanishlariga asoslanadi;
 - bitiruv malakaviy ishi bo'yicha ilmiy tadqiqot izlanuvchisi davlat attestatsiya hay'atiga (*ilmiy rahbarining yozma xulosasi bilan – mualliflar*) bir nusxa o'z ishini topshiradi. Bitiruv malakaviy ishida bittadan tashqi va ichki taqriz bo'lishi tavsiya etiladi.

Har qanday ilmiy tadqiqot jarayonida, xususan bitiruv malakaviy ishi bo'yicha ham to'rtta omil (*shartli ravishda – mualliflar*) muvaffaqiyat uchun asos bo'ladi:

1. Ilmiy-tadqiqot mavzusining dolzarbligi va yechimi imkoniyati.
2. Tadqiqot mavzusiga oid adabiyot va manbalar, tarixiy materiallarning etarililigi.
3. Talabaning ilmiy tadqiqot olib borishga ko'nikmasi, salohiyati.
4. Ilmiy rahbarining talaba tomonidan olib borilayotgan tadqiqot mavzusini bo'yicha nazariy, uslubiy tushunchalarining kengligi.

Demak, bitiruv malakaviy ishi uchun tanlangan mavzu talaba ilmiy tadqiqot ishining muvaffaqiyatlari yakun topishida muhim ahamiyatga molik omillardan biri hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishiga mavzu tanlash asoslari talaba uchun amalda 1–2-bosqichlardoq boshlangan bo`ladi. Chunki talaba dastlabki bosqichlardanoq tarix yo`nalishidagi u yoki bu fanlardan mustaqil ishlari – referat yozish, kurs ishlarini yozishga jalg qilinadi. Boz ustiga tegishli kafedralar, fakul`tet qoshida faoliyat yuritayotgan ilmiy to`garaklar, talabalar ilmiy jamiyatlarida faol qatnashish, talabalarning fakul`tet, oliy o`quv yurti, respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy anjumanlarida ilmiy axborot va ma`ruzalar bilan ishtiroki bitiruv malakaviy ishi uchun ma`lum darajada ilmiy poydevor bo`lib xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi mavzulari, yuqorida qayd etilganidek, tarixiy yo`nalishdagi tegishli mutaxassis tayyorlovchi kafedralarda talabalar soniga etarli miqdorda 3 yilga etadigan “**Mavzular jamg`armasi**” ishlab chiqiladi. Kafedrada ishlab chiqilayotgan mavzular Vatanimiz va jahon tarixida o`rganilmagan jabhalarni, qadimgi dunyo, o`rta asrlar, yangi va mustaqillik yillarda tariximizdagi dolzarb, qiziqarli, ahamiyatli hamda istiqbolli mavzularni qamrab olishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishi uchun ishlab chiqilgan “**Mavzular jamg`armasi**” dastlab tarix yo`nalishidagi tegishili kafedrada tasdiqlanib, keyin ketma-ketlik asosida fakul`tet hamda oliy o`quv yurti o`quv-uslubiy va ilmiy kengashlarida muhokamalardan o`tkaziladi. Tegishli tavsiyalar asosida oliy o`quv yurti ilmiy kengashida tasdiqlanadi. Mutaxassis tayyorlovchi tarix yo`nalishidagi kafedralar tomonidan uch yillik “**Mavzular jamg`armasi**” 4- kurs talabalariga fanlar bo`yicha o`quv yilining birinchi mashg`ulotlarida e`lon qilinadi va ilmiy ma`lumotlar doskasida “**Mavzular ro`yxati**” aks etadi.

Talabaning o`qishi uchun to`lov-shartnomaga bo`yicha mablag`ini to`lovchi buyurtmachining tegishli asoslari, mutaxassis tayyorlovchi kafedraning roziligi hamda fakul`tet, oliy ta`lim muassasasi ilmiy kengashi qarori asosida bitiruv malakaviy ishi uchun o`zları tanlangan mavzular bo`yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin. Boshqa hollarda talabaga oliy ta`lim muassasasi ilmiy Kengashi tomonidan tasdiqlangan “**Mavzular jamg`armasi**”dan bitiruv malakaviy ishi mavzusini tanlash huquqi beriladi. Talaba tomonidan tarixiy tadqiqot uchun tanlanadigan bitiruv malakaviy ishi mavzusida quyidagilarga e`tibor berish maqsadga muvofiq:

1. Talaba o`zi tanlayotgan mavzu tegishli kafedra ilmiy tadqiqot ishlari rejasidan o`rin olganligini hisobga olishi kerak.
2. Tanlanayotgan mavzu talaba uchun shu paytga qadar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlariga, xususan yozgan kurs ishlarining mantiqiy davomi bo`lishi, qo`yilgan muammo yechimida muhim ahamiyat kasb etishi zarur.
3. Talaba o`zi tanlayotgan mavzuning qiziqarli, hali chuqur o`rganilmaganligiga e`tibor qaratishi lozim.
4. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning o`rganilish darajasi hamda mavzuga doir tarixiy adabiyotlar, manbalar mavjudligini tasavvur qila olishi muhim.

5. Mavzu tarix yo`nalishidagi mustaqil muammoni o`z ichiga olgan bo`lishi kerak.
6. Tanlanayotgan mavzuni yoritishga talaba o`zida nazariy-amaliy bilimlar, uslubiy tayyorgarlikka ega ekanligiga ishonchi komil bo`lishi zarur.
7. Mavzuga oid materiallar, manbalar nafaqat o`zbek tilida, balki xorijiy tillarda bo`lsa ham, manbalar rus tilida va eski o`zbek (arab) alifbosida yozilgan taqdirda ham, undan o`zini unumli foydalana olish imkoniyati borligini hisobga olishi kerak.
8. Har qanday bitiruv malakaviy ishi uchun tanlangan mavzuning o`zida tadqiqotga, tarixiy yangilikka va buni ilmiy mushohadalar orqali asoslashga qaratilgan bo`lishi maqsadga muvofiq.
9. Mavzu nomida aks etgan tarixiy-geografik hudud, xronologik davr ham ilmiy tadqiqot yo`nalishidagi muvaffaqiyat uchun xizmat qiladi.
10. Mavzuning to`g`ri tanlanganligi ma`lum darajada bitiruv malakaviy ishini muvaffaqiyatli chiqishini ta`minlabgina qolmasdan, ilmiy tadqiqot olib borishning keyingi bosqichlari – magistrlik hamda nomzodlik dissertatsiyalari uchun ham zamin yaratadi.
11. Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga o`zgartirish kiritish talabaning ilmiy rahbari bilan kelishilgan holda, asosli arizasiga ko`ra, biriktirilgan kafedra roziliği hamda oliy ta`lim muassasasi rektorining buyrug'i asosida amalga oshirilishi mumkin.
12. Talaba tomonidan tanlangan mavzuga tegishli kafedraning qarori asosida ilmiy rahbar va taqrizchi tayinlanadi. Bitiruv malakaviy ishi mavzusi hamda rahbari oliy ta`lim muassasasi rektori tomonidan tasdiqlanib, buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Tarix fani sohasidagi bitiruv malakaviy ishi talabalarni bakalavriatda mustaqil ilmiy tadqiqot olib borish malakasi va bu yo`nalishdagi ko`nikmasi, yoziladigan ilmiy tadqiqoti mustaqil O`zbekistonda tarix fani muammolarini yechimiga qaratilgan bo`lishi kerak. Shulardan kelib chiqadigan maqsad va vazifalarga quyidagilar kiradi:

- tarix yo`nalishi bo`yicha olgan ilmiy-nazariy bilimlarini ilmiy tadqiqotda umumlashtirish;
- shu paytga qadar tadqiq etilmagan yoki o`z paytida mafkuraviy tazyiqlar ostida bir tomonlama taiqin qilingan, chuqur, xolisona o`rganilmagan mavzularni aniqlay olish va qo`yilgan muammo yechimida mustaqil ishlash ko`nikmalariga ega bo`lish;
- ta`lim jarayonida olgan bilimlari asosida mavzu tanlash va shu asosda kerakli adabiyot va manbalarni to`plash hamda tahlil qilish;
- mavzu va adabiyotlar, manbalar jamg`armasidan kelib chiqib tadqiqot rejasini tuzish hamda bu borada ish olib borish;
- ilmiy tadqiqot orqali tarixdagи “oq dog`lar” va shu kunga qadar o`z yechimini kutayotgan muammoli, bahsli tarixiy mavzularni yoritib berish;
- bitiruv malakaviy ishini oxiriga etkazish bilan Vatanimiz tarixshunosligiga o`z ilmiy tadqiqoti orqali hissa qo`shish;
- ilmiy tadqiqot mavzusini ochib berishda ilmiy yangilikka intilish va shu maqsadda mavjud adabiyotlar, manbalarni chuqur o`rganish;

- bitiruv malakaviy ishi mavzusini to`laqonli yoritish jarayonida adabiyotlar, tarixiy manbalar orqali qo`yilgan muammoning dolzarbligini aniqlash;
- mavzuda ko`tarilgan muammoni hal qilish yo`llarini aniqlash va ular yechimida samarali variantlarni tanlash;
- tanlangan mavzuga yaqin ish olib borgan tadqiqotchilar ishini o`rganib, bu ishlarga tanqidiy munosabatda bo`lib, ilmiy yangilik kiritish;
- mavzusi bo`yicha muammoni hal etish yechimlari va undan kelib chiqadigan ilmiy tavsiyalarni berish;
- tadqiqot natijasida kelib chiqqan xulosani umumlashtirib, takliflar keltirish;
- olingan ilmiy tadqiqot natijalar ilmiy va amaliy ahamiyatini aniqlash. Bitiruv malakaviy ishi materiallari va xulosalaridan qayerlarda foydalanish hamda uni amaliy hayotga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishi tayyorlashda ilmiy rahbar va talabaning vazifasi.

Bitiruv malakaviy ishning muvaffaqiyatlari yakunida, yuqorida qayd etilganidek, ilmiy tadqiqot rahbarining ham roli katta hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishiga rahbarlar avvalo tegishli kafedraning ilmiy darajali professor-o`qituvchilar, tajribali katta o`qituvchilar, boshqa oliv ta`lim muassasasining tarix yo`nalishi mutaxassislari hamda O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlari (*Tarix instituti, Sharqshunoslik instituti, Arxeologiya instituti – mualliflar*) etakchi olimlari hamda ilmiy xodimlaridan tayinlanadi. Bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo`yicha talabaning rahbarlikka tayinlangan ilmiy rahbari vazifasiga quyidagilar kiradi:

1. Tadqiqot mavzusini bajarish bo`yicha kengaytirilgan ish rejasini tuzish va tadqiqot rejasini bosqichma-bosqich amalga oshirishi bo`yicha kalendor' reja tuzishda talabaga yordam beradi.
2. Talabaga mavzuni yoritish bo`yicha adabiyotlar, tarixiy manbalarni to`plash bo`yicha maslahatlar beradi.
3. Mavzuni yoritishda tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosidagi kutubxonalar, axborot-resurs markazlari, muzeylar, tegishli arxivlardagi adabiyot va manbalar bilan tanishish uchun ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartibini tushuntiradi.
4. Mavzuga oid yig`ilgan adabiyotlar, manbalarni umumlashtirish va reja asosida klassifikatsiya qilish usullari bo`yicha tushuncha beradi.
5. O`zi rahbarlik qilayotgan talaba bilan belgilangan kun va soatlarda tegishli reja bajarilishi yuzasidan muntazam ravishda uchrashib turadi va maslahatlar berib boradi.
6. Bitiruv malakaviy ishi bajarilish jarayonini nazorat qilib boradi va tegishli holatlarda kafedra yig`ilishlarida talaba tomonidan ilmiy tadqiqotni bajarilishi holati xususida axborot berib boradi.
7. Bitiruv malakaviy ishining bajarilishi qismlari va uning mutanosib uzviy bog`liqligi hamda yaxlitligi bo`yicha, sifatiga baho beradi.
8. Bitiruv malakaviy ishi talaba tomonidan mustaqil bajarilishiga javob beradi.
9. Bitiruv malakaviy ishi bajarilishi bo`yicha ilmiy va uslubiy yordam beradi, zarur hollarda o`zgartirishlar kiritadi.
10. Tadqiqotning tayyorlanganlik darajasi va uni himoyaga tavsiya qilish (yoki qilmaslik) bo`yicha yozma xulosa beradi.

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha ilmiy rahbar talabaga o'z ilmiy tadqiqotini vaqtida, sifatli yakunlashga qaratilgan topshiriqlar beradi. Ushbu topshiriqda bitiruv malakaviy ishi mavzusi, mavzuning tasdiqlangan sanasi, mavzuga oid adabiyot va manbalarni yig'ish muddati, ish rejasini tuzish, yig'ilgan adabiyotlar, manbalarni o'rganish hamda rejadagi tegishli qismlarga oid klassifikatsiya qismi, ishni bajarilish rejasini keltirishga oid vazifalar aks etgan bo'lib, uni bitiruv malakaviy ishi rahbari va bitiruvchi talaba imzolaydi. Ushbu topshiriq 3 nusxada to'ldirilib, kafedra mudiri tasdig'idan keyin ilmiy rahbar, talaba va kafedrada saqlanadi (2- ilovaga qarang).

Ilmiy rahbar bitiruv malakaviy ishi mavzusidan kelib chiqib, talaba tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishining ayrim bo'limlari bo'yicha konsul'tant-maslahatchilar zarurligi to'g'risida kafedra mudiriga murojaat qilishi mumkin. O'z navbatida bu masalaga tegishli kafedra qarori asosida va olyi ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ishiga konsul'tant-maslahatchi tayinlanishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda talabaning vazifasi. Bitiruv malakaviy ishini yozishga kirishgan talaba oldida olgan nazariy-uslubiy bilimlarini umumlashtirgan holda, tarix yo'nalishidagi muammoli va ayni paytda ilmiy izlanishlar orqali o'z yechimini topish mumkin bo'lgan ilmiy tadqiqot mavzusini yoritishga qaratilgan quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

1. Muammoli, hali har tomonlama o'rganiilmagan, dolzarb, tarixiy muammoni o'z ichiga olgan bitiruv malakaviy ishi mavzusini tanlash.
2. Ilmiy rahbari bilan maslahatlashgan holda tanlagan mavzusiga yaqin ilmiy tadqiqotlar, tarixiy adabiyotlarni o'rganish.
3. Mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni chuqur o'rganish hamda qiyosiy tahsil qilish.
4. Ilmiy rahbari bilan maslahatlashgan holda bitiruv malakaviy ishining kengaytirilgan ish rejasini tuzish.
5. Ilmiy rahbar tomonidan berilgan yozma topshiriqni bosqichma-bosqich, o'z vaqtida bajarib borish.
6. Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida muntazam ilmiy rahbar bilan maslahatlashib turish.
7. Ilmiy adabiyotlar, manbalar orqali mavzuning o'rganish darajasini aniqlash.
8. Mavzuga oid nazariy bilimlarini yanada chuqurlashtirish va shu asosda bitiruv malakaviy ishi yozish ko'nikmasini hosil qilish.
9. Tadqiqot bo'yicha yozma ishni rasmiylashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish.
10. Bitiruv malakaviy ishi talaba tomonidan qo'lyozma shaklida yoki fakul'tet ilmiy kengashining qaroriga asosan kompyuterda yozilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi yozishda material, manbalar yig'ish va uni qayta ishslash. Talaba tomonidan tanlangan bitiruv malakaviy ishi mavzusi va unga ilmiy rahbar biriktirilishi to'g'risida rektor buyrug'i chiqqandan keyin bevosita ilmiy tadqiqot ustida ishslash, ya'ni material, manbalar to'plash jarayoni boshlanadi. Bitiruv malakaviy ishini muvaffaqiyatli yakunlashda talabaning yillar

davomida olgan nazariy-uslubiy bilimlari, mustaqil ilmiy tadqiqot olib borish ko'nikmasi katta ahamiyatga ega.

Bitiruv malakaviy ishini yozishga kirishish uchun eng asosiy vazifalardan biri mavzuga oid umumiy va maxsus adabiyotlarni, ilmiy tadqiqot ishlari, arxiv va qo'lyozma manbalarni etarli darajada yig'ish va ularni qayta ishlab chiqish kerak. Talaba tadqiqot uchun yig'ilgan adabiyotlar va manbalarni o'rghanish asosida o'zi tomonidan bajariladigan bitiruv malakaviy ishi mavzusini yoritish bo'yicha ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladi. Yig'ilgan materiallarning qiyosiy tahlili natijasi bu ilmiy tasavvurga ma'lum bir anqlik kiritish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bitiruv malakaviy ishiga oid materiallarning talaba tomonidan yaxshi o'zlashtirilishi, qayta ishlanishi, oxir-oqibatda ilmiy tadqiqotni muvaffaqiyatliz yozishga zamin yaratadi.

Dastlabki vazifalardan biri, ilmiy rahbari bilan maslahatlashgan holda, tanlagan mavzusiga yaqin ilmiy tadqiqotlar, tarixiy adabiyotlar mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash hisoblanadi. Buning uchun oliy ta'lim muassasasidagi axborot-resurs markazi (ARM) va boshqa kutubxonalardagi ilmiy tadqiqot ishlari va adabiyotlar bilan tanishish, kerakli joylardan, xususan mavzuni yoritish, ko'tarilayotgan muammo yechimida muhim deb hisoblangan tarixiy sanalar, voqealarga oid materiallardan sitatalarni yig'ish, rejada ko'tariladigan masalalarni, muammolarni tasdiqlovchi va ayni paytda inkor qiluvchi, munozarali fikr-mulohazalarni yig'ish hamda ularni davriylik, tarixiylik nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil asosida baholash zarur. Mavzuga oid adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlardan olingan ko'chirmaalar turli xilda bo'lib, ularni klassifikatsiya qilish kerak. Xususan, umumiy adabiyotlar, maxsus adabiyotlar, hujjatlar to'plami, tarixiy ilmiy tadqiqotlar, tarixiy xotiralardan keltiriladigan materiallar, o'z xususiyatiga ko'ra turli darajada baholanadi. Adabiyotlardan olinadigan materiallarni qayta ishlash jarayonida mavzuning kirish va asosiy qismlari bo'yicha ajratish, guruhlarga bo'lib chiqish muhim ahamiyatga ega. Materiallarni guruhlarga bo'lish qanday printsiplar asosida olib boriladi? Adabiyotlardan olingan ko'chirmaalar, nazariy masalalar tarixiy xronologik ketma-ketligi, muammoning mavzuga oidligi, mualliflar qatori, yo'nalishlar, mintaqaviy joylashuvi, tarixiy-geografik hududi, davlatlar xususiyatiga ko'ra ajratiladi.

Bitiruv malakaviy ishi arxeologiya, etnografiya, manbushunoslikka oid bo'lsa, tegishli tarzda moddiy manbalar, ashyoviy daflilar, da'a yozuvlari, birlamchi manbalar asosida yoziladi. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishi materiallarikeyingi vaqtarda chop etilgan mavzuga oid eng yangi ilmiy maqolalarni ko'rib chiqish, ko'rileyotgan muammoga hozirgi davrda qanday munosabatda bo'linayotganligi, ilmiy muomalaga qanday manbalar kiritilganini aniqlab borish ham kiradi. Yig'ilgan va qayta ishlangan materiallar asosida talaba o'zi o'rghanayotgan mavzuga yaqindan yondashishga muvaffaq bo'ladi va o'z ilmiy tadqiqoti mavzusiga yaqin muammolarga tadqiqotchilarning qarama-qarshi yoki tasdiqlovchi, bir-birini to'ldirishga asoslangan ilmiy munosabatlarini tanqidiy tahlil qilishga erishadi.

Bitiruv malakaviy ishini yozishda arxiv, qo'lyozma manbalari, davriy matbuot materiallari muhim ahamiyatga ega. Ilmiy-tadqiqot salmog'i oshishida arxiv, qo'lyozma manbalari, davriy matbuot materiallardan unumli foydalanish,

xususan chop etilgan materiallar bilan manbalarni solishtirish asosida tadqiqot olib borish katta ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo'yicha arxiv manbalari, qo'lyozma va davriy matbuot materiallari talaba tadqiqotini yozishga qadar dunyo yuzini ko'rgan bo'lsa, ya'ni tarixiy ilmiy tadqiqotlar kitoblarda foydalanilgan bo'lsa, unda tadqiqotchi - talaba mavjud manbalarni ilk bor ilmiy muomalaga kiritgan hisoblanmaydi. Ammo ayni paytda mavzuni yoritishda adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan manbalarga talaba tomonidan asosli aniqlik kiritilsa, bu ilmiy ishning muvaffaqiyatlari qatorida baholanishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tushuntirish qismi kamida 10-15 ming so'z hajmida belgilanadi. Foydalangan manba va adabiyotlar ro'yxati, ilovalar tadqiqotda sahifalansada, talab qilinadigan 60-70 sahifa oralig'iga kiritilmaydi. Talaba tomonidan tayyorlangan bitiruv malakaviy ishi qattiq muqova bilan Davlat attestatsiya komissiyasiga topshiriladi.

Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish. Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ishi (komp'yuterda bajarilgan holda uning elektron varianti bilan birga) talaba tomonidan ilmiy rahbarga taqdim etiladi. Rahbar, bitiruv malakaviy ishi talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z xulosasi bilan kafedra mudiriga taqdim etadi. Xulosada talabaning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va bitiruv malakaviy ishining boshqa ijobji tomonlari tavsiflanadi. Kafedra mudiri, taqdim etilgan materiallar asosida, bitiruv maiakaviy ishini talaba tomonidan Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasida himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi.

Agar kafedra mudiri talabaning bitiruv malakaviy ishini himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhokama etiladi. Kafedra majlisining bayonnomasi fakul'tet dekani tomonidan tasdiq uchun oliy ta'lim muassasasi rektoriga taqdim etiladi.

Himoyaga kiritilgan bitiruv malakaviy ishi taqrizga yuboriladi.

Taqrizchilar tarkibi bitiruvchilarga ish beruvchi soha mutaxassislari safidan tanlanadi. Taqrizchilar sifatida boshqa boshqa oliy ta'lim muassasasining professor va o'qituvchilari ham jalb etilishi mumkin.

Fakul'tet dekani bitiruv malakaviy ishini taqriz bilan himoya uchun Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etadi.

Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishlari himoyasi zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida taqdimot (prezentatsiya) shaklida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzusi, mazmun-mohiyati va xususiyatlariga muvofiq ularning himoyasini tashkil etish va o'tkazishning boshqa shakllari oliy ta'lim muassasasi ilmiy kengashi tomonidan o'matilishi mumkin.

Arxiv, axborot-resurs markazi va kafedralarda saqlanayotgan yoki internet resurslaridan foydalanib; aynan ko'chirib olingani rasmiy himoyagacha aniqlanib, tasdig'ini topgan bitiruv malakaviy ishlari kafedra mudiri taqdimnomasiga binoan rektor buyrug'i bilan bekor qilinadi va bitiruvchiga

qoniqarsiz baho qo'yilib, ish rahbari keyingi uch yil davomida bitiruv malakaviy ishlariiga rahbar etib tayinlanmaydi.

Oliy ta'lim muassasasida axborot texnologiyalari vositasida taqdimot shaklida bitiruv maiakaviy ishlari himoyasini tashkil etish uchun yetarli darajada maxsus jihozlangan auditoriyalar belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishi himoyasidan so'ng (kamida 10 yil) oliy ta'lim muassasasida saqlanadi. Har xil sabablar bo'yicha bitiruv malakaviy ishini boshqa tashkilot yoki xodimlarga topshirish zaruriyati mavjud bo'lgan holda (tatbiq etish, tanlovlар va hokazo), ishdan nusha olinadi va mazkur nusha beriladi, ishning asl nusxasi oliy ta'lim muassasasida qoldiriladi.

Tayanch so'zlar

"Mavzular jamg'armasi", "Mavzular ro'yxati", mavzu tanlash, mavzu va ish reja, klassifikatsiya, muvaffaqiyat omillari, qiyosiy tahlil, ilmiy rahbar maslahati, ilmiy ko'nikma, bitiruv malakaviy ishi, ilmiy xulosa, taqriz, himoya, taqdimot (prezentatsiya).

Nazorat savollari

1. Bitiruv malakaviy ishini yozishga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
2. "Mavzular jamg'armasi" deganda nimani tushunasiz?
3. Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Bitiruv maiakaviy ishini tayyorlashda ilmiy rahbar va talabaning vazifalari haqida so'zlab bering.
5. Bitiruv malakaviy ishi uchun material yig'ish va qayta ishlash jarayoni haqida nimalarni bilasiz?
6. Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish tartiblarini aytib bering.

6- MAVZU: MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISH

REJA

1. Magistrlik dissertatsiyasiga qo`yiladigan asosiy talablar.
2. Magistrlik dissertatsiyasi tuzilishi va mazmuni.
3. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va rasmiylashtirish tartibi.

Magistrlik dissertatsiyasiga qo`yiladigan asosiy talablar. Magistrlik dasturi Davlat malaka attestatsiya hay`ati magistrlik dissertatsiyasi himoyasidan so`ng "Magistr" darajasini taqdim etishi bilan yakunlanadi.

Magistrlik dissertatsiya ishi (*bundan keyin matnda dissertatsiya shaklida beriladi – mualliflar*)ni tayyorlash va rasmiylashtirishning namunaviy tartibi O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2008- yil 30-maydagi 159- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. Dissertatsiya ilmiy rahbar boshchiligidagi bajariladigan mustaqil tahliliy tadqiqot hisoblanadi. Uning tayyorlanishi, yozilishi va ochiq himoyaga qo`yilishi tarix yo`nalishidagi magistrantlarda mustaqil tadqiqot o`tkazish ko`nikmalari hosil bo`lganligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning vazifalari biror bir tarixiy muammo yuzasidan tadqiqot o`tkazish zarurligini asoslash, metodologiya va usullarini tanlash, manbalar yig`ish va uni qayta ishslash, o`tkazilgan tahliliy tadqiqot natijalarini izchil asoslab bayon etish va xulosa chiqarishdan iborat.

Dissertatsiya mavzusi dolzarb hamda qoidaga asosan, magistrant tanlagan ixtisoslik bo`yicha aniq ilmiy yoki ilmiy-amaliy masalalarni hal qilishga qaratilgan va mumkin qadar qisqa bo`lishi kerak.

Dissertatsiyalar mavzulari tegishli tarzda kafedra majlisi, fakul`tet va universitet ilmiy Kengashlari tomonidan tasdiqlangan fundamental, ilmiy va amaliy tadqiqotlar dasturiga muvofiqlashtiriladi. Shuningdek, dissertatsiya mavzulari va ilmiy rahbarlar kafedra taqdimnomasiga muvofiq birinchi o`quv yilining ikkinchi semestri boshlangunicha rektor buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Ayni paytda tasdiqlangan dissertatsiya mavzulari talabalarga birinchi o`quv yilining ikkinchi semestri boshlangandan keyin ikki hafta davomida taqdim etiladi (*bu to`g`rida keyinroq batafsil to`xtalib o`tilgan - mualliflar*).

Dissertatsiya bilan bog`liq xulosa va tavsiyalar to`liq asoslangan holda taqdim etiladi. Bunda erishilgan natijalar muallifda o`zi tanlagan kasbiy faoliyati sohasida ilmiy ish bilan shug`ullana olish ko`nikmalari mavjudligi haqida guvohlik bera olishi kerak.

Dissertatsiyaning ilmiy va ilmiy-amaliy darajasi ta`lim dasturiga javob berishi shart. Ushbu ishning bajarilishi tadqiqotchining mustaqil ravishda ilmiy (amaliy) izlanish olib borishga, kasbiy muammolarni ko`ra olishga o`rganganligini hamda ularni hal qilishning umumiy usullarini bilishi haqida dalolat berishi lozim.

Dissertatsiya magistrantning ilmiy jihatdan yetukligi, ixtisoslik bo`yicha chuqur kasbiy tayyorgarlikka egaligini namoyon etishi zarur. Shu bois magistrlik

dissertatsiyasining muallifi o‘z ishida ilmiy malakaviy darajasini va avvalo, mustaqil holda ilmiy tadqiqot yuritish hamda muayyan ilmiy yoki amaliy vazifalarni hal qila olish ko`nikmalarini namoyish eta olishi kerak.

Dissertatsiyaning mazmuni ijodiy o‘ziga xosligi, muallifning bilim, tajribalari va qarashlari bilan farqlanadi. Dissertatsiyada masalaning nazariy jihatlari, muammolari, ilmiy va amaliy vazifalarni tahlil qilish va hal etishni jamlagan holda mantiqiy o‘ylab tuzilgan reja asosida yoziladi.

Magistrlik darajasi izlanuvchisi Davlat attestatsiya hay’atiga faqatgina dissertatsiyasi (*ilmiy rahbarning xulosasi bilan – mualliflar*), tashqi taqriz va magistrlik kasbiy dasturi bo‘yicha o‘z shaxsiy rejasining bajarilishi xaqidagi ma`lumotnomani taqdim etish bilan cheklanadi. Magistrlik dissertatsiyasi himoyasida, odatda, 1 nafardan rasmiy opponent va tashqi taqrizdan foydalaniladi.

Dissertatsiyaning maqsadi mavzu bo‘yicha magistr tomonidan to`plangan barcha ilmiy va amaliy ma`lumotlami mustahkamlash va tartibga solishdan iborat. Bunda magistr dissertatsiyadagi u yoki bu holatlarning ilmiy yoki amaliy ahamiyati va qiymatini asoslab beradi.

Mavzudan kelib chiqib, malakali tarzda aniqlangan magistrlik dissertatsiyasining maqsadi tadqiqot rejasini to`g`ri tuzish va dissertatsiyada hal qilinadigan vazifalarni aniq rasmiylashtirish imkonini beradi. Tadqiqot vazifalarini aniq ajratib olish maqsadida ularni echish usullarini bilish magistrantning mavzu bo‘yicha tarixiy materiallarni to`plash, uni qayta ishlash, so`ngra ular asosida xulosa va tavsiyalar berishga yo`naltiradi.

Izlanuvchi faqat shu yo‘l bilangina oldiga qo`yilgan maqsadga muvaffaqiyat bilan erishishi mumkin. Dissertatsiya mavzusi, mazmuni, boblari, paragraflari o`tasida o`zaro mutanosiblikka, muvofiqlikka erishish, zarur hollarda jadvallardan foydalanish, tadqiqotda ilgari surilgan g`oya va kontseptsiyalar, tavsiya va takliflarni asoslash mumkin.

Mutaxassis tayyorlovchi kafedrada har uch yilda magistrlik dissertatsiyalari mavzulari ishlab chiqiladi, fakul’tet ilmiy-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlash uchun universitet ilmiy Kengashiga taqdim etiladi. Ilmiy Kengashda tasdiqlangan magistrlik dissertatsiyalarining mavzulari magistrantga tanlash uchun tavsiya qilinadi.

Magistrlik dissertatsiyasi muvaffaqiyati uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- qiziqarli, hali chuqur o`rganilmagan, O‘zbekiston va jahon tarixining ajralmas qismi bo‘lgan muammoli mavzuni tanlash;
- tanlangan mavzu yoki shu mavzuga yaqin ilmiy ishlar olib borgan, o‘zining ilmiy tajribasini o`rgatishga tayyor rahbar tanlash;
- mavzu bo‘yicha rahbar bilan kelishilgan holda kengaytirilgan ish rejasiga ega bo‘lish;
- mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni chuqur o`rganish, qiyosiy tahlil etish;
- tadqiqot mavzusini yoritish uchun tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosidagi kutubxonalar, muzeylar, tegishli arxiviardagi manbalarga murojaat qilish;

tadqiqot bilan bog`liq muammo va yechimlar borasida ilmiy maqolarlar yozib, viloyat, respublika gazeta-jurnallari hamda olyi ta`lim muassasasi (OTM) to`plamlarida chop etish;

tadqiqot yuzasidan OTM, viloyat, respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarida faol ishtirok etish.

Dissertatsiya mavzusi tavsiya etilgan mavzular ro`yxatidan, ilmiy rahbar bilan kelishgan holda, magistrant tomonidan tanlab olinadi.

Magistrantlarga ilmiy rahbarni biriktirish uchun avval ularning har biri bilan oldindan suhbatlashib olinadi va mavzular hamda ilmiy rahbarlarni tasdiqlash bo`yicha buyruq loyihasi tayyorlanadi.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzulari va ilmiy rahbarlariga buyruq chiqarilgach, mavzular nomini o`zgartirish yoki ilmiy rahbarlarni almashtirish, istisno tariqasida, asoslangan holda amalga oshiriladi.

Mavzu tanlab olingach, magistrant ilmiy rahbarining bevosita ishtirokida, tadqiqot ishining yillik kengaytirilgan rejasini ishlab chiqadi.

Dissertantning ilmiy rahbar bilan maslahatlashuvi belgilangan kun va soatlarda, tegishli reja asosida, muntazam ravishda o`tkazib boriladi.

Ilmiy rahbar magistrantga quyidagi masalalarni bajarishga yordam beradi:

– mavzu bo`yicha zarur adabiyotlar, ma`lumotnomalar va boshqa tarixiy manbalardan foydalanishga doir tavsiyalar berishda;

– dissertatsiya mavzusi bo`yicha muntazam suhbatlar va maslahatlar o`tkazishda;

– dissertatsiya mavzusiga oid ilmiy maqolalarni ko`rib, tegishli maslahatlar berishda;

– bajarilgan ish mazmuni qismlari bo`yicha hamda yaxlitligini baholashda;

– dissertatsiyani himoyaga taqdim etishga rozilik berishda.

Ilmiy rahbar magistrantga ma`lum darajada ilmiy va uslubiy yordam beradi, ishning bajarilishini muntazam nazorat qiladi va o`zgartirishlar kiritadi, ishning tayyorlanganlik darajasi to`g`risida xulosa beradi.

Dissertatsiyaning bajarilish darajasini umumiylaz qilib borish va ilmiy-uslubiy yordam berish kafedra mudiri tomonidan amalga oshiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasi tuzilishi va mazmuni. Magistrlik dissertatsiyasi malakaviy ish bo`lib, nazariy ahamiyati, mavzuning dolzarbligi va olingen natijalarining amaliy ahamiyatga molikligi bilangina emas, balki umumiylaz tayyorgarlik darajasi va rasmiylashtirilishiga ko`ra ham baholanadi.

Dissertatsiyaning tuzilishi, mazmuni, ilmiy ahamiyati kafedra professor-o`qituvchilari tomonidan muhokama qilinadi, uning mazmuni bo`yicha ayrim tuzatishlar kiritilishi va kamchiliklari ko`rsatilishi mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasining tarkibiy tuzilishida quyidagilar alohida-alohida qismlar sifatida rasmiylashtiriladi:

– dissertatsiyaning titul varagi (3- ilovaga qarang);

– dissertatsiya mazmunining mundarijasi (4 -ilovaga qarang);

– kirish;

– dissertatsiyaning asosiy qismi (2- 3 bob tavsiya etiladi);

– xulosa;

– foydalilanigan manba va adabiyotlar ro`yxati;

– ilovalar (*agar zarurat bo'lsa*).

Umuman magistrlik dissertatsiyasi yakuniy ichki yaxlitlikka ega bo'lgan va tanlangan mavzuni to'la yoritish hamda natijalarini ifoda etuvchi maiakaviy bitiruv ishi ko`rinishida bo`ladi.

Dissertant magistrlik dissertatsiyasida olingen axborotni matn shaklida berish orqali uning ilmiy va amaliy ahamiyatini asoslaydi.

Magistrant mavzuga doir tarixiy manbalar, adabiyotlar va nazariy muammolarni yorituvchi adabiyotlarni o'rganib, ularni tahlil qilib dissertatsiyaning tegishli boblariga asos sifatida kiritadi. Titul varag'i dissertatsiyaning birinchi beti hisoblanadi va qat'iy qoidalar asosida to'ldiriladi. Titul varag'idan keyin dissertatsiyaning mundarijasi joylashtiriladi. Mundarijada boblar, paragraflar va magistrlik dissertatsiyasining barcha boshqa qismlari, asosiy matndagi sarlavhalar va bet raqamlaridan boshqacha shaklida yoki izchillikda va shuningdek, qisqartirib berilishi mumkin emas. Mundarijadagi sarlavhalar asosiy matndagi sarlavhalar bilan bir xilda bo'lishi shart. Boblar va paragraflar nomi, shuningdek ularning izchilligi dissertatsiya matni bilan to'liq mos kelishi shart.

Magistrlik dissertatsiyasining kirish qismida quydagilar beriladi:

- tadqiqot mavzusining dolzarbliji;
- mavzuning o'rganilish darajasi;
- magistrlik dissertatsiyasining maqsad va vazifalari;
- tadqiqotning hududiy chegarasi;
- tadqiqotning davriy chegarasi;
- tadqiqot ob`ekti;
- tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari;
- tadqiqot manbalari;
- tadqiqotning ilmiy yangiligi;
- tadqiqot aprobatysi;
- tadqiqot natijalarining e`lon qilinganligi;
- tadqiqotning amaliy ahamiyati;
- tadqiqotning tarkibiy tuzilishi.

Dissertatsiyaning asosiy mazmuni tegishli tarzda boblarda umumiy-nazariy masalalar o`zaro mantiqiylar bog'liqligida beriladi.

Magistrlik dissertatsiyasi zarur hollarda arxiv manbalari, respublikamiz va xorijda chop etilgan adabiyotlar tahlili asosida yozilishi kerak. Yig'ilgan hamda tahlil qilingan materiallar magistrantga hal qilinadigan masalalar, muammolarni aniqlash va shunga muvofik xulosa chiqarish imkonini beradi. Shunday qilib, rejaga muvofiq tuzilgan boblar magistrlik dissertatsiyasi mazmunining asosiy g'oyasini ifodalaydi.

Xulosa qismi magistrlik dissertatsiyasi umumiy hajmining 10- 15 % ni tashkil qiladi. Tadqiqot natijasida olingen xulosalar va takliflarning eng muhimlari ishning oxirida, ya`ni xulosa qismida aks etadi.

Magistrlik dissertatsiyasi mazmuniga ko`ra quydagi masalalarni qamrab olishi kerak:

- tanlangan mavzuning ilmiy-nazariy ahamiyati, dolzarbliji;
- muammoning maxsus adabiyotlarda o'rganilganlik darajasi;

- tadqiqot ob`ektlaridagi mavjud holatni baholash va muammolarni hal qilishning asosiy yo`nalishlari bo`yicha xulosa chiqarish;
- tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo`yicha aniq takliflar berish.

Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va rasmiylashtirish tartibi.

Magistrik dissertatsiyasini tayyorlash namunaviy tartibi O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2007- yil 29- dekabrdagi 269- sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan "Magistratura to`g`risidagi Nizom"ga asoslangan holda ishlab chiqilgan bo`lib, uning bandlarini to`ldiruvchi va izohlovchi hujjat hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiyasi magistraturada ta`lim olayotgan talabaning yakunlovchi ishi hisoblanadi.

Dissertatsiya magistrantning o`qish davrida egallagan nazariy va amaliy bilimlari asosida bajargan ilmiy tadqiqot ishlarining natijasidir.

Ilmiy ish mavzusi Vatanimiz va jahon tarixidagi dolzarb masalaga bag`ishlanib, muayyan bir muammoning ilmiy asoslangan yechimini topishga, tavsiyalar ishlab chiqishga, tarixiy adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar, chop etilgan hujjatlar, birlamchi arxiv manbalari va statistik ma`lumotlar tahviliga qaratilgan bo`lishi shart.

Tadqiqotning mazmuni mutaxassislikning o`ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib, albatta, natijaviy yechimga ega bo`lishi talab etiladi.

Dissertatsiya mavzulari magistrantlarga tanlash uchun birinchi o`quv yilining ikkinchi semestri (ikkinchi yarmi) boshlangandan keyin ikki hafta davomida taqdim etiladi. To`lov-kontrakt bo`yicha ta`lim olayotgan magistrantlarning dissertatsiya mavzulari buyurtmachi tomonidan ham taklif etilishi mumkin. Magistrant ilmiy rahbari bilan kelishgan holda tanlagan mavzusi bo`yicha «Asosnoma»ni kafedra majlisi muhokamasiga qo`yadi. Shundan so`ng mavzu magistrant va uning ilmiy rahbari ishtirokida muhokamadan o`tkaziladi va tegishli qaror qabul qilinadi.

Kafedra taqdimnomasiga muvofiq magistrantlarning dissertatsiya mavzulari va tegishli tarzda fakul`tet ilmiy kengashi, magistratura bo`limi, universitet ilmiy kengashi qarori bilan tasdiqlanadi. Ilmiy rahbar kafedra mudiri tavsiyasiga binoan oliy ta`lim muassasasi rektori buyrug`i bilan tasdiqlanadi.

Magistratura bo`limi boshlig`i taqdimnomasi asosida magistrantlarning dissertatsiya mavzulari va ilmiy rahbarlari oliy o`quv yurti rektorining buyrug`i bilan tasdiqlanadi. Shundan keyin ikki hafta muddatda dissertatsiya ishining o`rnatalgan tartibdagi kengaytirilgan "Shaxsiy ish rejasi" ilmiy rahbari bilan kelishilgan holda ishlab chiqiladi va o`quv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlanadi.

Dissertatsiya magistrant o`qigan tilda, kafedra tavsiyasiga muvofiq xorijiy til (rus, ingliz v.b.)larda ham yozilishi mumkin. Xorijiy tilda bajarilgan ishga davlat tilida annotatsiya (mulohaza, qayd, eslatma) ilova etiladi hamda himoyasi tarjima bilan o`tkaziladi.

Dissertatsiya hajmi 60- 80 varaqdan (foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati va ilovalarsiz – mualliflar) iborat bo`lib, A4 (210x297) format qog`ozga komp`yuterda (1,5 intervalda, 14 o`lchamli shriftga mos) bir tomonga terilgan holatda tayyorlanadi (5- ilovaga qarang).

Dissertatsiyaning qo'yilgan talablarga amal qilinib, berilgan topshiriqqa muvofiq to'la hajmda bajarilishiga magistrant shaxsan javobgardir.

Zarur hollarda, ilmiy rahbar tavsiyasi bilan dissertatsiya ishining alohida qismlariga, tadqiqot uchun rahbarlikka ajratilgan vaqt byudjeti hisobidan maslahatchilar ham taklif etilishi mumkin. Bunday hollarda, kafedra mudiri tavsiyasi asosida rektor buyrug'i chiqishi kerak.

Tayyor bo'lgan dissertatsiya ishi ilmiy rahbarning imzosi qo'yilgan xulosasi bilan kafedra mudiriga taqdim etiladi. Kafedrada muhokamadan o'tgan va ma'qullangan dissertatsiya ishiga kafedra qarori bilan bir nafer opponent tayinlanadi. Opponent sifatida soha mutaxassislar, ilmiy muassasalar xodimlari, OTMning professor-o'qituvchilari tayinlanishi mumkin. Opponent, mumkin qadar, ilmiy darajali bo'lishi shart.

Magistratura bo'limi boshlig'i dissertatsiya ishini ilmiy rahbar xulosasi va opponent taqrizlari bilan Davlat attestatsiya komissiyasiga yo'llaydi.

Dissertatsiya himoyadan so ng 10 kun davomida magistratura bo'limiga topshiriladi va 10 yilgacha saqlanadi.

"Magistr" darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi (magistrlik dissertatsiyasining himoyasi) magistrlik dasturining yakunidir. Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish xuquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy saviyasi o'qish dasturiga javob berishi lozim. Ushbu ishning bajarilishi uning muallifi ilmiy izlanishlar olib borish, tegishli ilmiy muammolarni ko'ra olish va ularning yechimi bo'yicha umumiyl usullar hamda yo'llarini o'rganganligini tasdiqlashi kerak.

Umuman olganda, magistrlik dissertatsiyasi ilmiy etuklik va ixtisoslik yoki ixtisoslashish bo'yicha tubdan kasbiy tayyorgarlikdan dalolat berishi lozim.

Magistrlik dissertatsiyasining bajarilishi shu ta'lim muassasasida ishlaydigan, odatda, shu ixtisoslik bo'yicha fan doktori ilmiy darajasiga yoki ixtisoslik kafedrasida professor ilmiy unvoniga ega pedagog rahbarligida amalga oshiriladi. Maslahatchi sifatida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlari, xususan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti va Arxeologiya institutining yuqori malakali mutaxassislari ham taklif qilinishi mumkin.

Istisno tariqasida magistrning ilmiy rahbari etib, oliv o'quv yurti Ilmiy kengashi ruxsati bilangina fan nomzodi, dotsent tayinlanishi mumkin.

Ilmiy rahbar bir yilda 5 nafargacha magistrantga rahbarlik qilish huquqiga ega.

Magistrantga o'qishning dastlabki oyi mobaynida ilmiy rahbar tayinlanadi va uning shaxsiy rejasи tuziladi. Magistrant tegishli kafedra mavzulari jamg'armasidan chiqmagan holda, o'z ilmiy rahbari roziligi ostida dissertatsiya mavzusini tanlaydi. Shundan so'ng uning «Asosnomasi»sini tayyorlab, tegishli tarzda kafedra majlisи, fakul'tet, oliv o'quv yurti Ilmiy Kengashlari majlisи muhokamasiga qo'yadi.

Magistrant dissertatsiya mavzusi bo'yicha, ilmiy rahbar tavsiyasiga binoan viloyat, respublika miqyosidagi kutubxona, muzey va arxivlarda tadqiqot ishlarini

olib boradi. Magistrant tomonidan tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy jurnal va to'plamlarda kamida 2 ta maqola chop ettirilishi shart.

Magistrlik dissertatsiyasi ilmiy tadqiqot ishini rasmiylashtirish O'zbekiston davlat standartlariga mos ravishda bajariladi.

Belgilangan muddatda bajarilgan magistrlik dissertatsiyasi ilmiy rahbar xulosasi, shu ixtisoslik bo'yicha mutaxassisning tashqi taqrizi va shaxsiy rejaning bajarilganligi haqida ma'lumotnoma bilan davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi.

Magistrlik dissertatsiyasi himoyasi jamoa huzurida amalga oshiriladi. Himoyani tashkil qilish va o'tkazish tartibini oliv o'quv yurti ilmiy Kengashi belgilaydi.

Magistrlik dissertatsiyasining asl nusxasi himoyadan keyin 10 kun davomida magistratura bo'limga topshiriladi va oliv o'quv yurtida o'rnatilgan tartibda 10 yilgacha saqlanadi. Magistrlik dissertatsiyasi natijalarini tatbiq qilish, uni konkursga taqdim etish va boshqa zaruriyatlar tug'ilsa, undan nusxa olinadi.

Dissertatsiyani rasmiylashtirish uning mazmunini yoritish bilan bir qatorda turadigan eng muhim jarayondlr. Magistrlik dissertatsiyasi belgilangan talablarga mos ravishda muqovalangan bo'lishi lozim.

Dissertatsiyaning qo'lyozma nusxasini tugatgach, magistrant ilmiy rahbarning ruxsati bilan uni komp'yuterda yozadi.

Agar matnda xorijiy adabiyotlardan va arxiv manbalaridan foydalanilsa iqtibos asl holida beriladi (9- mavzu va 6- ilovaga qarang).

Dissertatsiyaning kirish, har bir bob, xulosa va foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati, ilova yangi betdan yoziladi. Bobning nomi yoki sarlavhalar asosiy matndan qo'shimcha interval bilan ajralib turadi.

Betlarning tartib raqami varaqning yuqori qismi o'rtafiga qo'yiladi.

Dissertatsiyaning titul varag'i qabul qilingan namunaga mos bo'lishi kerak (3- ilovaga qarang).

Yana shuni ta'kidlash joizki, tugallangan dissertatsiyani ilmiy rahbar ko'rib bo'lqandan so'ng, uni avvalo, kafedra majlisida dastlabki himoyaga, so'ngra ochiq himoyaga tavsiya etadigan xulosa beradi. Dissertatsiyaning tayyorgarligi bo'yicha 2 nafar ilmiy darajali mutaxassis yozma ravishda ekspert xulosasini beradi.

Magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar xulosasi hamda tashqi taqriz beriladi. Ilmiy rahbar xulosasi va tashqi taqrizda quyidagi masalalar yoritilishi shart:

Ilmiy rahbar xulosasi

1. Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi.
2. Magistrlik dissertatsiyasining maqsad va vazifalari muallif tomonidan qay darajada aniq yoritilganligi.
3. O'tkazilgan tadqiqot natijalarining asoslanganligi.
4. Mavzu bo'yicha manbalardan keng foydalanilganligi.
5. Tadqiqotning ilmiy jihatdan yangiligi.
6. Tadqiqotchining ilmiy tahlil qila olish qobiliyatining qisqacha ta'rif.
7. Magistrant xulosalari va takliflarining sifati.

8. Tadqiqotning magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan talablarga mosligi.
9. Muallifning "Magistr" darajasiga loyiq yoki noloyiqligi.

Tashqi va opponent taqrizlarida

1. Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi.
2. Tadqiqotning yangiligi va dissertatsiya ishi ilmiy-amaliy natijalarini asoslanishi.
3. Dissertatsiyani amaliyot uchun ahamiyati o'tkazilgan tadqiqot natijalarining asoslanganligi.
4. Dissertatsiya mazmuni va uning tugallanganligi darajasi.
5. Amalga oshirilgan tadqiqotning ilmiy va amaliy qiymati.
6. Dissertatsiyaning magistrlik dissertatsiyalari talablariga mosligi.
7. Tadqiqot yuzasidan tanqid, takiif va mulohazalar.
8. Muallifning "Magistr" darajasiga loyiq yoki noloyiqligi o'z aksini topishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan taqrizlar bilan rasmiylashtirilgan dissertatsiya kafedraga himoyadan kamida 1 oy avval (2 nuxsada qog'ozda va elektron variantda) topshiriladi. Kafedra ishni ko'rib chiqib, dastlabki himoya kuni va vaqtini belgilaydi. Dastlabki himoyadan muvaffaqiyatli o'tgan magistrlik tadqiqotlari kafedra qaydnomasi bilan rasmiylashtirilib, ochiq himoyaga tavsiya etiladi. Kafedra yig'ilishi qaydnomasining birinchi nusxasi oliy o'quv yurtining o'quv ishlari bo'yicha prorektoriga taqdim etiladi.

Dissertatsiyada, odatda, mazmuni bo'yicha arxiv va muzey manbalari, tarixiy adabiyotlar va hujatlar, davriy matbuot nashrfari va boshqalardan iqtibos keltiriladi.

Matndagi betlar, boblarda tartib raqami belgisi masalan, 3- rasm, II bob shaklida yoziladi. Agar tadqiqotda 3 va undan ortiq jadvallar keltirilgan bo'lsa, jadvai sonlari boblar bo'yicha (3.1- jadval, 4.4- jadval tarzida) beriladi. Jadval atigi 1-2 ta bo'lsa, unda tarib raqami qo'yilmaydi.

Ishning ushbu jumlalar tarkibiga kirmagan ayrim qismiga beriladigan havolalar quyidagicha beriladi, ya'ni izohlar sahifaning eng pastki qismiga chiziq tortib, satr boshidan yoziladi. Izohlar har bir sahifada alohida tartib raqami bilan ko'rsatib boriladi. Keyingi betda izohlar raqam bilan belgilanadi. Izohning matndagi raqam belgisi, agar izoh ayrim so'zgagina taalluqli bo'lsa, gap oxiriga qo'yiladi. Izoh belgisi hamisha tinish belgilardan oldin yoziladi (*so'roq, undov belgisi va ko'p nuqta bundan mustasno – mualliflar*).

Dissertatsiya matnida ko'pincha boshqa tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlangan dalillarga iqtibos berishga yoki ulardan ba'zi ma'lumotlarni o'zlashtirishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda ilmiy ko'chirmakashlikda ayylanmaslik uchun o'zlashtirilgan materiallar asli qaysi manbadan olinganligi albatta iqtibosda keltirilishi shart (9- mavzuga qarang).

Foydalilanigan manba va adabiyotlarning bibliografik ro'yxati magistrlik dissertatsiyasining asosiy elementi bo'lib, unda foydalilanigan manbalar ro'yxati beriladi va u xulosa qismidan keyin joylashtiriladi. Har bir manba bo'yicha:

- foydalilanigan adabiyotning ro'yxat bo'yicha tartib raqami;
- muallifning familiyasi, ismi va nasabi;

- monografiyaning nomi, me'yoriy ma'lumotnomalar;
 - nashr qilingan joy va nashriyot nomi;
 - chop etilgan yili;
 - qancha betdan iboratligi ko'rsatilishi shart (7- ilovaga qarang).
- Foydalilanigan manbalar va adabiyotlar ro'yxati quyidagi tartibda tuzilishi lozim:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qabul qilgan qonunlar va qarorlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari.
5. Arxiv manbalari.
6. e'lon qilingan hujjatlar va materiallar to'plamlari.
7. Davriy matbuot materiallari.
8. Adabiyotlar.
9. Xorijiy adabiyotlar.
10. Dissertatsiya va avtoreferatlar.
11. Xotiralar.
12. Internet materiallari.

Dissertatsiya himoyasiga tayyorgarlik ko'rishni tashkil etish tartibi, himoyaga tayyorgarligi, magistrlik dissertatsiyasi himoyasi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar va materiallarni rasmiylashtirish, Davlat attestatsiyasi yig'ilishida so'zlanadigan nutq matnini tayyorlash hamda dissertatsiyani himoya qilish jarayonini o'z ichiga oladi.

Magistrant dissertatsiyaning texnik jihatdan rasmiylashtirish ishlarini tugallagach, butun e'tiborini magistratura ta'limining so'nggi va hal qiluvchi bosqichi - magistrlik dissertatsiyasini himoyasiga tayyorgarlikka qaratmog'i lozim.

Bunday tayyorgarlik magistrlik dissertatsiya himoyasi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar va materiallarni rasmiylashtirish, Davlat attestatsiyasi komissiyasi yig'ilishida so'zlanadigan nutq matnini tayyorlash hamda dissertatsiyani himoya qilish jarayonini o'z ichiga oladi.

Tayanch so'zlar

Magistr, magistrlik dissertatsiyasi, Davlat attestatsiya hay'ati, rasmiy opponent, kontseptsiya, ilmiy maslahat, titul varaq'i, tarkibiy qismi, "Magistratura to'g'risidagi Nizom", dissertatsiya hajmi, taqriz, ilmiy rahbar xulosasi.

Nazorat savollari

1. Magistrlik dissertatsiyasi bitiruv malakaviy ishidan o'zining qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
2. Magistrlik dissertatsiyasining tarkibiy tuzilishi haqida so'zlab bering?
3. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va rasmiylashtirish qaysi me'yoriy hujjatlarga asoslanadi?
4. Magistrlik dissertatsiyasida rasmiy opponentning vazifalari nimalardan iborat va uning taqrizida qaysi jihatlar o'z ifodasini topishi lozim?

7- MAVZU: ILMIY TADQIQOT ASOSIY TAMOYILLARI: VAZIFALAR, XUSUSIYATLAR, USLUBIYOT

REJA

1. Tadqiqot mavzusini tanlash omillari.
2. Tadqiqot materiallarini qayta ishlash va uning tuzilishi, mazmuni.

Tadqiqot mavzusini tanlash omillari. Tadqiqot uchun talaba tomonidan mavzu tanlash mustaqil, ilmiy rahbarning tavsiysi orqali amalga oshirilishi mumkin. Muvaffaqiyatli tanlangan mavzu, uning xronologik davri, geografik hududi tadqiqot uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Tadqiqot mavzusini tanlashga turki beradigan omillar quyidagilardan iborat bo`lishi mumkin:

- ma`lum bir tarixiy voqeaga bo`lgan qiziqish;
- ma`lum bir tarixiy davrni chuqur o`rganishga intilish;
- ilmiy anjuman, tarixiy adabiyotlar, eshitgan ma`ruzasi orqali u yoki bu mavzuga qiziqib qolish;
- tarixdagi "oq dog'"larni o`rganishga intilish va boshqalar.

Tadqiqotchi mavzuni tanlashda ma`lum bir ilmiy ko`nikma, tanlayotgan mavzusi bo`yicha u yoki bu darajada tushunchaga ega bo`lishi kerak. Tadqiqot bo`yicha mavzu tanlashga jalb qilingan ilmiy izlanuvchi o`zi o`qiyotgan oly o`quv yurtidagi tegishli kafedraning istiqbolli ilmiy tadqiqot ishlari rejasи bilan tanishgan bo`lishi va mavzu tanlashda, mumkin qadar, shu rejani hisobga olishi kerak. Albatta, tadqiqotchi ilmiy rahbari va tegishli kafedra majlisi oldiga o`zini qiziqtirgan mavzu bo`yicha ilmiy tadqiqot olib borish masalasini qo`yish, uni asoslay olishi natijasida, kafedra majlisi qarori va OTM rahbari buyrug'i asosida, tanlangan mavzusi bo`yicha tadqiqot olib borish huquqiga ham ega. Mavzu tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak? Tadqiqot mavzusi qandayligidan qat'iy nazar, bu ish mustaqil muammoni qamrab olgan bo`lishi kerak. Mavzu tanlashda shu muammo dolzarbli, uning ilmiy, siyosiy va amaliy o`mi muhim ahamiyat kasb etishi kerak. Mavzu tanlayotgan talaba o`z ilmiy layoqati, xususan yozma manbalarni o`qiy olishi, eski o`zbek yozuvi, arab imlosini bilishi, ma`lum bir tarixiy davrni o`rganganligi, chet tilini bilishi, tegishli tarixiy geografik hududlardagi voqealardan xabardorligi, tarixiy manbalar ustida ishlay olishini hisobga olishi kerak. Chet tilini, hech bo`lmasa rus tilini bilmasdan turib, uzoqdagi AQSh, Kanada, Braziliya kabi mamlakatlar tarixini tadqiq qilishdan ko`ra, Vatanimiz tarixini chuqrurq o`rganish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ammo shu bilan birga, chet tilini yaxshi bilishi, internet ma`lumotlaridan unumli foydalana bilishi orqali G`arb davlatlari, Sharq mamlakatlari, Yevropa davlatlari tarixini tadqiq qilish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqot uchun Vatanimiz tarixining o`ta asrlar davri, O`ta Osiyo va Rossiya o`rtasidagi murakkab, ziddiyatli aloqalar, Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi, Buxoro amirligi, Xiva va Qo`qon xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy ahvol, o`lkadagi milliy ozodlik harakatlari, oziq-ovqat taqchilligi muammosi, jadidchilik harakati, "inqilobiylar jarayonlar", sovet mustamlakachiligi va "madaniy inqilob" davrlari, millatlararo munosabatlar va

milliy masala "yechimi" oqibatlari, ayollar masalasi, paxtachilik muammosi, turg'unlik yillaridagi ko'zbo'yamachiliklar, mustaqillik uchun kurash, mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayat, milliy qadriyatlar, shaharlar, allomalar tarixi bilan bog'liq mavzular muhim ahamiyatga molik bo'lib, bular o'z tadqiqotchilarini kutadi.

Tadqiqot mavzusini tanlashda shu mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, hujjatlar borligi yoki yo'qligini, tanlanayotgan mavzu bo'yicha qo'lyozma manbalari, davriy matbuot materiallari, arxiv manbalari qay darajada mavjudligi yoki kamliyi, yo'qligini hisobga olish kerak bo'ladi. Albatta, mavzu ham chuqur o'r ganilmagan, fanda ushbu mavzu qirralari kam tadqiq etilgan bo'lishi muhim ahamiyatga molikdir. O'r ganilgan mavzuni yana o'r ganishga harakat qilish bilan hamma vaqt ham ilmiy tadqiqotda olg'a siljib bo'lmaydi. Bu yerda istisno tariqasida shuni qayd etish lozimki, u yoki bu mavzu o'z davrida mafkuraviy tazyiqlar ostida, bir tomonlama o'r ganilgan bo'lsa, endilikda shu mavzuni xolisona tadqiq qilishga yana qaytadan kirishish mumkin.

Mavzu tanlashdagi anqlik, xususan uning uzundan-uzun bo'lmasligi, mavhum so'zlar, atamalar, iboralarni o'z ichiga olmasligi ham muhim ahamiyatga ega. Odatda, mavzu 10 ta so'zdan ortiq bo'lmasligi tavsiya etiladi. Mavzuda tadqiqot muammosi – masalasidan tashqari hududiy va davriylik doiralari ham ko'rsatilishi zarur. Har qanday tadqiqot mavzusi o'ziga xosligi bilan ajralib turishi kerak. Aslida tadqiqot orqali uzuq-yuluq ma'lumotlarni o'r ganishdan ko'ra, bir muammoni chuqurroq, har tomonlama tadqiq etib, ko'plab ilmiy yangiliklarni kiritish muhimroq hisoblanadi.

Tadqiqot materiallarini qayta ishlash va uning tuzilishi, mazmuni. Ilmiy tadqiqotchi o'z oldiga aniq maqsadni qo'yib, uning yechimi bo'yicha tegishli tayyorgarlik ishlarini olib borishi kerak. Tayyorgarlik ishlari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshgan bo'lishi lozim:

– mavzuga oid kengaytirilgan ish reja tuzilgan va ilmiy rahbar tasdig'idan o'tgan bo'lishi kerak;

– mavzuga oid yig'ilgan materiallarni qayta ishlashdan avval, adabiyot va manbalarni saralab, ulardan qaysi biri dastlab va qaysilari keyingi ketma-ketlikda o'r ganilishini aniqlab, tizimga solib olish zarur;

– mavzuga oid tadqiqot materiallarini «manbalar», «adabiyotlar», «hujjatlar» kabi yo'nalishlarda, xronologik ketma-ketlik asosida, muammoli yondashuv bo'yicha, bob, bo'lim va paragraflarga bo'lingan holda, mintaqasiga, tiliga, mualliflariga, kontseptsiyasiga bog'liq ravishda ajratib olish kerak;

– tadqiqotda dastlab adabiyotlarni, keyin chop etilgan hujjatlarni, undan so'ng chop etilmagan va o'z navbatida ilmiy muomalaga kiritilmaganlarni tahlil qilishdan boshlagan holda, arxeologiya, etnologiya, manbashunoslik yo'nalishlarida dastlab manbalar, dala yozuvlari, ekspeditsiya materiallarini o'r ganishdan boshlagan maqsadga muvofiq;

– keyingi o'r ganish eng yangi tadqiqotlar va unga yaqin ilmiy izlanishlar tahliliga qaratilishi lozim. Chunki bu hozirgi davrda ushbu tadqiqot mavzusi qanday o'r ganilayotgani darjasini, qaysi manbalarni ilmiy muomalaga kiritilgani to'g'risida ma'lumot beradi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalar amalga oshirilgandan keyin tadqiqotchi oldida qayta ishlangan adabiyot va manbalarni ilmiy ishning loyiha rejasи bo'yicha ajratib chiqish mumkin bo'ladi. Bu esa ilmiy tadqiqot tuzilishi bo'yicha bevosita ish boshlash imkoniyatini beradi. Natijada, qaysi bob, bo'lim va paragraflar bo'yicha tadqiqotga oid materiallar etarli yoki etarli emasligi ma'lum darajada ko'zga tashlanadi. Tadqiqot mavzusi, rejasidan kelib chiqib, har bir tadqiqot uchun alohida bo'lgani holda, ayni paytda har qanday ilmiy ishda umumiy pritsiplarga asoslangan quyidagilar aks etadi:

- kirish;
- asosiy qism (boblar va paragraflar);
- xulosa;
- foydalilanigan manba va adabiyotlar ro'yxati;
- ilova (zarur hollarda).

Tadqiqotning Kirish qismida quyidagilar o'z aksini topadi:

– mavzuning dolzarbliji va o'rganilishi darajasida: tanlangan mavzuning tarix fanida tutgan o'rni, ushbu muammolarning nazariy-uslubiy asoslari, mavzu bo'yicha mavjud adabiyotlar va manbalar ko'lami xamda qisqa tahvilani aniq misollar vositasida keltiriladi;

– tadqiqotning maqsad va vazifalari hamda hududiy, davriy chegaralarida: ilmiy izlanishdan maqsad va undan kelib chiqadigan vazifalar, tadqiqot mavzusiga ko'ra qaysi hudud yoki hudud (mintaqa)lar o'rganilishi va bu qaysi xronologik davrni o'z ichiga qamrab olishi aniq, asosli tarzda ifodalanadi;

– tadqiqotning manbalari va ilmiy yangigiligidagi mavzuni yoritishda qaysi arxivlar va ularning fondlari (*arkiv nomi, fond nomi keltiriladi-mualliflar*)dan foydalangani, arxiv manbalari bo'yicha qisqacha tahvil, e'lon qilingan hujjatlar va materiallari, to'plamlari va davriy matbuot materiallari, qo'lyozmalar, ilmiy-tarixshunoslik monografiyalari, maqolalar, xotiralar bo'yicha qisqa, asosli tahvil etiladi;

– tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy axamiyatida: mavzuni yaratish asosida ilmiy izlanuvchi qanday ilmiy yangiliklarni ro'yobga chiqargani va uning tarix fanida tutgan o'rni va ahamiyati aniq, dalillar asosida keltiriladi;

– tadqiqotchi o'z ilmiy ishida muammoning ayrim tomonlarini yoritmasligini qisqacha izohlab, masalaning tegishli jabhalarinigina yoritishini eslatib o'tadi;

– tadqiqotdan yana mavzu bo'yicha qaysi ilmiy anjumanlarda qatnashgani, amaliy seminarlardan o'tgani, tadqiqot natijalari bo'yicha e'lon qilgan ilmiy ishlari, tadqiqotning tarkibiy tuzilishi ham o'rinni olishi mumkin.

Ilmiy tadqiqot tuzilishida Kirish qismini yozish mohiyat jihatidan hamma ilmiy izlanuvchilar uchun deyarli bir xil talab asosida amalga oshiriladigan bo'lsa, tadqiqotning asosiy qismi bo'lgan, bob va paragraflar, qismlarni yoritish mavzu xususiyati, mavjud manbalar, tarixiy dalillar-materiallar, mavzuni yoritish bo'yicha o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalar, ishning tarkibiy tuzilishidan kelib chiqadi. Tadqiqotning bob va paragraflarga ajratish jarayoni ilmiy ish mavzusining xususiyati va rejasи bo'yicha qaysi muammolarni yoritishga qaratilgani bilan ham belgilanadi. Shuningdek, bob va paragraflar tadqiqot uchun yig'ilgan materiallar, maqsad va vazifalardan ham kelib chiqadi. Tadqiqot tuzilishida ilmiy ish rejasи muhim o'rinni tutadi. Odatda, tadqiqotlar uch xil

yo`nalishdagi rejalarini o`z ichiga oladi: xronologik, muammoli, kesishgan, ya`ni oxirgisi birinchi va ikkinchi yo`nalishlardagi elementlarni o`z ichiga oлган bo`лади.

Xronologik yo`nalishdagi ilmiy ish rejasi tarixiy jarayonlarning uzoq davri tadqiqot mavzusi bo`yicha o`рганилган taqdirda, xususan voqeа-hodisalarning bir davrdan ikkinchi bir davrga o`tgandagi ma`lum bir o`згаришларга oid holatlar yuz bersa, tarixiy jarayonlarni ichki davrlashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi. O`z navbatida boblar, paragraflardagi ichki davrlashtirish ham ilmiy asoslangan, tarixiy qabul qilingan ma`lum bir davrlarni o`z ichiga olishi kerak. Masalan, tadqiqot mavzusi «O`zbekistonda xotin-qizlar masalasi yechimi (1917- 1991 yy.)» bo`lsa, unda rejani quyidagicha tuzish mumkin:

Kirish

I bob. Turkistonda xotin-qizlar masalasi (1917- 1924 yy.).

1.1. Xotin-qizlar muammosi.

1.2. Xotin-qizlar bo`limlari faoliyati.

II bob. O`zbekiston xotin-qizlari ozodiik yo`lida (1925- 1941 yy.).

2.1. Xotin-qizlar ozodligi bo`yicha sa`y-xarakatlar.

2.2. "Hujum" kompaniyasining amalga oshirilishi.

2.3. Xotin-qizlarni "yangi jamiyat" qurishga jalb etilishi.

III bob. Xotin-qizlar urush va tinch qurilish yillarda (1941- 1991 yy.).

3.1. Urush yillarda xotin-qizlar faoliyati.

3.2. Xotin-qizlar tinchlik yillarda.

Xulosa

Foydalanimanba va adabiyotlar ro`yxati.

Albatta, yuqorida keltirilgan tadqiqot mavzusi va uning xronologik davridan kelib chiqadigan reja ichki davrlashtirish tartibiga rioya qilingan holda tuzilgan, ya`ni sovet hokimiyatining Turkiston davri (1917- 1924 yy.), O`zbekiston SSR tashkil topishidan SSSR xalqlari uchun urush boshlangunga qadar bo`lgan davr (1925- 1941), O`zbekiston SSRning urush va tinchlik yillarda, xususan mustaqillikkacha bo`lgan davrini o`z ichiga oлган. Xronologik yo`nalishdagi rejada nafaqat boblar, balki paragraflar ham, mumkin qadar, ma`lum bir ichki davrlashtirish, tarixiy voqealar davriga bo`ysundirilishi kerak.

Tadqiqot rejasi boblar bo`yicha muammoli tarzda qo`yilib, paragraflar esa xronologik yo`nalishlarda bo`lishi mumkin. Muammoli tadqiqot rejasi, odatda, o`рганилаган давринг кичик бир qismini o`z ichiga olib, tadqiqot ko`plab ijtimoiy-tarixiy jabhalarni turli tomonlardan o`рганишга qaratilgan bo`лади. Masalan, "Ya. G`ulomovning O`zbekiston arxeologiyasi rivojidagi faoliyati" mavzusi bo`yicha quyidagi muammoli rejani taklif etish mumkin:

Kirish

I bob. Ya. G`ulomovning arxeologik olim sifatida shakllanishi.

1.1. Hayoti va ijodiy faoliyati.

1.2. Arxeolog bo`lishidagi omillar.

II bob. O`zbekiston arxeologiyasi rivojidagi tutgan o`rni.

2.1. Arxeologiyaga qo`shgan xissasi.

2.2. O`zbekistonda milliy arxeologlar maktabi asoschisi.

Xulosa

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati.

Ilova

Yuqorida keltirilgan tadqiqot rejasidagi ko`tarilgan masalalar xronologik jihatdan bir-biriga ularib ketishi mumkin bo`lsada, boblardagi ko`tarilayotgan masalalar muammoli tarzda qo`yilgani bilan ajralib turadi.

Xronologik va muammoli yo`nalishidagi rejalarini umumlashtiradigan, kesishgan reja ham ilmiy ishlarda uchrab turadi. Masalan, «**O`zbekiston va Yaponiya mamlakatlari o`rtasidagi iqtisodiy va madaniy hamkorlik munosabatlari (1991- 2001 yy.)**» mavzusi bo`yicha quyidagi tarzda kesishgan tadqiqot rejasini taklif etish mumkin:

Kirish

I bob. O`zbekiston va Yaponiya o`rtasidagi davlatlararo munosabatlarning shakllanishi.

- 1.1. O`zbekiston va Yaponiya o`rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslari.
- 1.2. O`zaro munosabatlarni vujudga kelish jarayoni.

II bob. O`zbekiston va Yaponiya o`rtasidagi iqtisodiy aloqalar.

- 2.1. Iqtisodiy aloqalarini shakllanishi.
- 2.2. O`zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlar.

III bob. O`zbekiston va Yaponiya o`rtasidagi hamkorlik munosabatlarda xalq diplomatiyasining o`rni.

- 3.1. O`zbekiston va Yaponiya xalqlarining madaniyat sohasidagi aloqalari.
- 3.2. Ikki mamlakat xalqlarining fan sohasidagi hamkorligi.
- 3.3. O`zaro hamkorlik munosabatlarida ta`lim.

Xulosa

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati.

Qaysi yo`nalish bo`yicha tadqiqot rejasini tuzilishidan qat`iy nazar, dastlab ilmiy izlanuvchi mavzuga oid materiallar-manbalarni yiqqan, o`rgangan bo`lishi kerak. Aks holda har qanday tadqiqot rejasini mavzuni ochib berishga xizmat qila olmaydi. Tadqiqot uchun manbalar, tarixiy dalillar, materiallar yig`ish birinchi o`rinda turgan bo`lsa, ilmiy ishning tuzilishi bo`yicha yozish chog`ida yig`ilgan materiallaming eng muhimini ajratib, ilmiy muomalaga kiritish yanada oldinga o`tishi lozim. Odatta tadqiqotchi ixtiyorida ilmiy ish uchun zarur bo`lganiga qaraganda ko`proq miqdorda manbalar, tarixiy dalillar, materiallar yig`iladi. Tadqiqotchi to`plangan manbalarning hammasidan o`z ilmiy ishida foydalanmagan holda, ammo ularni o`rganadi, saralaydi, umumlashtiradi va bu o`z navbatida uning izlanayotgan mavzusini bo`yicha dunyoqarashini kengaytiradi.

Tadqiqot tuzilishidagi boblar va paragraflar hajmi o`rtasidagi mutanosiblikka rioya qilish ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot rejasidagi boblarda paragraflar soni ham bir-biridan katta farq qilmasligi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, birinchi bobda ikkita paragraf, ikkinchi bobda oltita paragraf, uchinchi bobda uchta paragraf bo`lishi ilmiy ish rejasini tuzilishidagi nomutanosiblikdan dalolat beradi. Boz ustiga, birinchi bob 21 betni, ikkinchi bob

58 betni, uchinchini bob esa 32 betni tashkil qilishi ham yuqorida qayd etilgan nomutanosiblikka yaqqol misol bo'la oladi.

Tadqiqot tuzilishidagi tartib-qoidalarga rioxaliga qilish ilmiy ishning mazmuniga ham ta'sir qiladi. Tadqiqot mazmunida boblar o'tasidagi uzviy bog'liqlik ham ilmiy ish mavzusiga borib taqaladi. Ammo ilmiy ishdagi har bir bob qo'yilgan muammoning alohida masalasini, boblar tarkibidagi paragraflar esa masalaning bior bir tomonini yoritishga qaratilgan bo'ladi. Shuni esda tutmoq kerakki, har bir bob mantiqan o'zidan avvalgi va keyingi bobiar, paragraflar bilan bog'langan bo'lishi ham va alohida, ya'ni mustaqil tarzda ilmiy-tarixiy holatlarni yoritishi ham mumkin.

Tadqiqotdagagi har bir bob o'zining umumiyligi kirish qismi va qo'yilgan masalani mustaqil yoritilishiga erishgan bo'lishi va bob oxirida bayon etilgan materiallar asosida xulosasiga ega bo'lishi kerak. Har bir bob oxirida keltiriladigan xulosa tadqiqot oxirida keltiriladigan umumiyligi Xulosa qismida ikkinchi darajali dalillarga e'tibor berishdan ozod qiladi.

Tadqiqotchi o'z ilmiy ishining tuzilishi va mazmunida tegishli mavzudan kelib chiqadigan boblar, paragraflar sarlavhasiga qo'yiladigan talablarni ham e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Ma'lumki, ilmiy tadqiqotlar qaysi mavzuda bo'lishidan qat'iy nazar, unda Kirish, Foydalaniqligani manba va adabiyotlar ro'yxati, Xulosa, Ilova sarlavhalari o'zgarmay qoladi. Bu sarlavhalarga izoh berish shart emas. Istisno tariqasida, Ilovaga qavs ichida «Hujjatlar nusxasi, illyustratsiyalar» deb, «Xulosa: Asosiy xulosalar va tavsiyalar» deb aniqlik kirituvchi, tushuncha beruvchi sarlavhachalar holatida berish ham mumkin. Tarixga oid ilmiy tadqiqotlar mavzusi, boblar, paragraflardagi sarlavhalar mohiyat jihatidan, mumkin qadar, qisqa, mantiqan bir-birini inkor etmaydigan, uzviy bog'liq bo'lishi kerak. Shunga e'tibor qaratish lozimki, mavzu nomlanishi bob sarlavhasida, o'z navbatida bob nomlanishi esa paragraf sarlavhasida takrorlanmasligi kerak. Boblar va paragraflardagi sarlavhalar aniq, qisqa, lo'nda va ikki xil ma'no kasb etmaydigan holda ifodalangan bo'lishi va matn bayonidagi mazmunni qisqacha o'zida aks ettirishi lozim. Boblardagi sarlavhalar tegishli paragraflardagi sarlavhalarda o'z aksini topib, tadqiqot mazmunini yoritishga yordam berishi kerak. Umuman olganda, tadqiqot tuzilishi va mazmunida bob va paragraflarni to'g'ri tuzish, sarlavhalarni chuqur o'yagan holda ifodalash, har bir bobga xulosalar bera olish muhim ahamiyatga molik hisoblanadi.

Tarixiy tadqiqotlarda Xulosa qismini yozishdagi talablarga rioxaliga qilish ham ilmiy ish mazmunida katta ahamiyatga ega. Tadqiqotda keltiriladigan xulosa, kirish qismidagidek ilmiy ishda, "yordamchi qism rolini o'ynamay, balki muhim qism" qatorida hisoblanadi. Tadqiqotning Xulosa qismida olib borilgan ilmiy ishning hammasiga yakun yasaladi. Ya'ni boblarda izhor etilgan tadqiqot natijalari umumlashtirilib, mavzu bo'yicha yakuniy xulosa beriladi. Xulosada, tadqiqotning boblarida keltirilmagan tarixiy dalillar, yangi nazariy g'oyalarni ilgari surish qabul qilinmagan. Ammo xulosa referativ, ya'ni bob va paragraflarning mazmunan qisqacha qaytarilishi ham bo'lib qolmasligi kerak. Xulosa o'z mazmuniga ko'ra, bob va paragraflardagi dalil va g'oyalarni umumlashtirib, sifat jihatidan hamma ilmiy natijalarni yuqori darajadagi mushohadalar asosida yangi

xulosalar berishga qaratilgan bo`lishi zarur. Tadqiqot xulosasini rasmiylashtirish turli shakkarda olib borilishi mumkin. Bu mavjud tarixiy material xususiyati, tadqiqot oldiga qo`yilgan maqsad va vazifalar, ilmiy natijalarni bob va paragraflarda umumlashtirish darajasiga, mavzuni yoritishdagi xulosalar o`rtasida mavjud mantiqiy bog`liqlikka ham taalluqli hisoblanadi. Tadqiqot xulosasida quyidagi shakklardan foydalanish mumkin:

1. Referativ umumlashtirish ya`ni boblar ketma-ketligi asosida.
2. Ilmiy tadqiqotni muammoli bayoni asosida.
3. Boblar ketma-ketligidan qat`iy nazar, mazmunini umumlashtirish asosida.

Tarixiy tadqiqotlardagi xulosa shakllari qanday bo`lishidan qat`iy nazar ilmiy izlanishlar natijasi quyidagilarni o`z ichiga olishi zarur:

1. Tadqiqotning kirish qismida qo`yilgan masalalar ya`ni maqsad va vazifalarga javob berish kerak.
2. Tadqiqotda ilgari surilgan gipoteza, tezislar, savollarga javob bo`lish lozim.
3. Asosiy xulosalar ifodalanishi kerak.
4. Mavzudan kelib chiqadigan ilmiy izlanishlar bo`yicha takliflar zarur.
5. Ilmiy tadqiqot natijalaridan ilmiy va amaliyotda foydalanish bo`yicha tavsiya berilishi lozim.
6. Tadqiqotchi tomonidan fanga va amaliyotga kiritilgan yangilik e`tirof etilishi kerak.
7. Tadqiqotning ilmiy-amaliy natijasini umumlashtirish zarur.
8. Tadqiqot bo`yicha istiqbolda mavzu muammolarini o`rganishga qaratilgan ko`rsatma bo`lishi zarur.

Shunga e`tibor berish kerakki, yakuniy xulosalar, boblardagi xulosalarga qarama-qarshi va ayni paytda boblardagi xulosalarni so`zma-so`z qaytarilishi ham bo`imasligi kerak. Boblardagi xulosalar umumlashtirilgan holda, har bir bob materiali asosida emas, balki butun ilmiy ish materiallariga oid tadqiqot natijasida, kengroq va chuqurroq, mantiqiy bilimlar asosida yakuniy xulosadan o`rin oladi.

Ilmiy tadqiqot yozishga kirishgan har bir tadqiqotchidan ilmiy mehnat madaniyatiga rioya qilish talab qilinadi. Bu talab ilk bor ilmiy tadqiqotga qo`i urgan tadqiqotchidan tortib, yillar davomida bir qator ilmiy asarlar yozgan, ko`plab shogirdlar chiqargan, ilmda "suyagi qotgan"larga ham taalluqli hisoblanadi. Ma`lumki, tadqiqotchi tomonidan o`rganilayotgan mavzu odatga ko`ra, ko`pincha, ilk bor o`rganilmayotgan bo`ladi. Shuning uchun ham tadqiqotchi mavzuni yoritishda o`zidan avvalgi ilmiy izlanishlar natijalariga tanqidiy yondashishi bilan birga, ayni paytda ularning fanda qilgan ishlarini sinchkovlik bilan o`rganishi hamda hurmat bilan yondashishini taqozo etadi. Tadqiqotchi o`zidan avvalgi ilmiy izlanuvchilar erishgan ilmiy yutuqlarga shunchaki munosabatda bo`imasligi va ulardan o`z foydasiga o`zlashtirmasligi kerak bo`ladi. Agar tadqiqotchidan avvalgi ilmiy izlanuvchilar tomonidan o`rganilayotgan mavzuning u yoki bu yo`nalishi etarli darajada o`rganilmagan bo`lsa, ayrim tarixiy noaniqlikka yo`l qo`yilgan bo`lsa yoki bu muammo, mavzu umuman o`rganilmagan bo`lsa, unda tadqiqotchi adabiyot va manbalarning ishonchli tahlili asosida, qo`pollikka berilmay, ilmiy odob doirasida buni ko`rsata olishi kerak. O`z navbatida tadqiqotchi o`zidan avvalgi ilmiy izlanuvchilar nuqtai

nazari, xulosalariga ko'r-ko' rona qo'shilib ham ketavermasligi kerak. Ammo o'z nuqtai nazari, nazariy mushohadalari, ilmiy xulosalari boshqalarnikidan ko'ra ilmiy qimmati yuqori, asosli bo'lishi uchun foydalangan tarixiy materiallari, dalillari asosli va chugur ilmiy tahlil qilingan bo'lishi lozim.

Tadqiqot o'z mazmuniga ko'ra ilmiy yo'nalishda ekanligi sezilib turishi kerak. Ilmiy ish ravon o'qilishi, ehtirosli fikr-mulohazalardan yiroq, dalillarga asoslangan bo'lishi kerak. Tadqiqotchi tomonidan ilmiy ish bayoni adabiy tilda, badiiylikdan yiroq, voqeа-hodisalar, tarixiy dalillarga tarixiy nuqtai nazardan ilmiy izoh berish orqali amalga oshirilishi lozim. Tarixiy tadqiqotchilarda voqeа-hodisalar, tarixiy dalillarni asosli bayon etish, *t o' q i m a ch i l i k* (biz tomonidan ajratilgan – mualliflar) bilan shug'ullanmasliklari kerak. Ilmiy ish bayonida bir gapda bir necha marta bir xil so'zlarni qo'llamaslik, mumkin qadar, sinonimlardan foydalanish zarur. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishi adabiyotlar, tarixiy manbalar iqtiboslariiga to`lib-toshib ketmasligi, «iqtiboslar ko'rgazmasi»ga aylanmasligi lozim. Zero, har bir tadqiqotda manbalar qatori, ilmiy izlanuvchining munosabati, talqini, nazariy mushohadasi sezilib turishi kerak. Ilmiy tadqiqotni boshidan xulosasiga qadar o'qigan kishi, ma'lum bir ijobjiy xulosaga kelishi kerak.

Tayanch so'zlar

Mavzuni tanlash, asosiy omillar, tanlash imkoniyati, tadqiqot, tadqiqot ob'ekti, arxiv manbalari, davriy matbuot, qo'lyozmalar, reja tuzish tartiblari, referativ umumlashtirish, ilmiy mehnat madaniyati, to'qimachilik, «iqtiboslar ko'rgazmasi».

Nazorat savollari

1. Qaysi omillar tadqiqot muvaffaqiyatida etakchi omil bo'lishi mumkin?
2. Tadqiqot materiallарини qayta ishlashda qaysi jihatlarga asosiy e'tiborni qaratish lozim?
3. Tadqiqot rejasini tuzish qanday tartibda amalga oshiriladi?
4. Tadqiqot rejasidagi boblar va paragraflar mutanosibligi deganda nimani tushunasiz?
5. Tadqiqotchining ilmiy mehnat madaniyati xususida fikringizni bayon eting.

8- MAVZU: ILMIY TADQIQOT MATERIALLARI USTIDA ISHLASH

REJA

1. Tadqiqotda tarixiy manbalar.
2. Tadqiqotda arxiv manbalari.
3. Davriy matbuot materiallаридан foydalanish.
4. Tadqiqotda muzey manbalari.
5. Bibliografiya tuzish.
6. Tadqiqotlarda kutubxona fondidan foydalanish.

Tadqiqotlarda tarixiy manbalar. Tarix yo`nalishida ilmiy tadqiqot olib borish ma`lum bir bilim, malaka, ko`nikmani talab qiladi. Boshqa ayrim fanlardan farqli o`laroq, tarixchi ko`pincha (*eng yangi tarixdan tashqari - mualliflar*) o`z tadqiqoti ob`ektini bevosita kuzatish imkoniyatiga ega emas. Istisno tariqasida, tarixchi o`zi shohid voqealarni ham yozishi mumkin. Ammo o`zi bevosita guvoh bo`lgan, ishtirok etgan tarixiy voqeа-hodisalar ham ma`lum darajada tahlilga, qiyosiy solishtirishga muhtoj bo`ladi. Tadqiqotga kirishgan tarixchi uchun eng asosiysi manba va yodgorliklar hisoblanadi. Aynan tarixiy manba va yodgorliklar orqaligina tadqiqotga taalluqli tarixiy ma`lumotlarni, dalillarni olish va shundagina ular asosida tarixiy umumlashtirish, voqeа va hodisalarning sabab, bahona hamda oqibatlarini tahlil qilish, nazariy g`oyalarni ilgari surish, xulosalar qilish mumkin bo`ladi. Boshqacharoq aytganda, tarixiy tadqiqotlar ma`lum bir manbalar va ularni umumlashtirmasdan turib o`zining ilmiy ahamiyatiga ega bo`lmaydi.

Har qanday ilmiy tadqiqot manbalar miqdori, xilma-xilligi, sifati va tarixchining ular ustida ishlash qobiliyati ya`ni ularni tahlil qila olishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix fanida ilmiy tadqiqot olib borishga kirishgan tadqiqotchi uchun manbalarni etishmasligi, mavjud manbalarni chuqur tahlil qila olmasligi, oxir-oqibatda tarixni soxtalashtirishga olib keladi. Demak, tadqiqotchi ma`lum bir bilimlarni egallagan, manbalar tahliliga qodir bo`lgan, mantiqiy fikrlash, voqeа-hodisalarni uzviy bog`lash, tarixiy dalillarni chuqur o`rganishga, bir so`z bilan aytganda, aqliy va mashaqqatli mehnatga moyil bo`lgan bo`lishi kerak.

Tarix sohasidagi ilmiy tadqiqot olib borishga kirishganlar uchun yuqorida qayd etilgan tadqiqotchi fazilatlariga qo`shimcha yana nimalar yordam bera oladi? Bunda maxsus tarixiy manbalarni o`rganish ahamiyatiga ega. Manbashunoslik tarixchilar uchun yuqori bosqichlarda o`rganilishiga qaramasdan, tarixchi talaba 1- bosqichdanoq manbashunoslikning oddiy asoslarini bilishi kerak. Chunki talabalikning dastlabki davridanoq amaliy mashg`ulotlar, ilmiy to`garaklar, mustaqil ishlari, kurs ishlari, ilmiy ma`ruzalarga tayyorgarlik jarayonida doimo manbalarga murojaat qilishga to`g`ri keladi. Tarixiy manba – bu nima? Tarixiy ilmiy tadqiqotlarda muhim rol o`ynaydigan tarixiy manbalar turlari va ularning tizimi, klassifikatsiyasi qanaqa? Agar umumlashtirib aytadigan bo`lsak, tarixiy manbalarga qadimdan qolgan hamma

narsa, xususan inson jamiyatni rivojlanishi qonuniyatlarini kiradi, ya`ni inson qo`li va aql-zakovati bilan yaratilgan moddiy manbalar, yozma yodgorliklar, urf-odatlar, tillar v. b. Hamma tarixiy manbalarni shartli ravishda 5 ta guruhga bo`lish mumkin:

1. **Yozma manbalar:** epigrafik yodgorliklar ya`ni toshlarga, metallarga, suyaklarga, sopol idishlarga yozilgan qadimgi va o`rta asrlardagi yozuvlar; graffiti, ya`ni qo`l bilan binolar, metall buyumlar, idishlarda qoldirilgan izlar; papirus, pergament, qog`ozlardagi qo`lyozmalar; chop etilgan materiallar. Tadqiqotchilar uchun qo`lyozma va chop etilgan manbalar tarixni o`rganishda muhim ahamiyat kasb etadi va ular son jihatdan ham juda ko`p miqdorda hisoblanadi.

2. **Moddiy yodgorliklar:** mehnat qurollari, hunarmandchilik buyumlari, idishlar, uy anjomlari, kiyimlar, bezaklar, tangalar, qurollar, san`at buyumlari, uy joy qoldiqlari, me`moriy yodgorliklar v. b. O`rta asrlar davrigacha bo`lgan moddiy manbalarni arxeologiya fani o`rganadi. Aynan arxeologik yodgorliklar orqaligina tarixning qadimgi davrini tadqiq etish mumkin. Ayniqsa, bu insoniyat yozuvni kashf etgunga qadar bo`lgan davrni tadqiq qilishda muhim ahamiyatga ega yagona manba hisoblanadi. Ayni paytda keyingi davr, xususan hozirga qadar yaratilgan moddiy yodgorliklar ham ilmiy tadqiqot uchun muhim ahamiyatga ega.

3. **Etnografik materiallar:** ilmiy tadqiqotda ibtidoiy odamlarning yashash tarzi, xalqlarning turmushi, urf-odatlari va hayoti, an`analari, bayramlari, diniy e`tiqodlarini o`rganish katta ahamiyat kasb etadi. Bu yo`nalishdagi ilmiy tadqiqot olib borishda dala ekspeditsiyalari orqali yig`ilgan manbalar ham e`tiborga loyiq hisoblanadi.

4. **Lingvistik yodgorliklar:** tadqiqotlar olib borishda qadimgi tillarni og`zaki va yozma, badiiy nutqda aks etishini xalqlardagi izlari, turli xalqlar tilidagi o`xshashlikning tarixiy ildizlari ham ahamiyatli hisoblanadi. Lingvistik materiallar orqali tadqiqotchilar qadimgi xalqlarning etnik kelib chiqishi va mashg`ulotlari, migratsion jarayonlar, diniy e`tiqodlar, madaniyat, turmush tarzi taraqqiyotini o`rganadilar.

5. **Kinofotohujjatlar:** ilmiy tadqiqotda tarixchi uchun nisbatan yangi va ayni paytda juda tez, ahamiyatli manbalar qatoriga kiradi. Kinofotohujjatlar ilmiy tadqiqotchilar tomonidan voqeа-hodisalar bo`yicha ilgari surilgan fikrlarni isbotitasdig`i va u yoki bu tarixiy voqeа-hodisalar tasdig`iga qarshi muhim tarixiy manba tariqasida tadqiqotchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Kinofotohujjatlar ilmiy tadqiqotchiarga tarixiy shaxslarni aniqlashda ham muhim manba hisoblanadi.

Tarixchi-tadqiqotchi qaysi manbalarga suyanib o`z ilmiy ishini yozishi kerak? Tadqiqotchi-talaba o`z ilmiy ishini yoritishda mavjud manbalarni, mumkin qadar, hammasini yig`ishi, umumlashtirishi, tahlil qilishi kerak. Albatta, mavjud manbalar tahliida nazorat, dalillarni solishtirish, mavjud materiallarga tanqidiy yondashuv va shundan keyingina zarur ilmiy xulosalarni berish tarixchi-talaba uchun muhim ahamiyatli burch hisoblanadi. Umuman olganda, tarixchining muhim vazifalaridan biri mavjud manbalarni tanqidiy o`rganib chiqishdan iborat.

Tadqiqotchi-talaba uchun yozma manbalarni, ayniqsa, Rossiya va uning mustamlakalaridagi, sobiq SSSRdagи tarixiy voqeа-hodisalarni, xususan XIX asr oxiri – XX asr 90- yillari boshlarigacha bo`lgan davrdagi yozma manbalarni o`rganish izlanuvchidan ma`lum bir bilim ko`nikmalarni o`zlashtirishni taqozo qiladi. Chunki XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyatdagi “inqilobiy” jarayonlar, bиринчи jahон urushi yillari (1914- 1918)даги harbiy-siyosiy ahvol, siyosiy partiyalар o`rtasidagi hokimiyat uchun kurash bo`yicha yozma manbalarni, sovet hokimiyatи yillardagi sinfiy kurash, partiyaviy intizomga bo`ysundirilgan yozma manbalarni o`rganishda va ularni tadqiq hamda taiqin qilishda hukmoni partiya ta`sirini his qilgan holda tanqidiy yondashishni taqozo etadi. Har qanday tarixiy manbani o`rganishda sinfiy va partiyaviy yondashuv emas, balki har bir tadqiqot asosini tarixiylik, davriylik va umuman xolislik tashkil qilishi kerak. Ayni paytda, tadqiqotchi-talaba uchun yozma manbalarni qanchalik darajada haqiqiyligi, soxta emasligini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Tarixchi-tadqiqotchining manbalarni tanqidiy o`rgana olishi, haqiqiy manba bilan soxtasini ajrata bilishi, o`ylab topilgan sinfiy yondashuvlarga baho bera olishi, yozma manbalaridagi ob`ektiv va sub`ektiv holatlarni tahlil qila olishi, ilmiy tadqiqot muvaffaqiyatining asosi bo`lib xizmat qiladi.

Tarixiy manbalarni qiyosiy-tarixiy tahlil qilish usulidan foydalanish asosida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish ham muhim ahamiyatga ega. Qiyosiy-tarixiy tahlil ma`lum bir ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy davrdagi voqeа-hodisalar, tarixiy shaxslar faoliyati, siyosiy vaziyatning o`xshashligiga bog`liq bo`ladi. Ammo har qanday holatda ham qiyosiy-tarixiy tahlil ilmiy tadqiqot uchun to`la asos bo`lavermaydi. Agar tadqiqotchi-talaba ixtiyorida mavzuga oid manbalarni qiyosiy-tarixiy tahlil qilish imkoniyati yo`q bo`lsa, unda tarixchi-tadqiqotchi nazariy tahlil uslubiga, boshqa fanlardagi ma`lumotlarga, umumiy dunyoqarashiga, tajribasiga, ilmiy hissiyoritiga tayangan holda manbalar bo`yicha o`z xulosasiga ega bo`lishi mumkin. Ammo har qanday holatda ham tarixiy ilmiy tadqiqotlarda yozma manbalarni hech qaysi manbalar to`la almashtira olmaydi.

Tarixiy tadqiqotlar muvaffaqiyatida faqatgina yozma manbalar mavjudligining o`ziyoq kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tadqiqotchi-talaba uchun o`zining professional tayyorgarligidan tashqari ilmiy ishi mavzusini yoritishda yana yordamchi tarixiy fanlardan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki tadqiqotlarda yordamchi tarixiy fanlar ko`plab dalillarni, yodgorliklarni tahlil qilishga, anqlik kiritishga, xolisona taiqin qilishga undaydi.

Ilmiy tadqiqotlarda yozma manbalaridan tashqari, yordamchi tarixiy fanlardan quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

1. **Paleografiya** – yozuvlar tarixini, qaysi materialga yozilishidan qat`iy nazar yozma yodgorliklar turlarini o`rganadi.

2. **Arxeografiya** – arxiv hujjatlarini, yozma tarixiy manbalarni nashr etish qoida va usullarini o`rgatadi. Nashr qilingan hujjatlar to`plamlari ilmiy tadqiqot bilan shug`ullanuvchilar uchun tarixni chuqur o`rganishda, xolisona tadqiq etishda yordam beradi.

3. **Tarixiy geografiya** – bu insoniyat tarixiy o`tmishining geografiyasini, xususan tabiiy muhit, tashqi va ichki chegaralardagi, shahar va qishloqlar,

qal' alardagi, harbiy yurishlardagi yo'llarni, jang maydonlarini, xalq harakatlari va qo'zg'ononlarining yo'nalishlaridagi o'zgarishlarni o'rganadi.

4. Geneologiya (shajara) – insonlarning kelib chiqishi, qarindoshlik aloqalarli, oila ajdodlarining kelib chiqishi, shuningdek, ayrim shaxslar va ularning qarindoshlik aloqalarini o'rganadi.

5. Numizmatika – tangalar, pul biriklari, orden va medallar, nishonlarni o'rganadi. Bu esa hokimiyat tepasida kimlar bo'lgani va almashgani, sulolalar ketma-ketligi, davlat to'ntarishlari, urushlar, diniy islohotlar va boshqalar to'g'risida ma'lumot beradi.

6. Xronologiya – turli xalqlardagi har xil vaqtlni va ularni hozirgi zamon yilnomasiga o'tkazish usullarini o'rgatadi. Tadqiqotchi-talaba xronologiya uslubiga tayangan holda yozma, arxeologik va boshqa manbalarga asoslanib, tarixiy hujjatlar, voqealar, hodisalar, dalillarning aniq sanasini belgilaydi. Masalan, Hijriy taqvim, Grigoryan taqvimlari o'rtasidagi farq, tarixiy voqealarni 1918 yil 1 fevralgacha sanasi va undan keyingi o'zgarishlar.

7. Metrologiya – o'tmishdagi uzunlik, maydonlar, og'irlik, hajmlar o'Ichov birliklarini o'rganadi. O'Ichov birliklarining tarixiy davrda, mintaqalardagi rivoji va ularning hozirgi o'Ichov birliklari bilan solishtirish ilmiy tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega. Metrologiya tadqiqotchi uchun ma'lum bir davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni, xususan er maydonlari ko'satkichi, qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishi miqdori, mahsulotlar narxi, savdo aylanmasini aniqlashda yordam beradi.

Tadqiqotda arxiv manbalarini. Tarix fanida arxiv manbalarining tutgan o'rni katta ahamiyatga ega. Arxiv so'zi lotincha **archivum** ya'ni muassasa ma'nosini bildirib, u erda qadimgi hujjatlar, yozma yodgorliklar (qo'lyozma, maktub, v. b.) saqlangan. Ayni paytda arxiv so'zi yunoncha **archeion** mustahkam uy ma'nosini ham bildirib, qadimda davlatning muhim hujjatlarini saqlangan joyga nisbatan qo'llangan. Umuman olganda, arxiv – bu arxiv hujjatlar majmui, shuningdek, arxiv muassasasi yoki korxona, muassasa yoki tashkilotning arxiv hujjatlarini qabul qiluvchi, saqlovchi va foydalanuvchi tarkibiy bo'linmasi, idoralar, tashkilotlar, shuningdek, ayrim shaxslar ish faoliyatini davomida to'plangan hujjatlar majmuidir.

Vatanimiz tarixini xolisona yoritishda arxiv manbalarini tarixni sinchiklab o'rganish, boshqa manbalar bilan solishtirish imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, yurtimiz tarixidagi "oq dog'lar"ni, unutilib ketgan tarixiy voqealarni, tarixiy sana va dalillarni yana "tarix sahnasi"ga qaytishiga yordam beradi. Ana shunday sharaflı vazifani, ya'ni arxiv manbalarini "tilga kiritish"ga o'z hissasini qo'shadiganlarga, manbalarni asrab-avaylab saqlayotgan arxivariuslar va katta sabr-toqat bilan mashaqqatli mehnat evaziga tarixiy manbalarni topib, ularni o'z izlanishlari orqali ilmiy muomalaga kiritayotgan tadqiqotchilar hisoblanadi.

Tarix fanida ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanuvchilar uchun O'zbekistondagi arxivlar, xususan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivsi hujjatlar saqlanadigan eng katta, eng boy manbalar xazinasi hisoblanadi.

Bu arxivdagi hujjatlar XIII asrga oid vaqfnomalardan hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Hozirgi kunda tarix fani tadqiqotchilar uchun respublikamizdagi 82 ta davlat arxivsi mavjud bo'lib, unda XIII-XX asrlarga

taalluqli 6 milliondan ortiq fondlarda qog'oz, kino, surat va ovozli arxiv hujjatlari mavjud. Bundan tashqari 10 mingga yaqin idoraviy arxivlarda 1,6 milliondan ortiq, 112 ta shaxsiy tarkib arxivlarida esa 5 millionga yaqin arxiv hujjatlari saqlanmoqda. Turgan gapki, bular Vatanimiz tarixi, jahon tarixi yo'nalishlarida qanchadan-qancha tadqiqot olib borayotganlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivni va Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy davlat arxivni, 11 ta viloyat arxivlari hamda ularning 40 dan ortiq filiallari mavjud.

Tarix fanida olib boriladigan tadqiqot ishlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivni va viloyatlar hokimliklari qoshidagi arxivlar (*sobiq kommunistik partiya arxiv – mualliflar*) ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, O'zbekiston kompartiyasi MQ fondida 1924- yildan 1991- yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab olgan 70 mingdan ortiq hujjatlari saqlanmoqda.

Tadqiqotga qo'l urgan talabalar qachon va qaysi hollarda arxiv manbalaridan foydalanishga kirishishi kerak? Buning uchun ilmiy tadqiqot yozishga kirishgan talaba tanlagen mavzusiga oid chop etilgan adabiyotlarni, hujjatlari to'plamini o'rjanib, yig'ib ulgurgan bo'lishi kerak. Zero, talabaga qadar boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rjanilgan, ilmiy muomalaga kiritilgan, xususan bu chop etilgan kitoblarda, hujjatlari to'plamlarida, maqolalarda, ilmiy tadqiqot ishlarida (*dissertatsiyalar nazarda tutilmoxda – mualliflar*) o'z aksini topgan bo'lsa, unda yana qaytadan o'sha hujjatlarni, tarixiy dalil va misollarni arxivdan olishning hojati yo'q. Bunday holatlarda talaba-tadqiqotchi uchun zarur ma'lumot va hujjatlarni o'sha kitob, hujjatlari to'plami, maqolalar, ilmiy tadqiqotlardan olib, belgilangan tartibda iqtibos keltirib, foydalilanigan adabiyotlar va manbalar ro'yxatida aks ettirish kerak bo'ladi. Arxiv materiallariga tadqiqotchi hali ilmiy muomalaga kiritilmagan hujjatlarni olish maqsadida murojaat qilish mumkin.

Umuman olganda, tarix sohasida tadqiqot olib borishni maqsad qilgan talaba uchun arxiv manbalarini bilan ishlash, ma'lum darajada ilmiy izlanish olib borishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki tarixning ko'plab sohalariga oid voqealar va ijtimoiy hodisalarini o'rjanish hamda tahvil qilish arxiv hujjatlari orqali amalga oshiriladi. Ilmiy tadqiqot ishlarida arxiv hujjatlari bilan ishlash, ya'ni hali shu paytga qadar ilmiy muomalaga kiritilmagan qimmatli manbalarni topish, tarixiy voqealar, hodisalar, sanalar, tarixiy shaxslar faoliyatiga aniqlik kiritish va ularni hujjatlarni asosida tasdiqlash yoki inkor etish bilan bog'liq jarayonlar muhim ahamiyatga ega. Albatta, talaba uchun arxiv manbalarini bilan ishlash, o'z qiyinchiliklariga ham ega. Chunki arxiv hujjatlari miqdori juda katta va ularning ichidan (*albatta mavzudan kelib chiqib – mualliflar*) tadqiqotga oid hujjatlarni topish, solishtirish va uni matnga tushirish jarayonida qayta ishslash kerak bo'ladi.

Tadqiqot ustida ish olib borayotgan talaba uchun arxiv manbalaridan foydalanish jarayoni quydagicha amalga oshiriladi:

1. Talaba tadqiqotiga oid umumiyl, maxsus adabiyotlar, chop etilgan hujjatlari to'plamlarini o'rjanib chiqqanidan so'ng, ilmiy rahbari tavsiyasi asosida arxiv manbalarini o'rjanishga kirishishi mumkin.

2. Oliy ta'lim muassasasi rektori nomidan tegishli arxiv rahbari nomiga, tadqiqot olib borayotgan talabaning ismi-sharifi, kursi, mavzusi qayd etilgan rasmiy xat bilan murojaat qilinib, mavzuga oid arxiv hujjatlaridan foydalanishga ruxsat berilishi so`raladi (8- ilovaga qarang). Shunday mazmundagi xat oliy ta'lim muassasasi rektori nomidan alohida talaba nomiga va ayrim hollarda tadqiqotchilar mavzusi qayd etilgan holda bir necha talaba nomiga ham so`ralishi mumkin (9- ilovaga qarang).

3. Tadqiqotchi-talaba nomiga yozilgan rasmiy xat tegishli arxiv rahbariga topshirilgach, keyin qabul qilingan qoidalar asosida, talabaga ma'lum bir muddat davomida (*odatda yil oxiriga qadar – mualliflar*) mavzusi va uning xronologik davri bilan bog`liq arxiv materiallaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

4. Arxiv manbalaridan foydalanishga "Ruxsatnoma" olgan tadqiqotchi o`quv zalida ishlashi mumkin bo`ladi. Chunki qabul qilingan qoidaga muvofiq, arxiv hujjatlarini olib ketib foydalanish mumkin emas. Tadqiqotchi-talaba arxivning o`quv zalidagi ma`sul xodimga "Ruxsatnoma" bilan birga ilmiy ishi mavzusi va rejasini taqdim etadi (*arxivning mas`ul xodimi shu asosda ma'lum maslahatlar berishi mumkin – mualliflar*).

5. Arxiv xodimlari talabaning tadqiqot mavzusasi va rejasidan kelib chiqib, qaysi fondlardan foydalanish mumkinligi borasidagi xilma-xil ma'lumotnoma va "ko`rsatkich" (Путеводитель)ni beradi.

Shunday qilib, talaba oldida tadqiqot mavzusiga oid manbalarni topish masalasi turadi. Buning uchun arxivdagagi ishslash tartib-qoidalari bo`yicha ma'lum bir tushunchaga ega bo`lish kerak. Arxivdagagi materiallar fondlar bo`yicha saqlanadi. Bir tashkilot, muassasa, korxona yoki ayrim shaxslarning hujjatlari ma'lum bir fondda saqlanadi. Masalan, O`zbekiston Respublikasi markaziy davlat arxivining R.17- fondi: Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya qo`mitasi, R.31-fondi: Turkiston ASSR Er ishlari oziq-ovqat xalq komissarligi, R.2252- fondi: Kobozev P. A. – Shaxsiy ish, deb nomlanadi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni arxivining 60- fondi: Turkiston kommunistik partiyasi markaziy qo`mitasi, 361- fondi: Xorazm kommunistik partiyasi markaziy qo`mitasi, O`zbekiston Respublikasi PDA qoshidagi Toshkent viloyat bo`limi 1- fondi: Toshkent shahar partiya qo`mitasi deb nomlanadi.

Tadqiqot uchun manbalar ichida arxiv materiallari muhim ahamiyatga ega. Talaba o`z tadqiqoti mavzusidan kelib chiqib, nafaqat ilmiy adabiyotlar, hujjatlar to`plami, dala yozuvlari, etnografik ekspeditsiyalar, arxeologik qazishmalar, qo`lyozmalar, xotiralarga, balki tarix fanida muhim ahamiyatga molik arxiv manbalariga ham murojaat qilishi mumkin. Aynan arxivdagagi hujjatli manbalar tarix fanini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda tarix yo`nalishida tadqiqotga jazm qilganlar uchun arxiv hujjatlaridan foydalanish ilmiy tadqiqot salmog'i va ahamiyatini oshiradi.

Tadqiqot uchun arxivga murojaat qilgan talaba arxiv manbalaridan qanday foydalanish qoidalari bilishi kerak. **Birinchidan**, arxiv hujjatlaridan sizgacha foydalanilmagan, ilmiy muomalaga kiritilmagan manbalarni olish kerak. **Ikkinchidan**, yangi arxiv manbalarini boshqa tarixiy dalil, voqealari bilan solishtirish kerak bo`ladi. **Uchinchidan**, arxiv "dengizi"dan kerakli, muhim, ahamiyatli manbani ajrata bilish kerak. Yuqoridaqilarning hammasi tadqiqotchi-

talabādan mavzusiga yaqin muammolar bo'yicha ma'lum tarixiy ma'lumotlarni egallashni taqazo etadi. Chunki har bir arxiv fondida yuzlab, hatto ayrimlarida minglab katta-kichik hajmdagi "Ish"lar saqlanadi. Aynan ularning ichidan eng keraklisini, muhimini, ilmiy muomalaga kiritilmaganini tanlab olishning o'zi bo'lmaydi. Buning uchun talaba o'z tadqiqot mavzusi va uning geografik hududi, xronologik davridan kelib chiqib, tegishli fondlarga murojaat qiladi. Bu masalada ilmiy rahbari tomonidan unga tadqiqot mavzusi va rejasidan kelib chiqib, ilmiy maslahatlar beradi. Arxiv xodimlari esa tegishli ma'lumotnomalar, "Ko'rsatkich" ("Путеводитель")dan foydalanib, mavzuga oid fondlarni topishga yo'llanma beradilar. Shundan keyin tadqiqotchi-talaba tegishli fondlar va ro'yxatlar asosida aniq nomi ko'rsatilgan "Ish"ning berilishini so'rab, belgilangan tartibda yozma buyurtma beradi.

Tadqiqotchi tomonidan buyurtma berishdan avval fonddagi "Ish"lar ro'yxatidan qaysilarini birinchi navbatda olish zarurligini aniqlab olish kerak. Chunki arxivda tadqiqotchilarga buyurtma asosida beriladigan "Ish"lar soni cheklangan (*odatda bir kunga 10- 15 ta "Ish" beriladi – mualliflar*). Shuning uchun tadqiqotchi dastlab, mavjud "Ish"lar ro'yxati bilan tanishib, ularning ichidan muhim ahamiyatga molik "Ish"larni ajratib olishi kerak. Xususan, buning uchun shartli ravishda "eng zarur", "zarur", "ko'rish kerak" nomlari bilan "Ish"lar ro'yxati yozib olinishi va keyin buyurtmani shu asosda berib borish kerak. Bu birinchidan, "eng zarur" deb hisoblangan "Ish"lar bilan dastlab tanishish imkoniyatini bersa, ikkinchidan, manbalarni tanlash, arxiv manbalari "dengiziga cho'kib ketmaslik"ka sharoit yaratadi. Bu yana har gal buyurtma uchun "Ko'rsatkich"ga murojaat qilavemaslikni, aksincha tadqiqotchiga "Ish"lar salmog'i kamaygan sari buyurtmani davom ettirish imkonini beradi. Tadqiqotchi-talabaning bunday tartibda ishlashining yana bir yaxshi tomoni shundaki, agar tadqiqotchi arxiv manbalari bilan tanishishi jarayonida tanaffus qilishiga to'g'ri kelsa, unda ma'lum bir vaqtidan keyin, yana qaysi "Ish"lar "zarur" deb topilganidan kelib chiqib, buyurtmani davom ettiraveradi.

Buyurtma asosida olingen "Ish"dan qanday foydalanish kerak? Buning uchun "Ish"da sizgacha qaysi tadqiqotchilar qachon, qaysi mavzu bo'yicha, qaysi varaqlardan ko'chirma olganlari (yozma, kseronusxa – mualliflar) to'g'risidagi varaqlar bilan tanishib chiqish kerak. Bu tadqiqotchiga ma'lum darajada "Ish"dagi materiallar bo'yicha tushuncha beradi. Xususan, bu "Ish" hali hech bir tadqiqotchi tomonidan o'rganiylagan ham bo'lishi mumkin. Bu esa o'z navbatida tadqiqotchini yanada qiziqtirishi kerak. Chunki shu "Ish"dan topilgan hujatlarni ilmiy muomalaga kiritish bilan tarix faniga ma'lum bir yangi hissa qo'shish ham mumkin bo'lar... Shuningdek, tadqiqotchi o'zidan avvalgi tadqiqotchilar o'rgangan hujatlarni ham ko'rib chiqishi kerak. Ammo bu tadqiqotchi o'zidan avvalgi tadqiqotchilar foydalangan varaqlargagini murojaat qilishi kerak degani emas. Aksincha, "Ish"dagi varaqlarni birma-bir, sinchkovlik bilan o'rganib chiqish maqsadga muvofiq va bu o'zidan avvalgi tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgan materiallarni ham o'rganishda katta ahamiyatga ega. Bunday hollarda tadqiqotchi o'z mavzusini yoritishda "**Ilk bor muomalaga kiritildi**", deb qayd eta oladi. Arxivdagagi hujatlarni yozib olish kerakmi yoki kseronusxa holatida olish maqsadga muvofiqmi? **Birinchidan**, hujjat ahamiyati

va hajmidan kelib chiqishi kerak. Agar hujjat juda ahamiyatlari va keyinchalik aynan nusxasi kerak bo`lsa, unda kseronusxa olish ma`qul. Ikkinchidan, arxiv hujjatlaridan olinadigan manbalar ko`p bo`lsa, vaqtini tejash maqsadida ham kseronusxa olish maqsadga muvofiq. Yana shuni qayd etish lozimki, arxiv manbalarini yozib olishga to`g`ri kelsa, unda manbalarni qisqacha, mazmuniga putur etkazmagan holda, so`zma-so`z kabi turlarda yozib olish mumkin. Arxiv manbalaridan yozib olingen ko`chirmalar "Umumiy daftar"ga yoki alohida-alohida varaqlarga qayd etilishi mumkin. "Umumiy daftar"ga yozib olishning afzalligi arxiv manbalari har joyda emas, bir to`plamda aks etadi. Arxiv manbalarini alohida-alohida varaqlarga ko`chirib yozilishi materiallarni bob va paragraflarga ajratishda, ma`lum bir tizim asosida yig`ishda, ularni qayta ishlab yozishda, ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot mavzusini yoritishda bir necha fondlarni va turli arxivlar fondi materiallarni yig`ishga, ularni qayta ishlashga to`g`ri kelishi mumkin. Bir necha fond va arxiv materiallari bilan tanishish, u yoki bu tarixiy dalil, voqeja va hodisalarni tasdiqlashi va yoki aksincha, inkor etishi, ma`lum bir aniqliklar kiritilishi hamda voqealar rivojini kuzatish holati bilan e'tiborga loyiq. Umuman olganda, odatda bitta fond va ro`yxatning o`zidangina tadqiqot uchun hujjatlar to`la-to`kis topilmaydi. Shuning uchun fondlar, ro`yxatlar, arxivlardan ko`chirma olayotganda tadqiqotchi tomonidan "Umumiy daftar"ga yoki varaqqa arxivning to`la kengaytirilgan nomi, fond, ro`yxat, ish nomeri va varaqlar orqa-oldi bilan qayd etilishi kerak. Tadqiqotchi u yoki bu arxiv manbalaridan yozma yoki kseronusxa olishdan avval, shu "Ish"da qaysi mavzularni o`z ichiga qamrab olingenini (*telegramma, bayonnomma, yozishma kabi – mualliflar*), qaysi davrni qamrab olgani qayd etib olsa, bu keyinchalik tadqiqotni yoritishda kerak bo`lib qolishi mumkin.

Arxiv manbalaridan foydalanishda qanday tartib va qoidalarga rioya qilish kerak? **Birinchidan**, boshqa tadqiqotchilar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan arxiv manbalarini "o`zlashtirish" mumkin emas. Agar o`sha arxiv manbalaridan sizning tadqiqotingizda foydalanilgan taqdirda, siz arxiv manbalariga emas, balki o`sha tadqiqotchining kitobi, ilmiy ishi, maqolasiga iqtibos berish kerak. **Ikkinchidan**, arxiv manbalaridan ko`chirmalar asliga to`la mos tushishi kerak.

Arxiv manbalaridan yozma ko`chirmalar qaysi shakllarda amalga oshirilishi mumkin? Yuqorida qayd etilganidek, arxiv manbalaridan ko`chirmalar turi ya`ni kseronusxa, so`zma-so`z, qisqacha, ma`no-mohiyati yo`qolmagan holdagi asosda amalga oshiriladi. Yozma ko`chirmalar tadqiqotchidan ma`lum bir qoidalarga rioya qilishini taqozo etadi. Agar arxiv hujjatidan ko`chirma to`la emas, balki qisqa ma`nosи asosida bo`lsa, unda tadqiqotchi hujjat mazmuniga putur etkazmagan holda masalaning mohiyatini matnda o`z so`zi, talqiniga binoan keltirishi mumkin bo`ladi va buni arxiv manbalariga iqtibos bilan asoslaydi. Hujjatdan ko`chirma "so`zma-so`z" ko`chirilsa qo`shtirnoq ichida beriladi va oxirida arxiv manbalariga iqtibos beriladi. Manbalarning bir qismini o`z so`zi, ma`lum ibora, so`zlar va gaplarini esa "so`zma-so`z" qo`shtirnoq ichida ham keltirish mumkin bo`ladi. O`z navbatida, bunday holatlarda ham, arxiv manbasiga iqtibos beriladi. Arxiv manbalaridagi hujjatdan bir qismi, biror

jumla, so'z tushirib qoldirlisa, unda uch nuqta qo'yiladi. Aksincha, ko'chirma keltirilayotganda biror so'z, jumla qo'shiladigan bo'lsa, qisqartmalarni kengaytirish zaruriyati tug'ilsa, unda bular kvadrat qavs [] ichiga olib yoziladi. Masalan, quyidagi misolda so'zma-so'z ko'chirmaning yuqorida qayd etilgan shakli o'z aksini topgan...

*Rossiyaning sanoati arzon Turkiston paxtasini olishdan manfaatdor edi. Turkiston paxtasi bo'lmasa, Rossiyaning markaziy hududlarida ham sovet hokimiyyati siyosatiga ishonch yo'qolishi mumkin edi. Shuning uchun Turkiston ASSR MIQ raisi V. D. Votintsev va Turkiston ASSR oziq-ovqat xalq komissari A. A. Kazakov 1918- yil 5 dekabrida Butunrossiya MIQiga, Rossiya oziq-ovqat xalq komissartligiga radiogramma yuborib, "o'lkada paxta etishtirish tugadi hisobi... Bunga o'tgan yildan hozirgacha davom etayotgan ocharchilik sabab bo'la oladi. Sovet hokimiyyati berk ko'chaga kirib qoldi... Bahorda paxta ekish amrimahol. Birdan-bir najot yo'li shuki, "Orenburg tiqini" ochilishi bilan bug'doy etishtiradigan guberniya va viloyatlardan dastlab, eng kamida, 1 mln. pud [1919-yil], aprel oyiga esa 10 mln. puddan kam bo'lмаган bug'doy Turkistonga yuborilishi kerak. Bunday zahira bo'lmasa [Turkistonda] paxta ekish bo'lmaydi. Chora ko'rishingizni so'raymiz. Aks holda, shunday xalqaro ahvolda Sovet Rossiysi aholisi va armiyasi kiyim-kechaksiz qoladi*², deb qayd etgan.

Shuni e'tiborda saqlash kerakki, talaba arxiv manbalarini yozma ko'chirishdan avval, fond, "Ish"ning nomini, ro'yxat sanasini, hujjatning sarlavhasi (bayonnomma, murojaatnomma, yozishma, telegramma, qaror, ko'rsatma xat, farmon – mualliflar), sanasini yozib qo'yadi. Shuningdek, hujjatdagi tamg'a, rezolyutsiya, belgi, muhr, imzo mumkin qadar o'z joyiga, rangli ruchka (qizil, yashil, qora - mualliflar) orqali yozib qo'yiladi. Bunday holatdagi ko'chirmada manbadagi rezolyutsiya, imzo, sana kabilar ko'zga tashlanib, muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Arxiv manbasini "so'zma-so'z" ko'chirgan talaba yuqorida keltirilgani kabi (3- mavzuga qarang) rangli ruchka – qalamda ushbu ko'chirmadagi matnga, so'zga, fikrga, sanaga o'z munosabatini shartli ravishda "muhim" (!), "juda muhim" (!!), "juda to'g'ri" (!!!), "muammoli" (?), tekshirish kerak" (??), "qo'shilmayman" (?!), "munozarali" (?!), "juda dolzarb, kerak" (NB) kabi belgi yozuvlarini qo'yish orqali bildirishi mumkin. Albatta, keltirilgan belgilardan tashqari har bir tadqiqotchining o'z shartli belgilari ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ko'chirmaga tadqiqotchi o'z belgilaridan tashqari munosabatini, fikr-mulohazasini, sharhlarini bildirishi mumkin. Ko'chirilgan hujjatning oxirida arxiv shifri ko'rsatiladi.

Arxiv manbalaridan foydalananayotgan tadqiqotchi-talaba mavjud hujjat qanday ahamiyatga molik ekanligini ajrata bilishi kerak. Chunki arxivda saqlanayotgan hamma hujjatlarga ham bir xil munosabatda bo'lish mumkin emas. Masalan, tegishli fondlardagi "Ish"lardan topilgan qaror, shartnoma bilan ularning loyiha varianti o'rtasida farq bo'lishi mumkin. Yana bayonnomma hujjati qisman mavjudmi yoki bu bayonnomma to'la-to'kis o'z aksini topganmi? Mavjud statistik ma'lumotlar, jadvallar tarixiy haqiqatga qanchalik yaqin? Telegrammalar, ko'rsatma xatlar, tarixiy voqealar, sanalar, mavjud dalillar orqali

² O'zR MDA, P- 17 fond, 1-ro'yxat, 192- ish, 34- varaq va orqasi.

o'z tasdig'ini topishi mumkinmi? Rasmiy maktublar va murojaatlар, norasmiy xatlar, shikoyatlar, murojaatlар tarixiy voqealar tizimida o'z tasdig'ini topganmi? Bularning hammasini tadqiqotchi-talaba tarix tarozisiga sola olishi, qiyosiy tahlil qila bilishi kerak va shulardan kelib chiqib hujjatlar o'zining tarixiy talqiniga ega bo'lmoq'i lozim. Arxiv manbalari qatorida foydalanayotgan hujjatlar ishonchliligi, haqiqat ekanligini tekshirish va shu asosda xulosa chiqarish tarixchi-tadqiqotchining burchi hisoblanadi. Demak, manbalar bilan ishslashda eng asosiy vazifalardan biri hujjatlarning haqiqiyligiga va ularning xolisona talqiniga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Arxivdagи fondlar qatorida "Xotiralar"ni o'z ichiga olgan "Ish"lar ham mavjud. Albatta, ma'lum tarixiy jarayonni, xususan "inqilobiy voqeа"larni, istiqloqlchilik harakati ("bosmachilik")ni, "madaniy inqilob" davrini, kollektivlashtirish va qulqlashtirishni, ikkinchi jahon urushi yillarini, "sotsialistik musobaqaga" asoslangan "jasorat"larni, turg'unlik yillaridagi "qahramonlik"larni o'z ichiga olgan xotiralar ham tarix sahnasida "o'z joyini" topishga haqli... Bu "Xotiralar" odatda, turli ishtirokchi, taniqli odamlardan voqealar bo'layotganda emas, balki ko'p yillar o'tgandan keyin yozilganligi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, voqealarga baho berishda o'sha shaxsning o'z munosabati, talqini va ma'lum bir davrdagi mafkuraviy holatlarning ta'siri ham bo'ladi. Boz ustiga "Xotiralar" ayrim noaniqliklardan ham xoli bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham "Xotiralar"ga tarixiy manba sifatida yondashilayotganda ehtiyojkorlik bilan qarash foydadan xoli bo'lmaydi. Lekin shunga qaramasdan, "Xotiralar" ham ijobjiy va salbiy talqinlarni o'zida aks ettirgan manba sifatida ahamiyatga ega.

Arxiv manbalaridan foydalanayotganda hujjatlarda ovullar, qishloqlar, tumanlar, shaharlar, viloyatlar, respublikalar nomi qanday bo'lsa shundayligicha, ya'ni tadqiqotchi yashayotgan davrdagi nomga moslashtirmay ko'rsatilishi kerak. Tarixiy hujjatlarda atamalar qisqartma holda berilgan bo'lsa, izoh orqali yoki kvadrat qavs ichida kengaytirib berilishi kerak. Shuningdek, hujjatlar eski o'zbek tilida yoki o'sha davr, mintaqaga shevasida berilgan bo'lsa, hujjat asli bo'yicha keltirilib, keyin tadqiqotchining tegishli izohi orqali tushuntirish berilishi mumkin. Masalan, arxiv hujjatida o'z davriga oid voqealar bayonida Skobelev shahri eslab o'tilsa, unda qavs ichida hozirgi Farg'ona deyish bilan cheklanish mumkin. Xuddi shunday holat Poltoratsk shahriga tegishli bo'lsa, qavs ichida hozirgi Ashxabod deb izoh berish etarli bo'ladi. Agar hujjatda TurkMIQ deb keltirilgan bo'lsa, Turk[iston] MIQ deb keltirilishi mumkin.

Tarixchi-tadqiqotchi arxiv manbalaridan foydalanish jarayonida ma'lum bir qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Xususan, eski manbalar uzuq-yuluq bo'lishi, yozuvlarni o'qish qiyinligi va boshqalar. Buning uchun talaba, qaysi davr arxiv manbalariga murojaat qilayotganidan kelib chiqib, yozuvlarni kattalashtirib ko'rsatadigan maxsus asbob (lupa)lardan ham foydalanishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, talaba arxiv manbalarini o'rganish jarayonida "tayyor" materialni topa olishi qiyin. Shunday hollar bo'ladiki, tadqiqotchi-talaba ixtiyoridagi arxiv manbalarini "o'rganish-titkilash" kunlarni, oylarni va hatto yillami o'z ichiga oladi. Bunday ilmiy "azob"dan afsuslanmasdan, huzur qila bilish hissiyotini shakllantirish har bir tadqiqotchi uchun muhim ahamiyatga ega. Ilmni igna bilan quduq qazishga qiyoslaganlari bejiz emas. Tarixchi-tadqiqotchi sabr-toqatl bo'lishi, doimo izlanishda davom etishi lozim.

Umuman olganda, tadqiqotchi tomonidan mavzuni yoritishda arxiv manbalaridan foydalanish ham sharaflı va shu bilan birga mas’uliyatlı, mashaqqatlı ish hisoblanadi. Arxiv manbalariga murojaat qilgan tadqiqotchitalabidan ilmiy mushohada, mantiqiy fikrflash, qiyosiy tahlil, chet tilini (*hech bo’lmasa rus tilini – mualliflar*) bilish, eski o’zbek yozuvini o’qiy va tushuna olish, katta sabr-toqatga ega bo’lish kabi xislatlardan kutib qolnadi.

Davriy matbuot materiallaridan foydalanish. Tadqiqot olib borishda davriy matbuot ya’ni gazeta va jurnallar muhim ahamiyat kasb etadi. Davriy matbuot materiallaridan ilmiy adabiyotlar, e’lon qilingan manbalar qatori tarix bo’yicha olib boriladigan tadqiqotlarda ham ko’p foydalaniadi. Davriy matbuot materiallari o’z xususiyatiga ko’ra tarix sohasidagi tadqiqotchilar uchun ishonchli, boy va ayni paytda mashaqqatli mehnat talab qiladigan manbalardan biri hisoblanadi. Chunki davriy matbuotda yoritilgan materiallarning o’z vaqtida gazeta va jurnallarda bosilib chiqishi juda qisqa vaqtini o’z ichiga olgan bo’ladi. Bu esa o’sha tarixiy materialni “silliqlash”ga, tahrir qilishga ulgurib-ulgurmasdan, obrazli qilib aytganda, tarixiy material “tandirdan uzilgan nondek, sovibsovimasdan” o’quvchi ixtiyoriga havola etilgan. Bu materiallar davriy matbuotda muhim davlat hujjatlari, farmon va qarorlar, davlat arboblari nutqlari, turli anjuman, qurultoydagি nutqlar, ko’rilgan asosiy masalalar, mamlakat va jahondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvol, fan, maorif, xotin-qizlar, madaniyat sohasidagi yutuq va kamchiliklarni o’z ichiga olgan maqolalar hamda axborotlarni o’z ichiga olgan bo’ladi.

Tarix sohasidagi ilmiy ishlarda davriy matbuot materiallardan foydalanish uchun talaba tanlagan mavzu, davriy chegara, geografik hudud katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Agar tadqiqot mavzusi o’tkanining XIX asr o’rtalarigacha bo’lgan davrini qamrab olgan bo’lsa, unda davriy matbuotga murojaat qilish degan masala kun tartibiga qo’ymaydi. Chunki Turkistonda dastlabki gazeta 1867- yili dunyo yuzini ko’rgan bo’lsa, ilk jurnallar (*rus va o’zbek tillarida - mualliflar*) XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan chop etila boshlangan. Demak, mavzu va davr tadqiqotda davriy matbuotdan foydalanishga imkon bermaydi. Agar mavzu O’zbekiston va Xitoy xalqlari o’tasidagi munosabatlarning XX asr 80-90- yillarini o’z ichiga olgan bo’lsa, unda geografik hudud davriy matbuotning O’zbekistonda chop etiladigan qismini o’rganishga imkon yaratgan holda, Xitoyda chop etilgan davriy matbuot materiallarini o’rganishda ma’lum bir qiyinchiliklar tug’diradi.

Tadqiqotda davriy matbuot materiallaridan foydalanish samaradorligi mavzu va uning davriy chegarasiga ko’proq bog’liq hisoblanadi. Davriy matbuot materiallari, ayniqsa XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragiga oid Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarida chiqqan matbuot manbalari xilma-xilligi, u yoki bu voqealarga har xil, ba’zan ziddiyatlari qarashlari bilan ajralib turadi. Bunday holat sabablaridan biri davriy matbuotni turli tillarda, yozuvda (eski o’zbek yozushi – arab imlosida – mualliflar) va shuningdek, rus tilida chop etilgan bo’lsa, ikkinchisi voqe-hodisalarga bol’sheviklar hamda mahalliy ziyyolilar nuqtai nazarlaridan baho berilishida deb hisoblash mumkin. Ayni paytda O’ta Osiyodagi voqe-hodisalarga “markaziy” gazeta –jurnallardagi munosabat ham

o`lkada chop etilayotgan mahalliy tillar va rus tilidagi gazeta-jurnallar materiallaridan farq qilishi mumkin.

Tadqiqotchi-talaba tegishli tadqiqot mavzusini yoritishga kirishar ekan, ilmiy ishi uchun olayotgan davriy matbuot materiallari qaysi ruhda, qanday g`oyaviy kurashlar ketayotgan paytda yozilganini aniq tasavvur qila olishi va mavjud ma`lumotlarga shundan kelib chiqib tanqidiy yondasha bilishi kerak.

Sovet hokimiyati yillarida O`rta Osiyo respublikalarida, sobiq SSSRdagি kabi, juda ko`plab gazeta va jurnallar, jurnal tipidagi nashrlar chiqarilgan. Ammo sovet hokimiyati yillarida chop etilgan davriy matbuot materiallari qaysi yillarga oidligiga qarab yondashish, gazeta va jurnallar asosan qaysi yo`nalish bo`yicha masalani yoritishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yanini aniqlab olish kerak. O`zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin chop etilayotgan gazeta-jurnallardagi materiallar ham tadqiqotchi tomonidan sinchkovlik bilan o`rganilishi, tahlil qilinishi kerak. Chunki istiqlol yillarida O`zbekistonda chiqayotgan gazeta va jurnallar turi juda ko`p. Ammo ana shu ko`p sonli davriy matbuot materiallarining hammasidan ham tarix bo`yicha tadqiqotda "oxirgi haqiqiy manba" tariqasida foydalanish mumkin emas. Tarix bo`yicha tadqiqot uchun zarur hollarda, xususan mavzu yoritishidan kelib chiqib, mahalliy, ya`ni tuman, shahar, viloyat miqyosidagi gazeta-jurnallardagi manbalarga murojaat qilish mumkin. Ammo mumkin qadar, tarix bo`yicha tadqiqot uchun markaziy gazeta-jurnallar materiallariiga asos sifatida yondashish maqsadga muvofiq bo`ladi. Masalan: "Turkistonda ta`lim tizimi: muammo va yechimlar (XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragi)" mavzusidagi tadqiqotni bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi v. b. tarzida yoritish uchun arxiv manbalaridan tashqari davriy matbuot materiallariha ham murojaat qilishga to`g`ri keladi. Xususan, "Turkiston viloyatining gazeti", "Туркестанские ведомости", "Taraqqiy", "Ulug` Turkiston", "Ishtirokiyun", "Oyina", "Известия ТуркЦИК" v.b. gazeta-jurnallar.

Agar mavzu "O`zbekiston va Rossiya munosabatlari (1991- 2000 yy.)" bo`lsa, unda "Xalq so`zi", "O`zbekiston ovozi" ("Sovet O`zbekistoni"), "Qishloq haqiqati", "Turkiston" ("Yosh leninchi"), "O`zbekiston adabiyoti va san`ati", "Golos Uzbekistana" ("Pravda Vostoka"), "Izvestiya", "Komsomol'skaya pravda", "Ijtimoiy fan", "Ogonyok" kabi gazeta-jurnallardan foydalanish maqsadga muvofiq. E`tibor berilsa, ayrim yuqorida qayd etilgan gazetalarning mustaqillik yillardagi yangi nomi hamda sovet hokimiyati yillarida "markaz"dan chiqqan gazetalar eski nomi keltirilgan. Demak, tadqiqotda davriy matbuot materiallarini qiyosiy tahlil qilish, voqealarni ziddiyatli va muvaffaqiyatli rivojini o`rganish imkoniyati bo`ladi.

Davriy matbuot materiallaridan tadqiqotda foydalanish ham o`ziga xos xususiyatlarga ega. Tadqiqotchi davriy matbuot materiallaridan foydalanishda nimalarga e`tibor qaratmog`i kerak? Gazeta nashri, qaysi yildan nashr etilayotgani, qaysi organga tegishli ekanligi e`tibordan chetda qolmasligi kerak. Tadqiqotchi-talaba yana gazeta materiallari mavzusi, ularni joylashtirilishi, davriy ruknlar ostidagi materiallar, maxsus bo`limlarga e`tibor berishi lozim. Shunda ko`p sonli gazetalar va ularning xilma-xilligiga qaramasdan, tadqiqotga oid materialni topish ma`lum darajada tezlashadi. Jurnallardagi materiallar

mundarijalarda hamda odatda jurnalning so'nggi sonida maqolalar ro'yxatida e'lon qilinadi. Shundan kelib chiqib, tadqiqot uchun kerakli materiallarni topib olish anchagini osonlashadi.

Davriy matbuot materiallaridan tadqiqotga ko'chirma olayotganda nimalarga e'tibor berish kerak? **Birinchidan**, material bosh maqolami yoki kichkina bir maqola, axborot sifatida e'lon qilinganmi? **Ikkinchidan**, maqolada ko'tarilgan masalalar muammoli xarakterga egami? **Mavzuni** yoritishda qanday ahamiyat kasb etadi? **Uchinchidan**, maqola muallifi kim va bu material ilmiy ahamiyatga egami? Shuni alohida qayd etish kerakki, ayrim hollarda, davriy matbuotdagi maqolalarda mualliflar nomi yozilmagan yoki maqola mualliflari ismi sharifining bosh harflari yoxud taxalluslari qayd etilgan xolos. Yuqorida qayd etilgan omillarga e'tibor berish ilmiy tadqiqot mazmunini yoritishda asqotib qolishi mumkin. Shuningdek, davriy matbuotdagi rasmiy hujjatlar, ya'ni Prezident Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari O'zbekiston Respublikasi Oly Majlis Qonunchilik palatasi materiallari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari, qarorlari, stenografik hisobotlar, anjuman, qurultoy materiallari, bayonnomalar va boshqa hujjatlar ham muhim ahamiyatga ega. Davriy matbuot materiallari yana shunisi bilan ahamiyatga egaki, matbuotda e'lon qilingan materiallarni arxiv manbalaridan topish imkoniyati yo'q bo'lishi mumkin yoki mavjud materiallar hali arxivda o'z "joyini egallahsha" ulgurmaganligidadir. Bu esa o'z navbatida davriy matbuot materiallarining tadqiqotlar uchun muhim manbagi aylanishiga asos bo'ladi.

Tadqiqotda muzey manbalari. Ilmiy tadqiqotlarda yozma manbalar, arxiv hujjatlari, kutubxonalaridagi qo'lyozmalar, qimmatli adabiyotlar qatori muzey materiallari – o'lakashunoslik manbalari ham muhim ahamiyatga ega. Chunki muzeylarda, ayniqsa o'lka tarixini aks ettiruvchi ko'rgazma va fondlarda, yurtimiz tarixi bilan bog'liq, ilmiy tadqiqotga asos bo'lib xizmat qiladigan moddiy-madaniy yodgorliklar, etnografik materiallar, toponomika materiallari, tarixiy-jangovar ("inqilobiy") yodgorliklar, tarixiy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, davriy matbuot materiallari mavjud. Muzey materiallarini nafaqat respublika, viloyat miqyosida, balki ayrim yo'nashishlarda, xususan mahalliy yoki tarix, adabiyot, ta'lim, harbiy-qurolli kuchlar, meditsina, fan-teknika, madaniyat, qishloq xo'jaligi, memorial, muktab-muzey kabi turlari ham bo'ladi.

Mavzudan kelib chiqib, tadqiqotchi muzey materiallaridan ham foydalaniishi mumkin. Muzeylarda saqlanadigan moddiy-madaniy yodgorliklar, yozma manbalar, fotohujjatlar tegishli bo'limlarda, ularning jamg'armalarida, ko'rgazmalarida o'z aksini topgan. Tarixchi-tadqiqotchi uchun nafaqat markaziy muzeylardagi manbalar, balki joylardagi, mahalliy miqyosdagi muzey materiallari ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shunday hollar ham bo'ladiki, ko'pincha markaziy muzeylardagi tarixiy manbalar tadqiqotchilar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan, tegishli tarzda hujjatlari to'plam va tarixiy tadqiqotlarda o'z aksini topishga ulgurgan bo'ladi. Aksincha, ba'zi hollarda, mahalliy miqyosdagi muzey materiallarini ilmiy muomalaga kiritishga tadqiqotchilar "qo'lli" etib bormagan bo'ladi. Ilmiy tadqiqotchilar uchun manbalardan foydalananish qimmati, odatda ularni markaziy yoki mahalliy miqyosdagi muzey materiallarining qaysi biridan foydalanganligiga qarab baholanmaydi.

Foydalanayotgan manbaclar qiymati uning asosli va tarixiy ahamiyatidan kelib chiqib belgilanadi.

Muzeydagisi moddiy-madaniy yodgorliklar, xususan odam va hayvonlarni qoyatoshga o'yib solingen suratlari, qadimgi qabrlarga qo'yilgan yodgorlik toshlari va ulardagi yozuvlar, qo'lyozma manbalari, toshbosma manbalari, qal'a, qishloq, devor, qasr, shahar va manzilgohlarning qoldiqlari, yozma hujjatlar, varaqalar, murojaatnomalar, hunarmandchilik asboblari, kiyim-kechaklar, uyro'zg'or buyumlari, qurol-yarog'lar, zeb-ziynat ashyolari, qadimgi irrigatsiya in-shoot (*ariq, kanal, suv ombori, suv ayirg'ich – mualliflar*)larining qoldiqlari, qadimi me'morchilik yodgorliklari (*masjid, madrasa, xonaqoh – mualliflar*), numizmatikaga oid materiallar, toponomikaga taalluqli materiallar, turli davrlarga oid fotohujjatlar, tarixiy mavzuga doir davriy matbuot materiallari va chop etilgan kitoblar asosiy manba hisoblanadi.

Bibliografiya tuzish. Tadqiqotchi uchun bibliografiya ustida ishslash jarayoni mavzu tanlanayotgan davrdayoq boshlanadi. Talaba tanlagan tadqiqot mavzusi qay darajada adabiyot va manbalar bilan ta'minlanganligini aniqlashga kirishadi. Bu jarayon uzoq davom etadi. Chunki tadqiqot yoritishdan avval boshlangan bu ish keyinchalik, ya'ni mavzuni yoritish jarayonida ham davom etaveradi. Hech bir tadqiqotchi tanlagan mavzusini yoritishga kirishmasdan avval hamma adabiyot va manbalarni yig'ib bo'ldim deya olmaydi. Mavzuni yoritishga kirishgan tadqiqotchi – talaba o'z ilmiy ishining har bir bo'g'ini, paragrafida yana qo'shimcha adabiyotlar, manbalar ustida ishslash zarurligiga ishonchi komil bo'lib boradi. Agar tadqiqotchi o'z mavzusini to'la yoritgunga qadar ham manba va adabiyotlar ustida ish olib boraveradi, deyilsa mubolag'a bo`lmaydi.

O'zbekistonda sobiq ittifoq davrida va mustaqillik yillarda juda ko'p miqdorda adabiyot, shu jumladan tarixga oid adabiyotlar nashr etilgan hamda bu jarayon hozirgacha qadar davom etmoqda. Bu jarayon ayniqsa mustaqillik yillarda yanada rivojlanib, yurtimiz tarixini va undagi "oq dog'lar"ni xalqqa etkazish ishtiyogi bilan kuchayib bormoqda. Milliy qadriyatlarimizni tiklash, yurtimiz tarixini yanada chuqurroq o'rganish, Vatanimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan, xalqimiz sha'ni, himoyasida tura olgan, fan, adabiyot, san'at sohasidagi o'z iste'dodi bilan yurtimiz obro'sini dunyoga ko'z-ko'z qila olgan allomalarimiz faoliyatini chuqurroq o'rganish va bundan kerakli saboqlar chiqarish uchun tarixga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Tarixni tilga kiritishga intiluvchilar nafaqat tarixchilar, balki yozuvchilar, faylasuflar va boshqa ziyorolar tomonidan ham baholi qudrat amalga oshirilmoqda. Mana shunday chop etilgan ko'plab kitoblar ichidan eng kerakligini, ya'ni o'z ilmiy asosiga, manbalarga suyangan holda yozilganlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tarixiy voqealar va hodisalarini, dalillarni manbaviy asossiz, ilmiylikdan yiroq, ehtirosiga botib talqin qilish orqali yozilgan "asarlar" o'qilishi oson, ammo umri qisqa bo'ladi. Shuning uchun ham tadqiqotchi – talaba tarixga oid har bir adabiyot bilan tanishar ekan, shu asar qanday manbalarga, adabiyotlarga asoslanib yozilgani, tarixni talqin qilayotgan muallifning o'zi qanchalik tarixga "yaqinligini" hisobga olish kerak.

Mavzu bo'yicha tadqiqotga qo'l urgan talaba uchun eng muhim yordamchi kutubxona (axborot-resurs markazlari) hisoblanadi. Albatta, har qanday tarixga oid tadqiqotda talaba kutubxonadan, muzey, arxiv, manbalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Kutubxonalarda adabiyotlarning (sistematik) va alifbo kataloglari mavjud. Kataloglar bilan ishlashda qiyinchiliklar bo'lsa kutubxona xodimidan maslahat so'rash mumkin. Bibliografiya tuzish uzoq va og'ir jarayon hisoblanadi. Qanday manbalar bibliografiya tuzishda yordam berishi mumkin? Buning uchun tadqiqotchi qaysi davr bilan bog'liq mavzuni yoritishi kerakligi, mavzuga oid adabiyotlar sobiq ittifoq davrida ko'p chop etilganmi yoki istiqlol zamonidami va shuningdek, mavzuga oid adabiyotlar qaysi tillarda ko'prok chop etilgan bo'lishi mumkin, degan savollarga taxminiy javob topa olishi kerak. Chunki sobiq ittifoq davriga oid adabiyotlarning aksariyati rus tilida nashr etilgan. Hatto o'zbek tarixchilarining aksariyat ilmiy ishlari ham rus tilida chop etilgan. Bunday holda sovet davrida har hafta chiqqan "Knijnaya letopis"ga murojaat kilish kerak. Undan nashr etilgan siyosiy adabiyotlar, ilmiy ommabop kitoblar, risolalar, ilmiy tadqiqotlar, darslik va uslubiy qo'llanmalar, entsiklopediyalar, ma'lumotnomalar va badiiy adabiyotlar to'g'risida ma'lumot olish mumkin. Shuningdek, har hafta chiqadigan "Летопись журнальных статей"да qaysi jurnallarda qanday maqolalar rus tilida chop etilgani to'g'risida, "Летопись газетных статей"да ham har hafta davomida markaziy (ittifoq miqyosidagi – mualliflar) hamda ittifoqdosh respublikalarda rus tilidagi chiqadigan gazetalarda chop etilgan maqolalar, hujjatlari materiallarni, har oyda rus tilida chop etiladigan "Летопись рецензий"dan esa taqrizlar, tanqidiy maqolalar o'rinn olib, unda sobiq ittifoqda rus tilida chop etilgan asarlar tahlili bo'yicha materiallari beriladi. Yuqorida qayd etilgan "Letopis..."lar tadqiqotchilaba uchun ma'lum bir qiyinchiliklar tug'diradi, chunki bunda ma'lum bir vaqtida chop etilgan adabiyotlarga hisobga olingan xolos. Ammo har hafta chop etiladigan "Книжное обозрение" gazetasidan "Yangi: haftaning dastlabki (сигнальный) nusxalari" rukni ostida markaziy va mahalliy nashriyotlarda hafta davomida chop etilgan kitoblar ro'yxati o'rinn olgan. "Книжная летопись" materiallari asosida "Ежегодник СССР" to'plami tuzilgan.

Mavzuga oid bibliografiya tuzishda chop etilgan kitoblardagi foydalangan adabiyotlar ro'yxati, ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan iqtiboslar, maqolalar, ilmiy to'plamlardagi adabiyotlar ham muhim ahamiyatga ega.

Bibliografiya tuzishda O'zbekiston Respublikasi davlat Kitob palatasi tomonidan chiqarilgan qo'llanmalar ham rol' o'ynaydi. Ushbu qo'llanmalarda respublikada chiqqan adabiyotlar va maqolalar ko'rsatilgan. Shuningdek, "O'zbekiston SSR kitoblarining yilnomasi" ko'rsatkichining ko'plab jildlarida sovet hokimiyyati yillarida chop eilgan kitoblar nomi qayd etilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston tarixiga oid maxsus bibliografik qo'llanmalar ham mavjud. Xususan, tarixning barcha asosiy muammolari yuzasidan tavsiya etiladigan tarixiy adabiyotlarning bibliografik ro'yxatlari e'lon qilingan. Bularni kutubxonalarning bibliografiya bo'limlariga murojaat qilib topish mumkin.

Tadqiqotchilar uchun Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan O'zbekistonning qadimgi zamondan boshlab, XX asr 60-yillari oxirigacha bo'lgan tarixi bo'yicha "История Узбекистана. Ч. I, II. Ука-

затель Советской литературы” (*tegishli qismlari* 1967, 1969 yy. *Toshkentda nashr etilgan – mualliflar*) kitobi muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, 1953 yildan boshlab, O’zbekistonda chop etilgan adabiyotlarning yillik bibliografik ko’rsatkichlari e’lon qilina boshlagan. Shuningdek, “O’zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnalida O’zbekiston tarixi bo’yicha chiqqan adabiyotlarning yillik ro’yxati e’lon qilib boriladi.

Bibliografiya tuzayotgan tadqiqotchi-talaba O’zbekistonda chiqayotgan “O’zbekiston tarixi”, “Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari” kabi jurnallarni ham ko’rib chiqsa foydadan xoli bo’lmaydi. Chunki yuqorida nomi qayd etilgan jurnallardagi ham ilmiy maqolalar Vatanimiz, jahon tarixiga oid tegishli mavzularni yoritishda yordam berishi mumkin. Bundan tashqari tadqiqotchi-talaba, o’z mavzusiga oid bibliografiya tuzishda nashriyotlarning yillik rejali bo’yicha chop etilgan risolalar ro’yxati bilan kitob do’konlari orqali ham tanishishi mumkin.

Umuman olganda, yuqorida qayd etib o’tilgan asosiy bibliografiya tadqiqotchi-talabaga tanlagan mavzusi bo’yicha adabiyotlar ro’yxatini tuzib, ularni tadqiqot rejasiga moslab, ma’lum tizimga ajratib o’rganib chiqishda katta yordam beradi. Ayni paytda, adabiyotlar va manbalarni o’rganishni mustaqillik davrida e’lon qilingan tarixiy asarlar va manbalardan boshlash maqsadga muvofiq. Chunki mustaqillik yillarda chop etilgan ilmiy adabiyotlar o’zining mafkuraviy tazyiqlardan xoli yozilgani, tarixni yoritishga xolisona yondashilgani bilan ajralib turadi va shundan kelib chiqqan holda tarixiy voqeа va hodisalarni, dalillarni to’g’ri baholashga undaydi. O’z navbatida boshqa davrlarda chop etilgan ilmiy adabiyotlar ham o’z qadr-qimmatiga ega. Ammo bu adabiyotlarga ma’lum darajada tanqidiy yondashish foydadan xoli bo’lmaydi.

Bibliografiyanı tuzish kutubxonalardagi katologlar shaklida bo’lgani maqsadga muvofiq. Bu shakl shunisi bilan ahamiyatga molikki, kartochkadan amaliy va nazariy yo’nalishini klassifikatsiya qilish, turli bo’g’inlarda foydalanish va hatto ilmiy ishning kirish, boblari, xulosasida ham foydalanish mumkin bo’ladi.

Tadqiqotlarda kutubxona fondidan foydalanish. Har bir tadqiqotchi uchun kutubxona katta ahamiyatga ega. Har bir ziyoli uchun kitobni sevish va undan unumli foydalanish, ozuqa olish – hayotining ajralmas qismi bo’lib qolishi kerak. Ilmiy tadqiqot bilan shug’ullanuvchilar uchun kutubxona materiallaridan foydalanish olib borilayotgan ilmiy ishning muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqot bilan shug’ullanuvchi tarixchilar ixtiyorida Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasi va uning filiallari, viloyat, shahar, tumanlardagi kutubxonalar, oliy va o’ta maxsus ta’lim muassasalaridagi axborot-resurs markazlari mavjud bo’lib, ulardan belgilangan tartib-qoidalar asosida foydalanish mumkin.

O’zbekiston Respublikasida kutubxonalarning ommaviy, ilmiy va maxsus turi mavjud. Ilmiy va maxsus kutubxonalar fan, iqtisodiyot va madaniyatning turli tarmoqlaridagi tadqiqotchilarga, mutaxassis olimlarga xizmat ko’rsatadi. Tarixchi-tadqiqotchilar uchun Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi fondidagi kitoblar, dissertatsiyalar, avtoreferatlar va shu kutubxona

qoshidagi "Nodir kitoblar va qo'lyozmalar", "Xorijiy adabiyotlar" bo'limlarida saqlanayotgan tarixiy materiallar muhim ahamiyatga ega. Albatta, dastlabki tadqiqotlar asosan oly i'zuvlari ARMiari bilan uzviy bog'liq hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlarda kutubxonadagi kitoblar fondini to'g'ri tashkil qilinligi, xususan kitoblarni ro'yxatga olish, joylashtirish, saqlash va kitobxon-tadqiqotchiga, mumkin qadar tezroq, etkazishdagi holatlар ahamiyatga molikdir. Tadqiqotchiga kutubxonada xizmat ko'rsatishning bugungi kunda ikki shakl mavjud: abonoment va qiroatxona. Ayrim kutubxonalarda adabiyotlar tanlash va buyurtma berish jarayonida maxsus maslahatchi (konsul'tant)lar ham yordam berishi mumkin. Ammo har bir tadqiqotchi kutubxonada ilmiy tadqiqotiga zarur bo'lgan adabiyotlar, dissertatsiyalar, avtoreferatlar, davriy matbuot materiallarni o'zi izlab topishi va eng zarur deb hisoblaganlariga buyurtma berishi kerak. Buning uchun tadqiqotchilar kutubxona tizimi bilan yaxshi tanish bo'lislari lozim.

Kutubxona katalogi fonddagi mavjud kitoblar, hujjatlarning tarkibi va mazmunini ochib beruvchi bibliografik yozuvlar ro'yxatini tashkil etadi. Kataloglar kutubxona fondidagi adabiyotlar to'g'risida hamda uni tanlashda yordam ko'rsatishga qaratilgan bo'ladi. Kutubxona katalogi tadqiqotchilar uchun kartochkali, komp'yuter yozuvlari shakllarida va elektron disklar yoki kitob holida saqlanadi. Kutubxona katalogining kartochkali shaklida adabiyotlar muallifining familiyasi, ismi-sharifi, kitobning nomi, kitob haqida tushuncha, nashriyot nomi, chiqqan yili, qayerda nashr etilgani, necha betni o'z ichiga olishi qayd etiladi. Tadqiqotchi kitob nomi va bu kitob haqida tushuncha, orqali ma'lum darajada, ilmiy izlanish mavzusini yoritishda foydalanishi mumkin yoki mumkin emasligidan kelib chiqib buyurtma beradi. **Komp'yuter yozushi va elektron disklar** shaklidan ham shu asnode foydalanish mumkin.

Tadqiqotchilar uchun kutubxonadagi materiallarni o'z ilmiy tadqiqotida foydalanish tartibi quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. Alfavitli katalog. Qachonki, kartochkalar mualliflar familiyasi (ismi-sharifi), kitoblar sarlavhasi (*kitob muallifi ko'rsatilmagan bo'lsa - mualliflar*), mualliflar jamoasi qayd etilmagan, ammo kitob sarlavhasi bo'lsa, unda alfavit bo'yicha ketma-ketlikda keltiriladi. Tadqiqotchi alfavit katalogi orqali o'zi istayotgan kitob borligi yoki yo'qligini, u yoki bu muallifga taalluqli qaysi kitoblar kutubxonada mavjudligi, ayrim kitoblar (to'plamlar)ning qaysi jildlari, nashrlari kutubxona fondida saqlanayotganini aniqlaydilar. O'z navbatida alfavit katalogi quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) o'zbek tili (krill alifbosi)dagi adabiyotlar;
- b) o'zbek tili (lotin alifbosi)dagi adabiyotlar;
- v) rus tilidagi adabiyotlar;
- g) xorijiy adabiyotlar (alohida tarzda ingliz, nemis, frantsuz, arab, turk, xitoy v. b.).

2. Tizim (sistema)li katalog bo'yicha tadqiqotchi uchun muallif nomalum bo'lib, uning mavzusi aniq bo'lsa, qidirish osonlashadi. Tizimli katalogda asarlar mazmuniga qarab fan tarmoqlari bo'yicha guruhlanadi: unda kitoblar mantiqiy bo'linish tartibida ya'ni ilmiy fanlar, bo'limlar, bo'linmalar va h. k.

bo'yicha joylashtiriladi. Bu tizim orqali tadqiqotchi o'zini qiziqtirgan adabiyotlarni mavzu bo'yicha toplashga, saralashga muvaffaq bo'ladi.

3. Predmetli katalogda tadqiqotchi voqeа-hodisalar, tushunchalarni sohalar bo'yicha emas, balki alfavit tartibida joylashtirilishi, materiallarning alohida guruhlanishi orqali izlaydi. Tadqiqotchi predmetli katalogdan foydalanib, dolzarb, tarixiy muammolarni tezda yoritishga va ulardan foydalanishga imkon topadi.

4. Davriy matbuot katalogi orqali tadqiqotchi mavzu xronologik davriga oid gazeta-jurnallar, ularning nomi, chiqqan yillari, qaysi organ nashri ekanligi, qaysi yil, oy, kunlardagi sonlari mavjudligi bo'yicha, ayrim maqolalar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Ilmiy tadqiqot yuzasidan kutubxonadagi ilmiy adabiyotlar, avtoreferat, dissertatsiya, davriy matbuot materiallariga murojaat qilish tadqiqotchi dunyo-qarashi, ilmiy mushohadasini kengaytiradi. Mavjud adabiyotlarga, tarixiy tadqiqotlarga sinchkovlik bilan yondashishga undaydi. Kutubxona materiallaridan foydalananayotgan tadqiqotchi mavjud kitoblar, qo'lyozmalar, dissertatsiyalar, gazeta-jurnallar nafaqat o'ziga, bundan keyin ham ilmiy tadqiqotchilar uchun zarur ekanligini unutmasliklari, yirtmasliklari, ularga chizmasliklari darkor. Zarur hollarda kutubxona fondiga tegishli manbalardan, belgilangan tartibda, kseronusxa, fotonusxa yoki ko'chirma olish mumkin.

Tayanch so'zlar

Tarixiy manba, yozma manbalar, moddiy yodgorliklar, etnografik materiallar, lingvistik yodgorliklar, kinofotohujjatlar, paleografiya, arxeografiya, tarixiy geografiya, genealogiya, numizmatika, xronologiya, metrologiya, arxiv, O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxiv, "Ko'rsatkich" ("Путеводитель"), arxiv fondlari, shartli belgilar.

Nazorat savollari

1. Tadqiqotda tarixiy manbalarning shartli nechta guruhi mavjud?
2. Manbalarni qiyosiy-tarixiy tahlil qilish deganda nimani tushunasiz?
3. Tadqiqotda yordamchi tarix fanlari qanday o'ringa ega?
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxiv fondlari haqida nimalami bilasiz?
5. Tadqiqotda arxiv materiallarining ahamiyati va o'rni haqida gapirib bering?
6. Arxiv manbalarini "tilga kiritish" jarayoni va usullari haqida qanday ma'lumotga egasiz?
7. Davriy matbuot materiallari tadqiqotda qanday ahamiyat kasb etadi?
8. Kutubxona fondidan foydalanish haqida qanday tushunchaga egasiz?

9- MAVZU: TADQIQOTLARDA ILMIY APPARATNING RASMIYLASHTIRILISHI

REJA

1. Manba va materiallardan iqtibos keltirish tartiblari.
2. Tadqiqotni ilmiy rasmiyiashtirish (jadval, iiyustratsiya va ilova).
3. Foydalangan manba va adabiyotlar ro`yxatini to`g`ri tuzish tartibi.

Manba va materiallardan iqtibos keltirish tartiblari. Ilmiy tadqiqotlarda keltiriladigan iqtiboslarda *Qarang; Kengroq ma'lumot olish uchun qarang* kabi izohlardan ham foydalaniлади. Tadqiqotchi tomonidan qaysi hollarda *Qarang: deb, keyin asar muallifi ismi sharifining bosh harflari (kitobning nomi – mualliflar)* keltiriladi? Agar tadqiqotchi tomonidan u yoki bu adabiyotdan keltirilayotgan sitata arxiv manbalariga tayangan holda yoki o`sha adabiyot muallifining hech qanday iqtibosga asoslanmagan kitob matnidagi mulohazasi bo`lsa, unda to`g`ridan-to`g`ri o`sha muallifga yoki tegishli adabiyotga iqtibos berish mumkin. Ammo u yoki bu adabiyot, muallif asaridan keltirilayotgan sitata qanday shaklda (“so`zma-so`z”, “qisqartma so`zma-so`z”, “mazmun” – mualliflar) bo`lishidan qat`iy nazar, boshqa bir adabiyotdan, muallif asaridan keltirilgan taqdirda *Qarang deb, keyin adabiyot yoki muallif familiyasi, ismi-sharifi bosh harfi orqali asarni keltiriladi*³. Ta`kidlash joizki, *Qarang* orqali keltiriladigan iqtibos izohi nafaqat kitoblarga, balki gazeta-jurnallarga nisbatan ham qo`llanishi mumkin. Nega shunday? Chunki tadqiqotningizda keltirilayotgan sitata siz foydalananayotgan adabiyot, muallif asarida o`z iqtibosiga ega. Boshqacharoq aytganda, siz sitatadan yana sitata keltiriyapsiz. Aniqrog`i o`sha adabiyotdan bevosita emas, balki bilvosita foydalanyapsiz. Masalan, *Turkistonda yirik va mayda shoxli hayvonlar soni qisqarib ketib, 1920 yilda 6880 ming boshni tashkil qilardi, xolos. Bu 1913 yilga nisbatan 3/2 qismga qisqarib ketganidan dalolat berardi. Agar Ettisuv viloyatida 1917 yili 7568511 bosh hayvon bo`lgan bo`lsa, bu ko`rsatkich 1920 yilga kelganda 2850187 boshga tushib qolgan edi. Bunday qisqarish Kaspiyorti viloyatida umumiy sonning yarmidan ko`prog`ini tashkil qilardi*⁴ deb keltirilgan iqtibosda *Qarang* deb yoziladi. Negaki, X. Sh. Inoyatovning o`zi keltirgan kitobda yuqoridagi fikr-mulohaza, tarixiy dalillarni boshqa bir muallifning asaridan olgan. Ayni paytda o`sha asarni ko`rmagan tadqiqotchi *Qarang* deb, X. Sh. Inoyatov kitobiga iqtibos berishi kerak bo`ladi. Iqtibosda *Qarang* deb arxiv manbalariga ham tayanish mumkin. Masalan, Turkiston aholisiga qilingan murojaatda “Ocharchilik kulfati shunchalik chuqur ildiz otganki, davlat tomonidan ko`rsatilayotgan ochlarga yordam choralar ni faqat qismangina muammo yechimini yumshatishi mumkin. Shuning uchun ham davlat ... ocharchilik hududi aholisini vaqtincha ... oziq-ovqat masalasi bo`yicha

³ *Qarang:* Летопись борьбы и свершений. Книга I, 1883- 1937. – Казань: Таткнигоиздат, 1985. – С. 188- 189.

⁴ *Qarang:* Иноятов X. III. Народы Средней Азии в борьбе против интервентов и внутренней контрреволюции. –М.: Мысль, 1984. – С. 297.

ancha-muncha imkoniyatga ega bo`lgan Ukraina, Sibir' va Turkistonga ko`chirish lozim deb hisoblaydi. ... Turkistonga kelayotganlarni qardoshlarcha ochiq chehra bilan kutib olish burchimiz ... ularga o`z uyimiz, jamoat va davlat xo`jaliklari hamda tashkilotlari tomonidan oziq-ovqat, kiyim-kechak, yashashga joy ajratish kerak. Turkiston MIQ va XKK kelayotgan ochlarga yordam masalasida ... hamma imkoniyat va mablag`larni ishga solishni talab qiladi. Turkiston xalqlari bu buyuk falokatni bartaraf etishda hamdardlik bildiribgina qolmasdan, balki ... yordam uchun moddiy va pul mablag`larini ham ayamaydilar ...⁵ deyiladi, deb tugatilgan sitata arxiv ma`lumotiga tegishli hisoblanadi. TSitata so`zma-so`z keltirilganligi uchun dastlab bevosita olingan manbara iqtibos beriladi. Aynan shu murojaat O`zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining R- 17 fondi, 1- ro`yxatidagi boshqa ish-jamg`armalarda va R- 25 fondda ham mavjudligi sababli Qarang tegishli tarzda, asoslangan holda keltiriladi (*arxivlarga iqtiboslar qoidasiga qarang – mualliflar*).

Kengroq ma`lumot olish uchun qarang iborasi qaysi hollarda qo`llaniladi? Masalan, tadqiqotda: "Mustamlakachilar asosiy e`tiborni o`lka boyliklarini to`la-to`kis Rossiya manfaatlari uchun ishlatsishga qaratdilar. Turkistonda Rossiyaning boshqaruv tuzilmalari joriy etilib⁶, bu ham to`la-to`kis metropoliya manfaatlarga xizmat qilgan" degan fikrni matn ichida bayon etilishi jarayonida, keltirilgan iqtibos orqali tegishli izohga ega bo`ladi. Shunga o`xshash hollardagi iqtibos, ya`ni *Kengroq ma`lumot uchun qarang arxiv manbalariga, alohida kitoblarga, hujjatlar to`plamiga nisbatan ham ishlatalishi mumkin*⁷.

Tadqiqotlarda keltiriladigan iqtiboslarda dastlab muallif, so`ngra tegishli kitob yoki asar nomi, agar kitob boshqa tildan tarjima qilingan bo`lsa, asarning kirish qismi, izohlari tarjimon tomonidan amalga oshirilgan bo`lsa, unda bu to`g`rida ma`lumot keltiriladi. Shuningdek, asarning chop etilgan shahri, nashriyot nomi, chop etilgan yili va bet(lar)i qayd etiladi⁸.

Tadqiqotchi tomonidan u yoki bu muallif asariga, alohida chop etilgan kitobga o`z ilmiy ishida uch martadan ortiq murojaat qilsa yoki iqtibos keltirsса, unda muallif familiyasi va ismi sharifining bosh harflari keltirilib, keyin Ko`rsatilgan kitob yoki kitobning qisqartma nomini keltirish bilan cheklanib, ya`ni kitob-asarning nomi, qachon, qaysi shahar va nashriyotda chop etilganini ko`rsatmay, faqat qaysi bet(lar)ga taalluqli ekani qayd etilsa etarli bo`ladi. Bunday tartib, nafaqat muallifi aniq adabiyotlarga, balki boshqa adabiyotlarga, xususan bir necha kishi tomonidan yozilgan asarlarga, hujjatlar to`plamiga

⁵ O`zR MDA, P- 17 fond, 1- ro`yxat, 287- ish, 63- 65- varaqlar; Qarang: 926- ish, 57- 58- varaqlar; 1074- ish, 250- 251- varaqlar; P- 25 fond, 1- ro`yxat, 418- ish, 15- varaq va orqasi.

⁶ Kengroq ma`lumot uchun qarang: Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002.

⁷ Kengroq ma`lumot olish uchun qarang: ЦГИА РБ, ф.Р- 99, оп.1, д.7, л.л.159, 169- 170; O`zR MDA, P- 25 fond, 1-ro`yxat, 48- ish, 404- varaq; 665-ish, 78- 80- varaqlar; P- 31 fond, 1- ro`yxat, 525- ish, 6, 9- 11, 16- 17, 39-varaqlar.

⁸ Олимий С. М. Бухоро – Туркистон бешиги (форс-тожик тилидан X. X. Тураев таржимаси). – Бухоро, 2004. – Б. 17.

nisbatan ham qo'llanishi mumkin⁹. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, tadqiqotda yoki bu muallifning bitta kitobiga emas, balki ikki va undan ortiq kitobidan foydalanilsa, unda muallif familiyasi va ismi sharifi bosh harfidan keyin Ko'rsatilgan kitob degan variantdan foydalanish mumkin bo'lmaydi. Bunday hollarda muallif familiyasi va ismi sharifi bosh harfini keltirib, kitobning nomini keltirishda qisqartma variantdan foydalanish mumkin¹⁰. Yana shuni qayd etish lozimki, tadqiqotchi o'z ilmiy ishida Ko'rsatilgan kitob va shuningdek, Qisqartma variantlarga murojaat qilmay, iqtiboslarda kitoblarni to'la-to'kis keltiraverishi ham mumkin.

Tadqiqotchi tomonidan ko'p jildlik kitoblarga, to'plam, gazeta, jurnallardagi maqolalarga keltiriladigan iqtiboslar tartib-qoidasiga rioya qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar ko'p jildlik kitobdan iqtibos keltirilsa, aniq qaysi jildga taalluqli ekanligi iqtibosda o'z aksini topishi kerak¹¹. Ayrim hollarda tadqiqotchi tomonidan ilmiy ishda u yoki bu ko'p jildli kitoblar mavjudligi, ya'ni ma'lum bir davrda chop etilganligi eslatib o'tiladi. Bunday hollarda, agar boshqa jildlar sarlavhasi ham birinchi jilddagidek bir xil nomda bo'lsa, unda birinchi jild nomini keltirib, keyingi jild qachon va qayerda chop etilganini qayd etilsa etarli hisoblanadi¹². O'z navbatida jildlar nomlanishi bir-biridan farq qilgan taqdirda, tegishli jildlar alohida nomi bilan keltiriladi.

Har xil ilmiy to'plamlardan keltiriladigan iqtiboslar shakli keltirilayotgan namuna shaklida bo'ladi. Iqtibosdagi - // belgisi to'plamga taalluqli ekanligini bildiradi¹³.

Gazeta va jurnallardan keltirilayotgan iqtiboslar ham o'ziga xos shaklda amalga oshiriladi. Ayrim hollarda, agar tadqiqot mavzusini yoritishda zarur deb topilsa, gazetadagi maqola muallifi va shu maqola sarlavhasi ham iqtibosda

⁹ *Misol tariqasida keltirishimiz mumkin:* 1) Ражабов К. Бухорога кизил армия боскини ва унга қарши кураш. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 54. *Uch martadan ortiq eslash - iqtibos berishga to'g'ri kelsa, unda:* Ражабов К. Курсатилган китоб. – Б. 93. *deya qayd etish mumkin.* Ayrim hollarda Ражабов К. Бухорога кизил армия боскини ... – Б. 98. *holatidagi qisqartma variantda ham keltirish mumkin.* 2) Иностранная военная интервенция и гражданская война в Средней Азии и Казахстане. Том I (май 1918 г. – сентябрь 1919 г.) – Алма-ата: АН Казахской ССР, 1963. – С. 53. *Keyingi eslash iqtiboslarida:* Иностранная военная интервенция и гражданской войны в Средней Азии ... – С. 37.

¹⁰ *Misol tariqasida:* 1) Рыскулов Т. Революция и коренное население Туркестана (сборник главнейших статей, докладов, речей и тезисов). Часть I, 1917-1918., *Keyingi eslash - iqtibosda:* Рыскулов Т. Революция и коренное население Туркестана ... – С.43. *Aynan shu muallifning boshqa kitobidan foydalanilganda:* 2) Рыскулов Т. Р. Собрания сочинений в трех томах. Том I. Алматы: Казахстан, 1997. – С. 127- 128. *Keyingi eslash - iqtibosda:* Рыскулов Т.Р. Собрания сочинений ... Т.1. – С. 132.

¹¹ Инсториальная военная интервенция и гражданская война в Средней Азии и Казахстане. Сборник документов. Том II, - Алма-Ата: Наука, 1964. – С. 514.

¹² Тоган З. В. Воспоминания (борьба народов Туркестана и других восточных мусульман-турков за национальное бытие и сохранение культуры). Книга I, II. – Уфа: Китап, 1998.

¹³ Абдуллаев Р. Туркестан в 1917 году: национальное движение и военный вопрос // Марказий Осиё XX аср бошида: ислоҳотлар, янтиланиш, тараккиёт ва мустакиллик учун кураш. – Т.: Маънавият, 2001. – Б. 86– 87.

keltirilishi mumkin. Bunday shakldagi iqtibos odatda, XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragida chop etilgan gazeta-jurnallardagi maqola va xabarlar, ma'lumotlarga nisbatan ko'proq qo'llaniladi. Shuningdek, tadqiqotchi mavzuni yoritishda xorijiy tillardagi gazeta-jurnallar qaysi til va imloda nashr etilgan bo'lsa, aynan o'sha holda keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi¹⁴. Ammo aksariyat hollarda gazetaning nomi, chop etilgan sanasi (kun, oy, yil) keltiriladi¹⁵.

Tarixiy nuqtai nazardan keltirilayotgan iqtibos yangi tarixga bog'liq gazeta-jurnallarga, xususan, "Xalq so'zi", "Pravda Vostoka", "Narodnoe slovo", "Hurriyat", "Milliy tiklanish", "Jamiyat va boshqaruv", "Fan va turmush", "O'zbekiston tarixi", "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" kabi va shuningdek, gazeta-jurnallar nomi ma'lum bir hududga taalluqligi nomidan bilinib turadigan gazeta-jurnallar: "Туркестанские ведомости", "Туркестанская правда", "Народное хозяйство Туркестана", "Восток", "Туркестанская кооперация" kabi matbuot nashrlari hech qanday izohsiz keltirilaverishi mumkin. Ammo tadqiqot jarayonida mavzuni yoritish bilan bog'liq, boshqa hududlarda chop etilgan gazeta-jurnallar iqtibosda keltirilganda, qavs ichida qaysi hududga taalluqli ekanligi qayd etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday tartib o'z paytida o'lkamizda chop etilgan, ammo uzoq yillar o'tishi bilan nomi o'zgargan yoki bugungi kunda chop etilmayotgan nashrlarga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Shuni qayd etib o'tish kerakki, tadqiqotchingilmiy ishi qaysi tilda yozilayotgan bo'lsa, gazeta va jurnallarga qavs ichidagi tushuncha berish ham shu tilda beriladi. Shuningdek, keltirilayotgan iqtibosda, o'sha paytda mazkur gazeta-jurnal qaysi shahar (tuman, respublika)da chop etilgan bo'lsa, o'sha ma'muriy hudud o'z paytida qanday nomlangan bo'lsa, o'zgartirmasdan keltiriladi. Albatta, tadqiqotchi o'zi tomonidan berilgan izohga mazkur ma'muriy hudud hozirgi qaysi ma'muriy birlikka kirishi eslatib o'tishi ham mumkin¹⁶.

Gazeta va jurnallarga iqtibos berishda chop etilgan hududni qavs ichida ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ayrim gazetalar, ayniqsa sovet hokimiyatining dastlabki yillarda, bir xil nomda chop etilgan. Masalan, "Izvestiya" va "Pravda" nomi bilan turli hududlarda gazeta-jurnallar chop etilgan¹⁷. Ushbu gazeta-jurnallar bir xil nomda chop etilgan bo'lsada, aslida turli hududlarda va mazmun jihatidan ham har xil hisoblanadi. Agar tadqiqotchi ingliz, nemis, frantsuz, arab, fors v. b. tillardagi gazeta-jurnallardan foydalanib, iqtibosda keltiradigan bo'lsa va ular qaysi til va imlo asosida chop etilgan bo'lsa, aynan shu holda keltirish kerak bo'ladi. Gazeta va jurnallardagi maqola - // belgisi orqali qayd etiladi.

¹⁴ Федорова Г. "Всё на борьбу с голодом!" // Южный Урал (Оренбург), 16 июня 1989 г.; Идиятуллин Д. «Мама не пускала нас на улицу – боялись что съедят» // Гасырлар авазы – Эпоха веков (татар ва рус тилларида). – Казань, №5, 1995. – С. 228–229.

¹⁵ Туркестанские ведомости, 17 октября 1917 г.

¹⁶ Пролетарий (Самарканд), Наша газета (Тошкент), Набат революции (Полтавацк), Новый путь (Тошкент), Вечерняя газета (Самара), Коммуна (Самара), Заря (Симбирск), Красная Фергана (Скобелев).

¹⁷ Известия (ВЦИК), Известия (ТуркЦИК), Известия (ТатЦИК), Известия (БашЦИК), Известия (Тошкент), Известия (Бухоро), Известия (Наманган), Известия (Самара), Известия (журнал Самгубсоюза), Правда (Москва), Правда (Верный). в. б.

Tadqiqotchi tomonidan keltirilayotgan iqtiboslar orasida muntazam – davriy to’plamlar ham uchrab turadi. Bunday hollarda to’plamlarning kitob va seriya raqamlari ham qayd etiladi¹⁸.

Tadqiqotchi o’z ilmiy ishida avtoreferat va dissertatsiyalarga iqtibos keltirish tartib qoidalarini bilib, tegishli tarzda rasmiylashtirishi kerak. Iqtibosda tadqiqotchi, albatta, avtoreferat yoki dissertatsiya ekanligini qayd etishi kerak. Agar tadqiqotchi avtoreferat yoki dissertatsiyadan sitata keltirsaga, unda qaysi betlardan ekanligi qayd etiladi. Tadqiqotchi o’z ilmiy ishida sitata keltirmay, u yoki bu avtoreferat, dissertatsiya tegishli mavzuda borligini qayd etsa, unda tegishli tarzda avtoreferat yoki dissertatsiyaning umumiy hajmi qancha ekanligini ko’rsatish bilan cheklanadi¹⁹.

Tadqiqot matnida keltirilgan sitata qaysi betda tugasa, aynan o’sha betga iqtibos 1, 2, 3 holatidagi ketma-ketlik asosida qayd etiladi. Iqtiboslari 1, 2, 3 ketma-ketlik keyingi betdagagi iqtiboslarda 4, 5, 6, 7 tarzida davom ettirilishi yoki har bir bet uchun alohida qayd etilishi ham mumkin.

Qayd etganimizdek, ilmiy tadqiqot jarayonida tarixchilar uchun arxiv manbalari muhim ahamiyatga ega Arxiv manbalariga keltiriladigan iqtibos ham o’zining ma’lum bir tartib – qoidalarga rivoja qilishni taqozo etadi. Ilmiy ishda bir marta yoki ilk bor u yoki bu arxivdan ma’lumot keltirilsa, unda tegishli arxiv nomlanishi to’la-to’kis yoziladi²⁰. Agar arxiv manbalari iqtibosda uch martadan ortiq keltirilsa, unda arxiv nomlarini qisqartirib ham berish mumkin bo’ladi²¹.

Tadqiqotchi ilmiy ishida iqtiboslar yoki izohlar orqali aynan matn ichida, o’sha betda va ayrim hollarda: tarixiy atamalar, o’lchov birliklari, geografik hududlar, shaxslar nomi, lug’atlar, tarixiy qisqartmalarni alohida turlarga bo’lib, tadqiqot oxiridagi ilovada yoki kitobning so’ngida keltirishi mumkin. Masalan, geografik hududlarga oid ko’rsatkichlar:

A

Andijon – 119, 131, 192
Axsikent – 62, 78, 139, 144

B

Balx – 12, 37, 148
Buxoro – 17, 24

Demak, tadqiqot-kitobning 119, 131, 192 betlarida Andijon bilan bog’liq materiallar mavjud. Albatta, bularning barchasi alifbo shaklida keltiriladi.

¹⁸ Исокбоев А. А. Татарларнинг ижтимоий-сиёсий фаолиятига доир // Тарих тилга кирганда... (Даврий тўплам). -№1. – Наманган, 2007. – Б. 51- 54.

¹⁹ Абдуллаев У. С. Традиционные и современные межэтнические связи в сельских местностях Ферганской долины: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Т., 1991. – 25 с; Насриддинов К. Н. XIX аср охири – XX аср 80-йилларида ўзбекларнинг анъанавий дағн маросимлари (Қашқадарё вилоятининг маълумотлари асосида): Тарих фан. номз. ... дисс. – Т., 1995. – 179 б.

²⁰ O’zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivsi (O’zR MDA), P-fond, 1- ro’yxat, 108- ish. 93- varaq: Государственный архив Российской Федерации (ГАРФ), ф. 1318, оп. 1, д. 185, л. 44; Центр документаций новейшей истории Оренбургской области (ЦДНИ ОО), ф. Р-1, оп. 1, д. 219, л.л. 25-27.

²¹ O’zR MDA, РГАСПИ, ИПДРТ, NDVA v. b.

Tadqiqotni ilmiy rasmiylashtirish (jadval, illyustratsiya va ilova). Ilmiy tadqiqot jarayonida jadvallardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Zero, tarixiy tadqiqotlarda ma'lum bir jadvallardan joyida va unumli foydalanish olib borilgan ilmiy ish qimmatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, tarixiy tadqiqotlarda ma'lum bir yillar oralig'idagi turli dalillar va ularning rivoji yoki tanazzulini ko'z oldiga keltirishda, qiyosiy tahlilda katta ahamiyat kasb etadi. Ammo ayni paytda ilmiy tadqiqot matnini tushunarli bayon etish imkoniyati bo'lsa, ko'rgazma tariqasida ko'rsatish shart bo'lmasa, unda jadvaldan foydalanish shart emas. Har holda tarixga oid ilmiy tadqiqotlarda jadvallardan foydalanish, aniq bir zaruriyatdan kelib chiqishi kerak. Tarixga oid ilmiy tadqiqotlarda jadvallar tuzish qoidalari qanday bo'ladi?

Tadqiqotlarda jadvallar gorizontal va vertikal tartibda bo'lishi mumkin. Har bir jadval, mumkin qadar, qisqa sarlavhaga va ketma-ketlik nomeriga ega bo'lishi kerak. Jadval sarlavhasi grafalardagi sarlavhachalarda qaytarilmasligi kerak. Shuningdek, jadval va uning sarlavhasi katta harflar bilan yozilgani holda, grafalardagi sarlavhachalar kichkina harflarda qayd etilishi kerak. Jadvaldag'i bosh sarlavha va grafalardagi (jadvallarda tik chiziqlar orasidagi turli ma'lumotlar yoziladigan ustun. oraliq) sarlavhachalar mumkin qadar aniq va oddiy-tushunarli bo'lishi kerak. Ayni paytda jadvallarda qisqartmalardan foydalanmaslik tavsiya etiladi.

Har bir jadval o'z nomeri va nomiga ega bo'ladi. Hamma jadvallar arab raqamida belgilanadi va jadvalning tepasida, o'ng burchakka, sarlavhadan tepega, katta harfda yoziladi. Jadval nomeri (son, raqam), bob nomeri va jadval raqamini aks ettirishi kerak. Masalan, **1.3. Jadval**. Bu birinchi bob, uchinchi jadval degan ma'noni bildiradi.

Agar ilmiy tadqiqotda atigi bitta jadval keltiriladigan bo'lsa, unda **jadval so'zi** yozilmaydi va nomeri ham qayd etilmaydi. Ammo ayni paytda sarlavha yoziladi. Agar jadval boshqa varaq (bet)da davom etsa, u holda jadval so'zi va nomeri ko'rsatilib, "davomi" yoki "oxiri", deya qayd etib, so'ngra dalillar keltiriladi. Masalan, **1.2. Jadval davomi (oxiri)**. Ayni paytda tadqiqotda keltirilayotgan jadval manbasi, xususan, qaysi maqola, to'plam, monografiya yoki arxivdan ekanligi tegishli tarzda iqtibosda keltirilishi shart. Grafa jadvallarida bo'sh joy qoldirish mumkin emas. Agar ma'lumot yo'q bo'lsa, unda - belgisi yoki "yo'q" so'zi qo'llanadi.

Ilmiy tadqiqotlarda illyustratsiya ya'ni chizma, sxema, fotografiyalar ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Agar harbiy yurishlar, qo'zg'onolnlar, shartnomalar, ilmiy tadqiqot matni bayonida fikr-mulohazalar, ilmiy mushihadalar, tarixiy talqinlar, nazariyalar, g'oyalalar ma'lum bir chizma, sxema, fotografiyalar orqali o'z aksini, isbotini topsa, unda illyustratsiyalarni ham jadvaldag'i nomer kabi, arab raqami ketma-ketligida tegishli izoh bilan keltirish mumkin. Ayniqsa, ilmiy tadqiqotlarda keltiriladigan o'tmishga oid va hozirgi zamon bilan bog'liq suratlar nafaqat illyustratsiya, balki ilmiy hujjat tariqasida ham keltirilishi mumkin. Bu bilan ilmiy tadqiqot qimmati yanada oshadi.

Jadval va illyustratsiyalar berishga to'g'ri kelsa, matndan keyin qavs ichida tegishli izoh, masalan **1.2. Jadval deb yozib, o'sha betning o'zida emas, joylashtirish qulay bo'lgan keyingi betlarda ham keltirish mumkin.**

Tarixga oid ilmiy tadqiqotlarda **Ilova**ning ham o`ziga xos o`rnii bor. Ma`lumki, har qanday holatda ilmiy tadqiqot (*bitiruv malakaviy ish, dissertatsiya – mualliflar*) o`zining belgilangan hajmiga ega. Tadqiqotchi belgilangan hajm doirasida ilmiy tadqiqotini tugatishi kerak. Agar ilmiy tadqiqot mavzusi va materiallarni hajmi juda ko`p bo`lsa, belgilangan tartib-qoidadan chiqib ketmaslik, ma`lum darajada qulaylik bo`lishi uchun ayrim jadval, illyustratsiyalarni ilovaga o`tkazish mumkin. **Birinchidan**, ilova ilmiy tadqiqot hajmiga (*foydalangan manba va adabiyotlar ham – mualliflar*) kirmaydi. **Ikkinchidan**, tadqiqotchi ilovalarni to`laqonli keltirish asosida ilmiy ishi qiymatini tushirmay taqdim etish imkoniyatiga ega bo`ladi. Ilova ham ma`lum bir tartib qoidalari asosida keltiriladi:

- ilova (*hajmi-soni cheklanmagan – mualliflar*) ilmiy tadqiqot oxirida foydalangan manba va adabiyotlardan keyin yoki alohida, kitob shaklida, jidda keltiriladi;
- har bir ilova tartib raqami bo`yicha, alohida varaqda beriladi;
- ilmiy tadqiqotda keltirilgan ilovalar arab raqamida qayd etilib, varaqning o`ng burchagida ilova deb ko`rsatiladi;
- ilova alohida kitob shaklida, jidda keltirilsa, ilmiy tadqiqot (*bitiruv malakaviy ishi, dissertatsiya nomi - mualliflar*) mavzusi keltiriladi va alohida “Ilova” so`zi qayd etiladi.

1.1. Jadval

jadval nomi (sarlavha)			
Boshi			
Yon tomon (satrlar sarlavhasi uchun grafa)		Grafalar	

Grafalarning sarlavhalari

Grafalarning sarlavhachalari

Satrlar (gonzontal qatorlar)

Ilmiy tadqiqotlarda ilova keltirish zaruriyatdan kelib chiqadi. Ilova tadqiqot uchun yordamchi materiallarni, ya`ni matn ichida to`la-to`kis keltirish imkoniyati yo`q, ammo ayni paytda mavzuni yoritishda katta ahamiyatga molik daliliy hujjatlar nusxalari, guvohnomalar, statistik ma`lumotlar, jadvallar, rasmlar, chizmalar, xaritalar, diagrammalar, turli xil tasdiqlangan ma`lumotnomalarni, arxeologik va etnografik ob`ektlar nomini keltirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ilovadan yana tadqiqotda qayd etilgan tarixiy shaxslar tarjimai holi, faoliyati bilan bog`liq qo`shimcha materiallarni, geografik ko`rsatkichlar ham o`rin olishi mumkin. Umuman olganda, ilovada keltirilgan materiallarni tadqiqotning yanada mazmunli, ilmiy mohiyatini to`laqonli yoritilishiga xizmat qilishi kerak bo`ladi.

Foydalaniłgan manba va adabiyotlar ro'yxatini to'g'ri tuzish tartibi.
Tadqiqot oxirida, aniqrog'i xulosadan keyin foydalangan manba va adabiyotlar ro'yxati alohida betdan boshlab keltiriladi. Ilmiy izlanish oxirida keltiriladigan "Foydalaniłgan manba va adabiyotlar ro'yxati"ni keltirishda amal qilinadigan tartib-qoidalarga riox qilish har qanday tadqiqotchi uchun muhim ahamiyatiga ega. Bu aslida bibliografik qo'llanma tartibida bo'lib, keltiriladigan manba va adabiyotlar ro'yxatini ma'lum bir tizim asosida rasmiylashtirishni taqazo etadi. Bu qanday tartibda amalga oshirilishi kerak? Ushbu ro'yxatga qaysi manbalar va adabiyotlar qanday yo'sinda kiritilishi kerak, degan savolga javob berishga harakat qilamiz.

Tadqiqotchi tomonidan tuziladigan ro'yxatga ilmiy tadqiqotda u yoki bu darajada foydalaniłgan manbalar, ilmiy va boshqa adabiyotlar, avtoreferat va dissertatsiyalar, maqola va tezislar, xotiralar – qaysiki ilmiy ishning kirish, asosiy qism, izoh, xulosa va ilovalarda keltirilgan adabiyot va manbalar kiritiladi. Ro'yxatda kettirilish tartibiga kelsak, bu ma'lum bir guruhlarga bo'lish – klassifikatsiya belgilari asosida amalga oshiriladi.

Asosiy vazifalardan biri shundan iboratki, manbaga nimani qo'shish lozim va adabiyotlar deganda nimani tushunish kerak? Bu savolga javob juda oddiy tuyulsada, aslida bir-birini alishtirib qo'yish hollari ham uchrab turadi. Chunki manba va adabiyotlarni shunchaki ajratib qo'yish hamma vaqt ham to'g'ri bo'lavermaydi. Tadqlqot mavzusi va uning maqsad, vazifalaridan kelib chiqqan holda manba va adabiyotlar turi, xususiyatiga aniqlik kiritiladi. Shunday holatlar bo'lishi mumkin, bir xil manba va adabiyotlar yig'indisi ikki xil tadqiqot mavzusida turicha keltirilishi mumkin. Masalan, birinchi mavzuda adabiyot sifatida belgilangani, ikkinchi mavzuda manba tariqasida keltirilishi mumkin. Jumladan, Asqarov A. O'zbek xalqi etnik tarixi (o'quv qo'llanma). –T.: Universitet, 2007. – 608 b. Bu kitob akademik A. Asqarov ilmiy ijodi bo'yicha tarixshunoslikka oid ilmiy tadqiqot uchun manba bo'lib xizmat qilsa, o'zbek xalqining shakllanishi va boshqa mavzulardagi tadqiqotlar uchun adabiyot vazifasini o'taydi.

Arxiv materiallari (*hali ilmiy muomalaga kiritilmaganlari – mualliflar*)ning hammasini ham to'la-to'kis manbalar qatoriga qo'shib bo'lmaydi. Hatto arxiv manbalari ham tadqiqot mavzusidan kelib chiqib ayrim hollarda adabiyotlar qatoriga kiritilishi mumkin. Masalan, arxivda saqlanayotgan B. Ahmedovning O'zbekiston tarxi va tarixshunosligiga oid tayyorgarlik materiallari, xususan chop etilmagan tahsilli materiallar, tarixiy adabiyotlarga tavsiflar, berilgan baholar, talqinlar, izohlaridan ham tadqiqotda foydalananish mumkin. Ammo bu materiallarni manbalar qatoriga qo'shib bo'lmaydi. Agar yuqorida tarixshunoslikka oid materiallar aniq bir mavzuni o'z ichiga olgan bo'lsa, unda tarixshunoslikka oid manba tariqasida foydalananish mumkin.

Tarixga oid ilmiy tadqiqotlarda foydalangan manba va adabiyotlar ro'yxatini tuzish quyidagi tartibga riox qilish asosida bo'ladi:

Rasmiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, farmon va qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qarorlari, qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи qarorlari, farmoyishlari.

Hujjatlar to`plami (alifbo asosida)

2. Tarixiy manba va materiallar asosida chop etilgan hujjatlar to`plami, statistik ma'lumotnomalar.

Arxiv hujjatlari

3. Arxivlar (dastlab markaziy, keyin mahalliy) va fondlar nomlanishi ko`rsatiladi, ammo ro`yxat va ish nomeri qayd etilmaydi. Arxiv nomlari kengaytirilgan holda va qavs ichida qisqartma varianti beriladi.

Davriy matbuot (alifbo asosida)

4. Gazeta va jurnallar, byulletenlar (tadqiqot davriga oidlari)ning yillari qayd etiladi. Dastlab markaziy, keyin esa mahalliy gazeta va jurnallar keltiriladi. Agar tadqiqot tilidan farq qiluvchi gazeta-jurnallar bo`lsa, albatta buni ko`satib, ta`kidlab o`tiladi.

- a) gazetalar
- b) jurnallar
- v) byulletenlar

Adabiyotlar (alifbo asosida)

5. Tadqiqotda foydalangan adabiyotlar, maqolalar qayd etiladi. Agar adabiyot va maqolalar ichida boshqa tillardagisi ko`p bo`lsa, alohida qayd etiladi.

- a) boshqird tilida
- b) tatar tilida
- v) xorijiy tillarda

Dissertatsiya va avtoreferatlar (alifbo asosida)

6. Foydalananligan dissertatsiya va avtoreferatlar qayd etiladi.

Kollektiv mualliflarning asarları, to`plamlar (alifbo asosida)

7. Bir necha mualliflar tomonidan yozilgan asarlar, to`plamlardagi ilmiy maqolalar.

Xotiralar (alifbo asosida)

8. Xotiralar to`plami, xotiralarning mualliflari alfavit tarzida.

Ilmiy tadqiqot oxirida keltiriladigan foydalangan manba va adabiyotlar ro`yxatida quyidagicha rasmiylashtirish zarur hisoblanadi:

1. Rasmiy manbalarda Prezident familiyasi to`la, ismi-sharifining bosh harflari bilan asar nomi (ko`p jildidan o`rin olgan bo`lsa, tegishli jild soni, sarlavhasi va keyin nutqi, maqolasi, ma`ruzasi) qayd etiladi. Qabul qilingan farmon, qaror, farmoyish, qonunlar nomi, sanasi, qayerda nashr etilganligi – manbasi.

2. Hujjatlar to`plami; 3. Adabiyotlar; 4. Dissertatsiya va avtoreferatlar; 5. Kollektiv mualliflar asarları, to`plamlar; 6. Xotiralar alfavit asosida yoritilib, ya`ni kitob va monografiyalarda:

- muallif(lar)ning familiyasi, ismi-sharifining bosh harf(lar)i;
- kitobning nomlanishi;
- nashr etilgan joy (shahar);
- nashriyot nomi;
- nashr etilgan yil;
- bet(lar)i.

Agar muallif ikki nafar bo`lsa, ularning familiyasi to`la va ismi-sharifining bosh harflari keltiriladi, uch va undan ortiq bo`lgan taqdirda, birinchi muallif familiyasi va ismi-sharifining bosh harfi keltirilib "va boshqalar" jumlasini keltirish kifoya qiladi. Kitob-monografiyanı nomi qo'shtirnoq ichida keltirilmaydi. Kitob ikki tilda (bitta kitobning o'zida) berilgan bo`lsa, qavs ichida buni qaysi tillarda ekanligi qayd etiladi.

To`plam, gazeta va jurnallardagi maqola va tezislarda:

- muallif(lar)ning familiyasi, ismi-sharifining bosh harf(lar)i;
- maqola (tezis)ning nomi;
- to`plam (gazeta, jurnal)ning nomi;
- nashr joyi (shahar);
- chop etilgan yili (oyi, soni);
- maqola (tezis) qaysi betlarni o`z ichiga olgani;
- to`plam, gazeta, jurnaldagi maqola, tezis nomidan keyin // belgisi bilan ajratiladi.

Davriy matbuotni faqat tadqiqot davrida chop etilganlarini xronologik tarzda keltiriladi.

Tadqiqotchi o`z ilmiy ishida internet ma'lumotlardan ham foydalangan bo`lsa, muallif va ishning nomidan keyin web-sayti ko`rsatiladi.

Tadqiqotchi o`z ilmiy ishining oxirida keltirayotgan foydalangan manba va adabiyotlar ro`yxatiga aslida foydalanmaganlarini qo'shib qo'yishi mumkin emas. Ayni paytda tadqiqotni tayyorlash jarayonida o'qib chiqqan, lekin amalda foydalanmagan adabiyotlar ham ro`yxatga kiritilmaydi. Ushbu qoida arxiv manbalariga ham taalluqli hisoblanadi.

Barcha foydalanilgan adabiyotlar alfavit bo`yicha kiritiladi.

Tayanch so`zlar

TSitata, "so`zma-so`z", "qisqartma so`zma-so`z", Qarang, Kengroq ma'lumot olish uchun qarang, Ko`rsatilgan kitob, iqtibos, geografik ko`rsatkichlar, jadvallar, grafalar, manba, adabiyot, rasmiy manbalar, hujjatlар to`plami, arxiv hujjatlari, davriy matbuot, dissertatsiya, avtoreferat, xotiralar, alifbo, iqtibos belgilari.

Nazorat savollari

1. Tadqiqotda "Qarang", "Kengroq ma'lumot olish uchun qarang" iboralari qaysi o'rnlarda ishlataladi?
2. "So`zma-so`z", "qisqartma so`zma-so`z", "mazmun" jihatidan sitata keltirish tartiblari haqida gapiring.
3. Tadqiqotda "O'sha joyda", "Ko`rsatilgan kitob" kabi atamalarning qo'llanishi haqida ma'lumot bering.
4. Arxiv, adabiyot va davriy matbuotdan iqtibos keltirish tartiblari haqida so'zlab bering.
5. Tadqiqotda jadval, illyustratsiya va ilovalarning keltirish tartiblarini tushuntirib bering.

10- MAVZU: TADQIQOTLARDA TARIXIY, TARIXIY-GEOGRAFIK ATAMALAR, TUSHUNCHALAR, QISQARTMA VA IBORALAR

REJA

1. Tarixiy, tarixiy-geografik atamalar va iboralar.
2. Tarixiy tushuncha va izohlar.
3. Tarixiy qisqartmalar.
4. Ilmiy-tadqiqot yakuniga oid nashrlar.

Tarixiy, tarixiy-geografik atama va iboralar. Tarixchi-tadqiqotchi ilmiy izlanish jarayonida, xususan adabiyotlarni o'rganish, arxiv manbalari bilan tanishish bosqichida, o'zi tomondan tadqiqot ishlarini bayon qilishda, tegishli tarzda, tarixiy, tarixiy-geografik atamalarga duch kelishi va kerakli joyda foydalanishi mumkin. Tadqiqotchi uchun tarixiy, tarixiy-geografik atamalarni bilishi va uning mohiyatini tushunishi ilmiy tadqiqotni muvaffaqiyatli yakunlashda ahamiyatga molik hisoblanadi.

Tarixiy atamalar, tarixiy-geografik atamalar kelib chiqish tarixiga, u yoki bu davr, voqeа-hodisalarga bog'liqligi bilan tarixdan o'rın olgan. Demak, har bir davrning o'ziga xos atamalari mavjud bo'lган.

Tadqiqotchi tarixiy atamalardan faydalinishda tegishli atamani kerakli joyga va ma'lum bir davrga mos ravishda qo'llashi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki ayrim tarixiy atamalar ikki va undan ortiq ma'noni anglatishi ham mumkin. O'z navbatida atamadan kelib chiqadigan ma'nolar bir-biridan davr nuqtai nazaridan ham, mohiyat yuzasidan ham tubdan farq qilishi mumkin. Masalan, **dorug'a** tarixiy atamasi ikki xil ma'noni anglatadi: Birinchisi – hokim. Mo'g'ullar, temuriylar va shayboniyalar hukmronligi davrida dorug'alar viloyat, shahar hokimi bo'lishgan. Ular zimmasiga viloyat va shaharni boshqarish, aholini ro'yxatga olish va hisob-kitob qilish, aholidan soliq undirish vazifalar yuklatilgan. Ikkinchisi – mirshablar boshlig'i degan ma'noni bildiradi. So'nggi feodalizm davrida O'rta Osiyo xonliklarida mirshablar boshlig'i dorug'a deb yuritilgan²². Albatta, tadqiqotchi ilmiy ishi mavzusi, davriga oid holatdan kelib chiqqan holda atamalardan izohiga mos ravishda, ularning biriga to'xtaladi. Ba'zan tarixiy atamalar davriy jihatdan yaqin bo'lsa-da, boshqa-boshqa ma'nolarda ham qo'llanishi mumkin. Masalan, **uyruq** atamasi dastlab amir yoki xonning farzandlari, xizmatkorlari yashagan chodirlarga nisbatan qo'llangan bo'lsa, keyinchalik uyruq atamasi harbiy harakatlar vaqtida qo'shin ortidan boruvchi karvonni anglatgan. Unda hukmdorning xizmatkorlari, haram ahli qurol-yarog', oziq-ovqat va boshqalar olib borilgan²³. Tarixiy atamalarni qo'llash tadqiqotchidan ma'lum bir sinchkovlikni, xususan u yoki bu atamaning ikki-uch xil ma'nosi bor yoki yo'qligini, qaysi davrda qanday ma'no kasb etganligini bilishni ham taqozo etadi. Shunday tarixiy atamalar qatorida **graf** so'zi ham bor. Ushbu atama ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada qirolning amaldori, feodal tarqoqlik davrida esa katta er-mulkka ega bo'lган feodal, so'ngra

²² Чориев З. Тарих атамаларининг кискача изохли луғати (қадимги ва ўрта асрлар). – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 37.

²³ O'sha joyda, – Б. 109.

dvoryanlik unvoni hisoblangan. Franklar davlatida graf o'z viloyatiga (graflikka) ega bo'lgan sud, ma'muriy va harbiy hokimiyat uning qo'lida bo'lgan. Dastlab graf unvoni qirol mulozimlariga berilgan bo'lsa, VII asrda boshlab viloyatning katta er-mulk egalaridan ayrimlariga berilgan. Graf mansabi avloddan-avlodga o'tadigan bo'lgan. Frantsiyada X asrga kelib graf mustaqil magnatga aylangan. Feodallashish jarayoni sekinroq borgan Germaniyada esa graf unvoni faqat XI asrdagina mansabdan feodal er egasiga aylangan. Angliyada qudratli markazlashgan davlat tuzumining mavjud bo'lganligi grafning mustaqil mulk egasi bo'lib olishiga imkon bermagan. Rossiyada graf unvoni Pyotr I tomonidan joriy etilgan va avloddan-avlodga o'tuvchi xususan, knyaz' bilan baron orasidagi unvon bo'lgan. 1917 yildan graf unvoni tugatilgan. Yana bir boshqa ma'nosi graf unvoniga ega bo'lgan kishi hisoblanadi²⁴.

Tarixiy atamalar ba'zi hollarda davri va mohiyatiga ko'ragina emas, qo'llanish geografiyasiga nisbatan ham bir necha ma'no kasb etishi mumkin. Misol tariqasida devon (divon) tarixiy atamasini oladigan bo'lsak, bu o'rta asrlardagi musulmon mamlakatlarda: 1) VII asr birinchi yarmida Arab xalifaligida hukmron feodallar sinfining turli guruhlari o'tasida davlat daromadlarining taqsimlanishini qayd etiladigan ro'yxat va hujjat saqlanadigan joy; 2) VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asrda soliqlarni yig'uvchi moliya idorasi; 3) Moldaviya va Valaxiya knyazliklarida kengash beradigan hamda ijro etuvchi oliy davlat kengashi; 4) davlat mahkamasida turli unvon va lavozimlarning nomi; 5) davlatning kirim-chiqimlarini yoziladigan daftari; 6) Somoniylar davlatida amir huzuridagi markaziy boshqarmalar; 7) eng muhim ichki va tashqi siyosiy masalalar muhokama qilingan; 8) oliy sud; 9) Usmoniylar imperiyasida – buyuk vazir raisligi ostidagi mufтий va bir necha a'yон-arkondan tashkil topgan maxfiy kengash; 10) davlat mahkamasida ma'nolarida qo'llangan va tushunilgan²⁵.

Tarixiy atamalar qatorida ba'zan qisqartirma hollardagilari ham uchrab turadi (*tarixdagি qisqartirma so'zlar, tarixiy birikmalar alohida keltirilyapti, 10-ilovaga qarang – mualliflar*). Masalan, atamalarda **kadetlar** degan so'z ham uchraydi. Tadqiqotchi ilmiy ishida bu atamani ishlatganda ma'lum bir izoh berib o'tishi foydadan xoli bo'lmassi:

Kadetlar (*konstitutsion-demokratik partiya*) – Rossiyada 1905 yil oktyabrida tashkil topgan liberal-monarhistik siyosiy partiya. Ushbu partiya rahbari Milyukov Rossiyada podsho hokimiyatini konstitutsiyali monarxiya shaklida saqlab qolish tarafdoi edi²⁶.

Yana eserlar atamasini ham keltirish mumkin: **eserlar** (*sotsialist - revolyutsionerlar*) Rossiyada 1901–1902 yillarda tuzilgan. Turli narodniklik to'garak va guruhlaming birlashishi natijasida vujudga kelgan partiya²⁷.

Yuqorida qayd etilganlar qatori, xorijiy tillardan qabul qilingan tarixiy atamalar orasida o'zbek tilida ishlatiladigan, ammo zarur hollarda o'zining izohini talab qiladigan atamalar ham uchrab turadi. Masalan, **chorizm** so'zi aslida tsarizmning «o'zbekchalashtirilgani» bo'lsa, **quloq** so'zi aslida

²⁴ Бекмуҳамедов Х. Ю. Тарих терминлари изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – Б. 43.

²⁵ Бекмуҳамедов Х. Ю. Тарих терминлари изоҳли луғати... – Б. 55-56.

²⁶ Бекмуҳамедов Х. Ю. Кўрсатилган китоб. – Б. 81.

²⁷ Бекмуҳамедов Х. Ю. Кўрсатилган китоб. – Б. 174–175; Қисқача сиёсий луғат. – Т.: Ўзбекистон, 1983. – Б. 396–397.

ruschadagi **kulak** atamasining buzib aytilishi va ayni paytda boy-badavlat deqqonlarga nisbatan «mushtumzo'r» sifatida qo'llanishi ham hisoblanadi. Ayni paytda tarixiy atamalarda nafaqat xorijiy tillardan o'zbek tiliga qabul qilingani, aksincha o'zbek tilidan xorijiy tillarga atama sifatida qabul qilingani ham uchrab turadi. Bunga sovet hokimiyyati yillarda rus tilida yozilgan tarixga oid tadqiqotlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunga «boy», «dehqon», «dushman» kabi so'zлarni rus tilidagi tadqiqotlarda tarjimasiz ishlatalishini ham keltirish mumkin. Olaylik, **varvar** atamasi yunoncha *barbaros* so'zidan olingen bo'lib, o'zbek va rus tillarida ham shunday keltiriladi, bu: yunon va rimliklarda har qanday elliн, musofir, yunon-rimliklar madaniyatiga aloqador bo'lмаган xalqlar vakiliga, madaniyatsiz johil odamlarga, nodon, qo'pol, yovvoyilashagan odamga nisbatan qo'llangan²⁸.

Tarixiy ilmiy tadqiqotlarda geografik atamalarga ham izoh berib ketish maqsadga muvofig. Zero, tadqiqotchi tomonidan u yoki bu davlat, tarixiy-geografik hudud eslatib o'tilayotganda izoh berish, tadqiqotchining ilmiy burchi hisoblanadi. Masalan, tarixiy tadqiqotlarda Jambul shahri nomi eslatib o'tilsa, bu nomga zarur hollarda quyidagicha izoh berish mumkin: Jambul – Qozog'iston respublikasidagi shahar. Qozoq shoiri Jambul Jabayev (1846-1945) nomiga qo'yilgan. Shahar hududi V asrdan Taroz yoki Talas nomi bilan mashhur bo'lgan²⁹. Ba'zan ayrim tarixiy hududlar eslatib o'tilganda, ushbu tarixiy geografik atamaga beriladigan izoh juda keng bo'lsa, unda llova orqali izohlash mumkin. Masalan, **Dashti Qipchoq** to'g'risida ma'lumotni llovaga qarang deb, quyidagicha bayon etish mumkin: *Dashti Qipchoq – bu Sirdaryoning quyi oqimi hamda Balxash ko'lidan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlaming XI-XVI asrlardagi nomi. XI asrdan boshlab bu erlarga ko'chib kelib o'mashgan qipchoq xalqi nomi bilan Dashti Qipchoq deb atalgan.* Dashti Qipchoq atamasini dastlab Nosir Xisrav (1003–1088) qo'llagan. Shu davrdan boshlab bu atama arab va fors tillaridagi asarlarda uchraydi. V. V. Bartol'dning aniqlashiga ko'ra, Dashti Qipchoq aholisi sharq manbalarida qipchoqlar, rus solnomalarida polovetslar, Vizantiya xronikalarida kumanlar, venger manbalarida kunlar deb yuritilgan. Dashti Qipchoq ikki qismdan: 1) Sharqiy qism – Yoyiq daryosidan to Sirdaryoning quyi oqimi va Balxashgacha bo'lgan erlar; 2) G'arbiy qism – ya'ni Yoyiq va Volgadan to Dneprgacha bo'lgan erlardan iborat. Dashti Qipchoqning bir qismini XIII asr 20- yillarda Jaba No'yon va Subutoy bahodir boshchiligidagi mo'g'ullar bosib olgan. 1236 yili Dashti Qipchoqni Chingizzonning nabirasi Botuxon egalladi va bu ulkun hududda Jo'ji ulusi nomi bilan mashhur bo'lgan Oltin O'rda davlati tashkil topgan. XIV asr boshlarida Jo'ji ulusi ikki qismga bo'linib ketgan. Dashti Qipchoqning sharqiy qismida Oq O'rda davlati tashkil topdi. XIV asming 60- yillaridan boshlab Dashti Qipchoqning sharqiy qismidagi bu Oq O'rda davlati tarixiy manbalarida «O'zbeklar mamlakati» deb, uning aholisi esa «o'zbeklar», aniqrog'i «Dashti Qipchoq o'zbeklari» deb atala boshlangan. Ungacha, bu joylarda ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalari (arlot, baxrin, burqut, do'rman, iyjan, qtoy, qarluq, major, qipchoq, qiyot, qo'ng'iroq, qurlovut, mang'it, nayman, nukus, tangut,

²⁸ Словарь иностранных слов. – М.: Русский язык, 1987. – С. 96.

²⁹ Дусимов З., Эгамов Х. Жой номларининг кисқача изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б. 60.

uyg'ur, markit, qo'shchi, o'tarchi, jot, chimboy, kenagas, uyshun, tuboyi, toymas, echki, tuman, ming, shodbaxtli, shunqorli v. b.) orasidan etishib chiqqan sahroyi suvoriy harbiy guruuhlar jangovor o'zbeklar nomi ostida XIII asr oxirlaridan tarix maydonida paydo bo'lgan. XV asming 20- yillardan boshlab, Sharqiy Dashti Qipchoqni asta-sekin Abulxayrxon egalladi va bu hududda ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga asos soldi. Abulxayrxon vafotidan keyin (1468) Sharqiy Dashti Qipchoqda uning avlodlari va qarindoshlari hukmronlik qildilar. Dashti Qipchoqning asosiy aholisi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lib, chorvachilik va ovchilik, daryo va ko'l bo'yalaridagi aholi esa dehqonchilik, shaharlardagi aholi hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Vengriyada «Ulug` Kumaniya» va «Kichik Kumaniya» viloyatlariда tatar-mo'g'ul istilosи davrida qochib kelib, turib qolgan qipchoqlar yashaydilar.

Albatta, bunday kengaytirilgan izoh ilmiy ish mavzusida qo'llanayotgan tarixiy-geografik atamaga taalluqli bo'lgandagina bayon etish tavsiya etiladi. Agar tadqiqotchi ilmiy ishi mavzusiga bevosita taaluqli bo`lmasa, tarixiy-geografik atamadan qisqartirilgan variantda foydalanish mumkin. Masalan, tadqiqot matnida ilk bor Maroqanda deb eslatilgandan keyin (*keyingi eslatmalarda izoh berish shart emas – mualliflar*) qavs ichida Samarqandning yunoncha nomi deb yozishning o'zi etarli deb hisoblanadi.

Tadqiqot matnidagi qisqa izoh iqtibosda ham keltirilishi mumkin. Misol tariqasida «Volgabo`yi va Uraloldi hududlari» deb, iqtibosda: *Volgabo`yi va Uraloldi hududlari – Rossiyaning hozirgi Tatariston, Boshqirdiston, Chuvashiya, Udmurtiya, Mariy respublikalari hamda Ul`yanovsk (Simbirsk) Samara, Orenburg, Penza, Saratov, Tanbov, Astraxan, Sverdlovsk (Yekaterinburg), Perm kabi sub`ektlarni o'z ichiga oladi. Qarang: Rasulov A. Turkiston va Volgabo`yi, Uraloldi xalqlari o'rtaсидagi munosabatlar. – T.: Universitet, 2005. – B. 20.*

Tadqiqotlarda atamalardan tashqari tarixiy iboralar, «qanotli so`zlar» va tarixiy tushunchalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Mavzudan kelib chiqib, foydalanadigan tarixiy iboralar, «qanotli so`zlar», tarixiy tushunchalarga nisbatan matn ostida-iqtibosda izoh berish katta ahamiyat kasb etadi. Mavzuga, o'rganilayotgan muammoga, bob va paragraflarga bevosita taalluqli tushuncha va iboralar, mumkin qadar, tadqiqotchi tomonidan beriladigan izohlarni taqozo etadi. Masalan, tadqiqotda «Oq uy ma'muriyatni o'zaro munosabatlaridagi ishonchga «Sovuq urush» siyosat barham topganligi sabab bo`lganligini e'tirof etdi» deyilsa, unda «Oq uy» dan keyin iqtibosda: «Oq uy» – bu AQSh prezidentining Vashingtondagи qarorgohi. «Oq uy» deganda ko`pincha AQSh hukumati tushuniadi, deb izoh berib, «Sovuq urush» dan keyin ham quyidagi izoh iqtibosda keltiriladi:

«*Sovuq urush*» – bu tarixiy atama ikkinchi jahon urushidan keyin, aniqrog'i U. Cherchillning 1946 yil 5 martda Fultonda so`zlagan nutqi bilan bog'liq hisoblanadi. Kapitalistik va sotsialistik mamlakatlar o'rtaсидagi quronanish poygasi, harbiy-siyosiy ishonchsizlik «*Sovuq urush*»ning asosiy belgisi hisoblanadi. Bu siyosat 1991 yilgacha davom etgan.

Albatta, tadqiqotchi tomonidan ilmiy ishda qo'llanilayotgan tarixiy tushuncha-iboralar o'z joyida, aniqrog'i necha marta qo'llanishidan tashqari, dastlabki qo'llanishdagina izoh beriladi. Masalan, tadqiqotchi o'z ilmiy ishida 18 marta «*Kart blansh*» iborasini qo'llagan bo'lsa, faqat shu iborani dastlab ishlatgandagina quyidacha izoh berish mumkin: *Kart blansh* – bu biror shaxs

imzo chekib, boshqa shaxsga uni o'zi istagan mazmunda to'ldirish huquqi berilgan toza blank. Ko'chma ma'noda – bu cheklanmagan vakolat.

Zarur hollarda tarixiy tushuncha va iboralar tadqiqot oxirida, alfavitga asosan, bob, paragraflarga oid tegishli tarzda kengaytirilgan izohi bilan keltirilishi mumkin. Masalan, **Amvrosiy respublikasi** (1447–1450) – Milandagi respublika³⁰.

«Boshmoq» qo'zg'olon³¹ fosh etilgandi.

Cherkovni ajratish «Buyuk ajralish» (1378–1417)³² degan nom oldi.

«Beshinchı kolonna» - u yoki bu mamlakatning orqa tomonini izdan chiqarish uchun foydalaniладиган dushman yashirin agenturasining turdosh oti. «Beshinchı kolonna» atamasi Ispaniyadagi milliy inqilob urushi (1936–1939) davrida vujudga kelgan 1936 yil kuzida Madridga to'rt kolonna bo'lib bostirib kirgan ispan fashistlari shahar ichida vahima tug'dirgan, sabotaj bilan shug'ullangan, diversiya uyuştirigan xoinlar va sotqinlardan iborat o'z yashirin agenturasini «Beshinchı kolonna» deb atagan edilar.

«Bo'lib tashia va hukmronlik qil» qadimgi Rimda hukmronlar va lashkarboshilar o'zлari bosib olgan va bo'ysundirgan xalqlarni tobelikda saqlab turish uchun amal qilgan qoida.

«Varfolemye kechasi» – Parijda 1572 yil 24 avgustda muqaddas Varfolomey bayramiga o'tar kechasi katoliklar tomonidan gugenotlar (protestantlar)ning ommaviy qirg'in qilinishi. Ko'chma ma'noda: muayyan siyosiy, irqiy, diniy, va boshqa sabablar bilan tashkili ravishda ommaviy qirg'in qilish.

Kazus belli – aynan urushga bahona. Urush holati vujudga kelishi uchun bevosita rasmiy sabab. Kazus bellini urushga sabab sifatida urushni keltirib chiqargan haqiqiy sabablardan farq qilish kerak. Masalan: Sarayevoda Avstriya ertsger tsogi Ferdinandning o'ldirilishi 1914–1918 yillardagi birinchi jahon urushi uchun Kazus belli bo'lган edi. Aslida urushga davlatlar o'tasida dunyonи qayta taqsimlash muammosi bilan bog'liq ziddiyatlar haqiqiy sabab bo'lган edi.

Shunday hollar ham bo'ladiki, tadqiqotchi tomonidan qo'llanayotgan tarixiy ibora hozirgi davrdagi ham moslab ishlatalishi mumkin. Masalan, tadqiqotchi mavzuni yoritish jarayonida, «Uning sa'y-harakati, "Shamol tegrimonlari bilan kurashish"dek gap deb, matn iqtibosida: «Shamol tegrimonlari bilan kurashish» – bu ibora endilikda «tasavvurdagi dushman bilan olishish» degan ma'noni anglatadi, deya izoh berishi kerak bo'ladi. Tarixiy tushuncha va

³⁰ Milan ruhoniysi Amvrosiy nomi bilan shunday atalgan. Qarang: Ўрта асрлар тарихидан изоҳли лугат. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 16.

³¹ 1493 yilda feodallarga qarshi qo'zg'olon tashkil etish maqsadida El'zasda vujudga kelgan dehqonlarning yashirin ittifoqi. Nomini bayroqda aks ettirilgan dehqon chorig'i - "Boshmoq"dan olingan. Qarang: Ўрта асрлар тарихидан изоҳли лугат. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 28–29.

³² Katoliklar jamoasining bir-biri bilan raqobat qiluvchi papalar boshliq avval ikkita, so'ngra esa uchta cherkovga eng uzoq vaqt davomida ajralib turishi. Avin'onda papalarning tutqunlikda saqlanishidan keyin "Buyuk ajralish" boshlangan. 1377 yilda Papa Grigoriy XI fransuzlarga qaramlikdan qutilish uchun Rimga qaytib kelgan. Uning vafotidan keyin (1378) bir yo'la ikkita papa (Rimda ital'yan va Avin'onda fransuz) saylandi. Ikkita papa kuriyasi tuzildi. Ba'zi davlatlarda papa Klement VII (fransuz)ni, ba'zilari esa Urban VI (ital'yan)ni tan oldilar. Shundan keyin katolik cherkovida "Buyuk ajralish" ro'y berdi. Qarang: Ўрта асрлар тарихий изоҳли лугати. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 41.

iboralarda, xorijiy adabiyotlarda qo'llanadigan «Buyuk mo'g'ullar imperiyasi» aslida Chingizxonga emas, balki Zahiriddin Muhammad Bobur sulolasiga nisbatan qo'llanishi, «Orenburg to'sig'i» deganda Turkiston va Rossiya o'tasidagi temir yo'l aloqalarining uzilib qolish davri nazarda tutilishi, «Turkiston tashkilotchisi» – bu fon Kaufmanga nisbatan ishlataligani, «qayta qurish» davri deganda 1985–1990 yillar oralig'ini tushunilishi tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmasligi kerak.

Tarixiy tushunchalarda yana arxeologik atamalar, iboralar ham o'ziga xos izohni talab qiladi. Masalan, 1938 yili Teshiktoshdan topilgan bolaga nisbatan «Neandertal» tipidagi deb e'tirof etiladi. Bunga sabab shuki, dastlab shu tipdag'i odam 1856 yili Germaniyaning Neandertal' nomli vohasidan topilgan. Shuning uchun ham qayerdan va qachon topilishidan qat'iy nazar, shu tipdag'i odamlarga Neandertal atamasi qo'llanadi. Arxeologiyada qo'llanadigan «Chust madaniyati», «Namozgoh madaniyati» iboralari ham dastlabki topilmalar hududi nomiga bog'lab ishlatalaveradi.

Umuman olganda, tarixiy ibora, tushunchalardan tashqari, tadqiqotlarda uzunlik va og'irlik o'Ichovlariga ham izoh berish hollari uchrab turadi. Masalan, Fitratning «Amir Olimxonning hukmonlik davri» asarida: «*Amlokdir dehqonning eriga borib, hosilni yigirma man taxmin qilar edi va sakkiz manini olar edi*» deyilganda, man so'zidan keyin iqtibos belgisi orqali quydagicha izoh berilgan: «Man – og'irlik birligi bo'lib, geografik joylanishi jihatidan turlicha og'irlikda belgilangan. Masalan, Samarqandda bir man – 128 kg., Tabrizda qariyb 3 kg. bo'lgan. Shariat qonuni bo'yicha bir «shariat mani» 180 misqol (846 gr) dir. Yuqoridagi o'Ichovda ham Buxoroning Samarqandga yaqin bo'lganligi sababli, Samarqandning «man» o'Ichov birligi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin³³.

Bunday atama, tushunchalar uzunlik o'Ichovlariga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Masalan, A. A. Isoqboev tadqiqotida *«Turkiston shahridan 22 verst uzoqligidagi Qamoq qishlog'ida 5 ta madrasa bo'lib, Sirdaryo, Oqmola va To'rg'ay viloyatlaridan kelgan 5 mingga yaqin talaba tahsil olar edi»*, deya ma'lumot berilgan. Mazkur gapdag'i verst uzunlik o'Ichoviga iqtibosda *«Verst qadimgi rus o'Ichov birliklaridan biri bo'lib, 500 sajenga, ya'ni 1,0668 km ga teng bo'lgan. Qarang: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2-jild. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – B. 435.»* shaklida izoh berilgan³⁴.

Umuman olganda, tarixiy ibora, tushunchalardagi izohlar orqali tadqiqotchi ilmiy ishni o'qiyotganlar uchun ma'lum bir engilliklar tug'diradi. Zero, har bir tarixiy ibora, tushunchalar ham o'z tarixiga, davriga va qo'llanish zaruriyatiga ega.

Tadqiqotda tushuncha va izohlar. Tadqiqot turi qanday bo'lishidan qat'iy nazar matnda yoki iqtibosda o'quvchi uchun ma'lum bir tushuncha, izoh berib o'tish hollari uchrab turadi. Tarixiy izoh va tushunchalar geografik huddularga, sanalarga, atamalarga, o'Ichov birliklariga, tarixiy shaxslar va ularning biografiyasi (tarjimai holi) va faoliyatiga, tarixiy voqealarga beriladi. Tarixiy izoh tutgan o'miga ko'ra, tushunchaga nisbatan qisqaroq bo'ladi.

³³ Qarang: Фитрат. Амир Олимхоннинг хукмонлик даври. – Т.: Минҳож, 1992. – Б. 33.

³⁴ Исокбоев А. А. Туркистон ижтимоий-сийсий ва маданий ҳаётида татар-бошкирд маърифатпарварларининг фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари): Тарих фан. номз. ... дисс. – Наманган, 2008. – Б. 61.

Tarixiy izoh ilmiy tadqiqot matni tarkibida – qavs ichida va shuningdek, iqtibosda, tadqiqot oxirida ham berilishi mumkin. Masalan, ilmiy tadqiqotda sovet davriga oid voqealar bayonida “Kuybishev shahridan Turkiston rahbariyatiga yubordilar” gapi qo'llaniladigan bo'lsa, unda Kuybishev nomini yozgandan keyin hozirgi nomi Samara ekanligi qavs ichida berilishi kerak ya'ni “Kuybishev (hozirgi Samara) shahri ...” deb qayd etiladi. Tadqiqotchi tomonidan geografik hududlarga, tarixiy sana va atamalarga hushyorlik bilan yondashish maqsadga muvofiq. Masalan, bir o'quv qo'llanmada³⁵ “Turkiston xalqlari hayotida Butunrossiya musulmonlarining 1917 yil 21–31 iyulda Qozon shahrida o'z ishini olib borgan 2- qurultoyi ... qarorida Turkiston, Qirg'iziston, Kavkaz va Qirimda boshqaruva shaklini o'lsa aholisining o'zi hal qilsin” deb yoziladi. Yuqorida keltirilgan matn to'g'ri keltirilgan, ammo shu matnda eslatilgan Qirg'iziston atoqli atamasidan keyin qavs ichida yoki iqtibosda bu hudud misolida hozirgi Qozog'iston tushunilishi to'g'risida izoh berib o'tilsa tarixiy haqiqatga aniqlik kiritilgan bo'lardi.

Tadqiqotda tarixiy shaxslar va sanalarga aniqlik kiritish esa shunday tartibda bo'ladi. Masalan, “1919 yil 8 oktyabrda Butunrossiya MIQ va RSFSR XKS qoshidagi Turkiston ishlari bo'yicha komissiya (Turkkomissiya)ni tashkil topishi ham “kadrlar muammosi” yechimida katta rol o'ynagan. Turkkomissiyaning Sh. Z. eliava³⁶ boshchiligidagi a'zolari Turkistonga kelishidan avval hamma tashkiliy masalalarni Samara guberniyasida turib hal qildilar”. Aynan Sh. Z. eliava ismi-sharifidan keyin keltirilgan iqtibos Turkkomissiyaga kim raislik kilgani bo'yicha shaxslar ismi sharifiga oid munosabatni bildiradi.³⁷

Tadqiqot jarayonida keltiriladigan tarixiy tushunchalarda muallif ayrim tarixiy voqealari, dalillar, atamalarga nisbatan ma'lum bir izohlarni ham berib borishi mumkin. Masalan, kitobda “Turkistondag'i bol'sheviklar siyosatiga nisbatan qurolli qarshilik harakatini sindirish uchun qurolli kurash bilan birga g'oyaviy-siyosiy, psixologik targ'ibotni ham amalga oshirish zarur deb topildi. Shu sababdan 1919 yil oxiri va 1920 yil boshlarida RKP(b) MQ va Sharq xalqlari kommunistik tashkiloti markaziy byurosi (SHXKT MB) tashabbusi bilan “Qizil Sharq” poyezdini Turkistonga yuborishdan maqsad “inqilob g'oyalari targ'ibot-tashviqot orqali erli aholiga singdirish deb biladi.”³⁸ deb uqtiriladi hamda

³⁵ Шамсуддинов Р., Каримов Ш. Узбекистон тарихидан материаллар (учинчи китоб). – Андижон: “Andijon nashriyot-matbaa” очик акциядорлик жамияти, 2004. – Б. 28.

³⁶ Ayrim xorijiy adabiyotlarda Turkkomissiyaga M. V. Frunze, V. V. Kuybishevlar rahbarlik qilgan hamda ushbu komissiya Turkistonga 1920- yil boshlarida kelgan deb eslatilgan deb, shaxslar va sanaga oid tarixiy noaniqlikka yo'l qo'yadilar. Qarang: Roy O. The new Central Asia. New York University press, 2000. – P.59. Holbuki, Turkkomissiyaga SH. Z. Eliava rahbarlik qilib, M. V. Frunze, V. V. Kuybishevlar a'zo bo Iganlar hamda ushbu Komissiya Toshkentga 1919- yil 4- noyabrda kelgan. Qarang: РГАСПИ, ф. 17, оп. 65, д. 72, л. 88.

³⁷ Qarang: Расулов А. Туркистан ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар. -Т.: Университет, 2005. – Б. 55.

³⁸ Sovet hokimiyatining dastlabki yillarda “Красный казак”, “Советский казак”, “Октябрская революция”, “В. И. Ленин”, “Красный Север”, “Красная Звезда”, “Михаил Калинин”, “Памяти Я.М.Свердлова”, “Володарский”, “Красная знамя” va boshqa targ'ibot poyezdlari, paroxodlari “inqilob g'oyalari”ni ommaga yoyish ishlari bilan shug'ullangan. Qarang: Расулов А. Туркистан ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар. – Т.: Университет, 2005. – Б. 185.

iqtibosda ma'lum bir tushuncha beriladi. Bu bilan tadqiqotchi boshqa targ'ibotchi poezd, paroxodlar faoliyatidan xabardor ekanligini ifodalash bilan birga, o'quvchiga qo'shimcha ma'lumot beradi. Natijada, kitob muallifi o'quvchini qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitadi va kitobxon sovet hokimiyyati yillarida tashkil etilgan "Qizil Sharq" targ'ibot-yo'rqi chi poezdi yagona emasligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi. Tadqiqotchi tomonidan beriladigan izoh va tushunchalar mumkin qadar ishonchli va asosli bo'lishi kerak.

Ayrim hollarda tadqiqotchilar matn ostida – iqtibosda tushuncha beradilar u, ammo asos keltirmaydilar. Masalan, "Turkiston muxtoriyati" deb, iqtibosda uni yana "Qo'qon muxtoriyati" yoki "Turkistonning bиринчи milliy hukумати" deb ham yuritilishini e'tirof etган holda asos keltirilmaydi. Yana bir misol olaylik. A. Nabiiev kitobida³⁹ "Farg'ona viloyatining harbiy gubernatori, general Skobelev "Oloy malikasi" - Qurmonjon Dodxoh⁴⁰ bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi" deb yozgan va ammo iqtibos orqali keltirgan tushuncha – izohiga asos keltirmaydi. Bu to'g'rimi yoki noto'g'rimi? Aslida har qanday holatda asos keltirish maqsadga muvofiq, ammo keltirilmagan taqdirda hamma mas'uliyat tadqiqotchining, muallifning zimmasiga tushadi. Kitob muallifi yuqorida keltirilgan iqtibosida nega Qurmonjon Dodxohni "Oloy malikasi" deyilgani to'g'risida ham izoh berib ketganida yanada maqsadga muvofiqroq bo'lardi.

Ilmiy ish bilan shug'ullanish jarayonida boshqa tadqiqotchi, tarixiy asarlar mualliflari yozgan ilmiy ishlari, kitoblar bilan tanishishga, ularni tahlil qilishga va zarur hollarda, ularga ma'lum bir o'z munosabatini bildirishga to'g'ri keladi. Shunday hollarda tadqiqotchi u yoki bu masala, tarixiy voqeа, sana va boshqa holatlar bo'yicha munosabatini juda ehtiyojkorlik bilan, xususan qo'pol, noo'rin iboralar, so'zlarini qo'llamasdan bayon etishi kerak. Bunga sabab qilib, bирinchidan, tanqid ostiga olinayotgan tadqiqot - kitob nashr etilgan paytda sizdagi manbalar hali ilmiy muomalaga kiritilmagan va hatto buni iloji ham bo'limgan bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, siz keltirayotgan dalililar ham "oxirgi haqiqat" bo'lmasligi, aniqlik kiritilishga muhtojligi, munozarali bo'lishi mumkin. Uchinchidan, tarixiy ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanayotganlar ehtirosli so'z va iboralarga emas, dalillarga suyanishi kerak va ilmiy odob qoidasi shuni talab qiladi.

Tarixiy ilmiy tadqiqotlar matnida har bir so'z, gapga juda ehtiyojkorlik bilan yondashish, so'zlar va atamalarni o'z joyiga avaylab qo'llash lozim. Masalan, oddiy tarixiy siyosiy atamada ehtiyojsizlik bilan qo'yilgan xatoga quyidagi misolni keltirish mumkin: "... Buxoro amirligi va Xiva xonligininning yarim mustaqilligini tugatib, ularni Rossiya ga batamom "qo'shib" olishni taklif etdi. Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda Buxoro amirligi qoshida Muvaqqat hukumat presidenti va Xivada Rossiya harbiy komissari lavozimlari tashkil

³⁹ Набиев А. Мустакиллик учун кураш ёхуд парчаланган Туркистон тарихи. –Т.: Ёзувчи, 1998. – Б. 69.

⁴⁰ Ba'zi bir adabiyotlarda Qurbonjon dodxoh deb uning ismini noto'g'ri berilgan. Qurmonjon dodxoh 1811 yilda qirg'izlarning Mungush urug'ining Japaloq qabilasida oddiy chorvador oilasida tug'ilgan. U arab va turkiy tillarni yoshlidayoq o'rgangan. Buxoroi Sharifda unga shayxulislom tomonidan dodxoh unvoni berilgan. U 1874 yildan boshlab, Oloy o'lkasidagi elga boshchilik qilgan. Uning aql-zakovatiga qoyil qolgan general M. D. Skobelev unga Rossiya imperiyasining generali unvonini topshirishga majbur bo'lган.

qilindi⁴¹ deyiladi. Holbuki prezidenti ataması o'rnda rezidenti bo'lishi kerak edi. Bundan ko'rinib turibdiki, bitta ortiqcha qo'yilgan harf masala mohiyatini buzib yuboryapti.

Tarixiy tadqiqot jarayonida eski o'zbek tilidagi hujjatlar, manbalarni matnda keltirishda muallif ayrim atama, so'z, tarixiy voqealari, sana va dalillarga, geografik nomlarga quyidagicha izoh berib ketishi maqsadga muvofiq: "Do'st niyoz mahram Turkistongan etkondin so'ng Gubernator ani mahbus va maxsur qoldurdi. Ikki kundin so'ng Hazrati sultanatpanoh (Muhammad Rahimxon II – Q. M.) dargohining bandasi va Xorazm diyorining elchisi erkanin bilib, qaydin (ozod etib – Q. M.) ... ta'zim va takrim (etib-Q. M.) ... , bir necha kun e'zoz va ikrom bilan mehmondorlig' qilg'ondin so'ng Xorazm diyorining azmig'a ijozat berdi"⁴².

Azamat Ziyo kitobida⁴³ Jaloliddin Manguberdining gruzinlarga qilgan murojaatini Z. M. Buniyatov keltirib, o'z izohini qavs ichida bildiradi: "Men sizlami mamlakatingiz qudrati va gruzinlar shijoati haqida eshitganman. endilikda esa men birgalashib dashmanga (ya'ni mo'g'ullarga – A.Z.) qarshi kurashaylik deyman. eshitishimcha hukmdorlarinayol ekan (bu erda malika Rusidana (1222 - 1245) nazarda tutilmoxda – A.Z.). U menga tur mushga chiqsin va men sizlarning ham hukmdorlarin bo'lay va biz birgalikda ulum dashmanni mag'lub qilgaymiz"⁴⁴. Yuqorida keltirilgan izohdan keyin asar-kitob muallifi familiyasi va ismi bosh harfi o'rniga qavs ichida, tegishli tadqiqotdan kelib chiqib, muallif yoki dissertation deb keltirsa ham bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida arxiv materiallari u yoki bu asar, kitobdan so'zma so'z, ko'chirma shaklida keltir layotganda ham ma'lum bir izoh turini qo'llash mumkin. Masalan, S. Shodmonovaning kitobidan⁴⁵ quyidagi fikrni o'z tadqiqotingizda keltirasiz: "Bu mitingda turkistonliklar sinf va daraja ayirmalariga qaramasdan Turkiston Muxtoriyatini olqishlashlarini (kursiv bizniki – muallif) bildiradilar va o'lkadagi hamma musulmonlarni Turkiston Muxtoriyati atrofida jipslashishga chaqiradilar"⁴⁶.

Ushbu matndagi olqishlashlarini so'zi siz tomonidan kursivda berildi va kursiv bizniki deb izohlandi. Chunki aynan mana shu so'z orqali tadqiqotingizda u yoki bu fikrni olg'a surasiz yoki o'quvchi e'tiborini jalb etasiz. Demak, S. Shodmonova keltirgan fikr aslida hech qanday kursiv yozuviga ega emas, ammo siz foydalanganda u yoki bu so'zni kursivda yozib, qavs ichida izoh berishingiz mumkin. Tadqiqotchi tomonidan yana boshqa turdag'i izohlar, e'tiborga tortishlar bo'lishi mumkin. Deylik, aynan yuqorida S. Shodmonovan dan keltirilgan matn hamda o'sha so'z o'lqishlashlarini (ta'kid bizniki – muallif) shaklida ham keltirish va tegishli izohni berish ham mumkin.

⁴¹ Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Узбекистон тарихидан материаллар... – Б. 22.

⁴² Муниров К. Хоразмда тарихнавислик (XVII – XIX ва XX аср бошлари). – Т.: Фаур Гулум номидаги адабиёт ва санъат нашириёти, 2002. – Б. 139.

⁴³ Азamat Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000.

⁴⁴ Буниятов З. М. Государство Хорезмшахов - Ануштегинидов. – М., 1986. – С. 169.

⁴⁵ Шодмонова С. Немис ва турк тарихшунослигига совет мустамлакачилигига карши кураш масалалари. – Т.: "ABU MATBUOT – KONSALT", 2008.

⁴⁶ Шодмонова С. Немис ва турк тарихшунослигига... – Б. 64–65.

Tarixiy qisqartmalar. Tarixga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti, insoniyat, mamlakatlar tarixi, tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yoritishda umum qabul qilingan qisqartmalar yoxud aniq bir tadqiqotchi tomonidan kiritilgan qisqartmalar ko'zga tashlanadi.

Tarix bo'yicha tadqiqotga qo'l urgan tadqiqotchi tomonidan umum qabul qilingan qisqartmalarni bilish va ilmiy ishida belgilangan tartibda ishlata olish muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, tarix bo'yicha tadqiqotga qo'l urgan tadqiqotchining bu borada yillar davomida olgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy yo'nalishlardagi nazariy bilimlari muhim ahamiyatga kasb etadi.

Tadqiqotchi ilmiy adabiyotlar, arxiv manbalari, davriy matbuot materiallarini o'rganish jarayonida tarixga oid qisqartmalarni to'laqonli tushuna olishi va o'zi yozayotgan ilmiy ishida o'rinni tarzda qo'llay bilishi kerak.

Tarixga oid qisqartmalar mamlakatlar nomlanishiga, turli xalqaro tashkilotlar, harbiy-siyosiy bloklar, tarixiy davrlar va boshqalarga nisbatan ham qo'llanadi. Umuman olganda, tarixga oid qisqartmalar o'zining kelib chiqishiga ko'ra o'zbek tilidagi so'zlarning qisqartmasi yoki bosh harflarini o'zida aks ettirishi mumkin. Bunday qisqartmalar xorijiy tillardagi so'zlarни ham o'z ichiga olishi mumkin. Ayrim hollarda xorijiy tillar asosida vujudga kelgan qisqartmalardan o'z holicha, ya'ni o'zbek tilida ham foydalanaveriladi. Albatta, tarixdagi qisqartmalarning yuzaga kelishi ham ma'lum bir tarixiy davr bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Tarixdagi qisqartmalar bo'yicha bir necha misollar keltirish mumkin. Tadqiqotchi yangi va eng yangi davr tarixini o'rganish va shu davr bo'yicha tadqiqot ishini olib borishda bir necha qisqartmalarni uchratishi mumkin. Masalan, TASSR, BXSR, XXSR, BMIQ, Turkbyuro, O'YOK, NATO, YUNESKO, BMT (*bu haqda 10- ilovaga qarang – mualliflar*) va boshqalar. Ilmiy izlanuvchilar o'z tadqiqotlarda umumqabul qilingan tarixiy-siyosiy qisqartmalarni qo'llashi mumkin. Ammo tarixiy tadqiqotlarda ko'p marotaba qo'llanadigan hamda tadqiqot mavzusiga bevosita aloqador qisqartmalarni ilk bor ishlatganda, mumkin qadar, to'la ma'nosi hamda shu qisqartmadagi davlat, xalqaro tashkilot, iqtisodiy-siyosiy, harbiy termin, ma'nosi va uning qisqacha mohiyati to'g'risida izoh berib ketilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Tarixga oid tadqiqotlar, xususan maqola, qo'llanma, monografiyalarda qisqartmalar ma'nosi, qisqa mohiyati tadqiqotchi – mualliflar tomonidan, odatda, matn ichida, matn bayon etilayotgan betda, iqtibosda izoh shaklida, kitob boshida yoki oxirida beriladi. Masalan, tadqiqot mavzusi "Turkiston ASSRda milliy masala: muammo va yechimlar (1918-1924 yy.)" bo'lsa, matnda ilk bor TASSR qisqartmasi qo'llanilayotganda quyidagi tarzda izoh keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi⁴⁷. Agar tadqiqot matnida bir necha marta Turkistonning markaziy ijroiya qo'mitasi yoki xalq komissarlar kengashiga oid tarixiy birikmalar qo'llanadigan bo'lsa, unda Turkiston markaziy ijroiya qo'mitasi (keyingi eslashlarda TurkMIQ – tadqiqotchi) yoki Turkiston xalq komissarligi kengashi (kelgusi eslashlarda

⁴⁷ TASSR - Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi, 1918- yil 30- apreldan 1924-yil 27- oktyabrgacha mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoda milliy-hududiy davlat chegaralanish o'tkazilgandan keyin barham topgan. Keyingi eslashlarda TASSR deb yuritamiz - tadqiqotchi (dissertant).

Turkiston XXK – tadqiqotchi) shaklida keltirish mumkin bo`ladi. Qisqartmalar to`g`risidagi izohlar tadqiqotchi tomonidan matn izhor qilinayotgan betda – iqtibosda ham berilishi mumkin. Masalan, tadqiqot mavzusida Turkkomissiya qisqartmasiga izoh quyidagi tarzda amalga oshiriladi⁴⁸.

Tadqiqotlarda qisqartmalar xorijiy tillardan qanday bo`lsa, shundayligicha keltirilishi ham mumkin. Masalan, YuNESKO – bu BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo`yicha tashkiloti. Ingliz tilidagi so`zlar qisqartmasidan olingan, ammo o`zbek tilidagi matnda ham tarjimasiz keltiraverish mumkin. Xuddi shunga o`xhash rus tilidagi atamalardan ham o`zbek tilidagi matnda tarjimasiz keltirish holatlari ko`zga fashlanadi. Masalan, RKP(b), VKP(b), KPSS, TKP, NKVD, GPU, VCHK, SredazEKOSO, NEP, Turkkomstaris v. b. (10 -ilovaga qarang).

Umumqabul qilingan tarixiy qisqartma atamalardan tashqari tadqiqotchi tomonidan ham shunday tartibdagи qisqartma tarixiy atamalarni ilmiy ishida qo`llashi mumkin. Agar tadqiqotchi mavzuni yoritish jarayonida juda ko`p marotaba u yoki bu so`zlar birikmasini qo`llashiga to`g`ri kelsa, unda ma`lum bir izoh orqali, xususan bosh harfiarga asoslangan holda yoki tushunarli ma`lum bir atamaga suyanib tadqiqot matnida foydalana berishi mumkin. Masalan, tadqiqot mavzusini yoritishda juda ko`p marotaba Turkiston rayon muhofaza bo`limi nomini qayd etishga to`g`ri kelsa, tegishli izoh bilan keyingi eslashlarda TRMB deb yozish mumkin. Agar mavzuni yoritishda ko`p marotaba Turkiston MIQ huzuridagi Ochilarga yordam markaziy komissiyasi deb eslashga zarurat bo`lsa, unda tegishli izoh orqali TurkMIQ OYO MK deb yozish mumkin. Bundan tashqari, ilmiy ishda ko`p marotaba qo`llanadigan uzun tarixiy tushunchalarni ham tegishli izoh orqali qisqa variantda keltiraverish mumkin. Masalan, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi Senat deb, izohda keyingi eslashlarda Senat tariqasida qo`llanishini eslatib o`tish ham mumkin. Ammo shuni ham ta`kidlash lozimki, tadqiqot matnida atigi uch-to`rt marotaba qo`llanadigan so`z birikmalarini tarixiy qisqartma atama sifatida qo`llash maqsadga muvofiq emas. Demak, tarixiy qisqartma atamalardan tadqiqotlarda foydalanish ham o`zining ma`lum bir tartib qoidalariiga ega va tadqiqotchi o`z ilmiy izlanishlarida bunga rioya qilishi kerak.

Ilmiy-tadqiqot yakuniga oid nashrlar. Tadqiqotchi tomonidan ilmiy ishlар bo`yicha izlanishlar natijasini **tezis** shaklida chop etishga tayyorlash zarurati tug`ilishi mumkin. Tezis bu yunoncha **thesis** so`zidan olingan bo`lib, asosiy ma`lumot, ma`ruzaning qisqa ifodasi demakdir. Tezisning eng muhim talablaridan biri uning qisqaligi hisoblanadi. Tadqiqot bo`yicha tayyorlangan tezis odatda, A4 formatdagi qog`ozga, 14 shriftda, komp`yuterda 2-5 betni tashkil qilishi kerak. Tadqiqotning ma`lum bir yo`nalishini o`zida aks ettirish kerak bo`lgan tezislar o`z tarkibida chizmalarga, jadvallarga ham o`rin qoldirishi

⁴⁸ Turkiston komissiyasi (Turkkomissiya) - RKP(b), Butunrossiya Markaziy Ijroiya qo`mitasi (BMIQ) va RSFSR xalq komissarlar kengashi (XKK)ning Turkiston ishlari bo`yicha komissiyasi. 1919- yil 8- oktyabrida tashkil topgan. Turkkomissiyaga cheksiz huquq berilgan edi. Aslida Turkistonda TurkMIQ va XKK emas, balki Turkkomissiya hukmron edi. Buxoro va Xorazmda sovetlar andozasidagi davlatlar (BXSR, XXSR) tashkil etilishi ham Turkkomissiya "ssenariysi" asosida amalga oshirilgan. 1920- yil iyulida RKP(b) MQ Turkiston byurosi tashkil qilinishi bilan Turkkomissiyaning partiyaviy vakolati to`xtatildi. 1923- yil RKP(b) MQning qarori bilan Turkkomissiya butunlay tugatildi.

va ayni paytda ilmiy izlanish natijalariga taalluqli asosiy g`oyalar aniq va lo`nda, ilmiy ifodalaniishi darkor.

Ilmiy tadqiqot natijalarining kengrog`i bo`lmish **ilmiy maqola** usulidan ham foydalaniildi. Tarix yo`nalishidagi ilmiy maqolalar tezisga nisbatan anchagina keng, ilmiy izlanish natijalarini asosli, dalillarga, manbalarga, adabiyotlarga tayangan holda, qiyosiy tahlillar asosida yoritishga imkon yaratadi. Tadqiqotga oid ilmiy maqola quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- maqola sarlavhasi mumkin qadar qisqa va ayni paytda mazmundagi asosiy g`oyani o`zida aks ettirishi zarur;
- maqola sarlavhasidan keyin o`ng burchakda muallif – tadqiqotchining ismi-sharifining bosh harfi va familiyasi hamda ayrim hollarda qaysi shahardagi oly o`quv yurtida ishlashi, lavozimi yoziladi (*xuddi shu tartib maqola oxirida, gazetalar uchun beriladi – mualliflar*);
- ilmiy maqola mohiyatiga ko`ra, tadqiqotchi tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishning ma`lum bir qismi yakuni sifatida ifodalab beruvchi yozma manba hisoblanadi;
- ilmiy maqolalar o`z mavzusini yoritishga qaratilgan bo`lib, gazeta, jurnal va ilmiy to`plamlarda chop etiladi;
- maqola hajmi, odatda, 2- 10 betni, ayrim hollarda undan ham ko`proqni tashkil qilishi mumkin;
- maqolada qayd etiladigan tarixiy atamalar, iboralar, tarixiy geografik hududlar, og`irlik va uzunlik o`lchovlari tegishli tarzda o`z izohiga ega bo`lishi lozim;
- maqolada keltiriladigan tarixiy daliilar, voqeа-hodisalar, ilmiy yangiliklar asosli, ya`ni o`z manbasiga ega bo`lishi va bu tegishli tarzda iqtibosda aks etishi kerak;
- maqola oxirida tadqiqotchi tomonidan aniq ifodalangan xulosa bo`lishi darkor.

Risola – bu frantsuz tilidagi **brochure** so`zidan olingan bo`lib, chop etilgan, ammo hajm jihatidan 48 betdan ortmaydigan nodavriy nashrdir. Boshqacharoq aytganda, mantiqan o`z nihoyasiga etgan, tadqiqotning kichikroq bir qismini ifoda etuvchi ilmiy izlanishlar natijasi hisoblanadi.

Monografiya – bu yunon tilidan olingan bo`lib, **monos** – yakka, yagona, **grapho** – yozaman degan ma`noni anglatadi. Monografiya ilmiy ish bo`lib, chuqur bir mavzuga bag`ishlanganligini bildiradi. Demak, tugallangan bir yirik tadqiqotning mantiqiy nihoyasi, ilmiy izlanishni butunligicha qamrab olgan, ma`lum bir tizimli bayonga ega bo`lgan, hajmi 5 bosma taboqdan oshadigan yirik ilmiy asar monografiya deyiladi.

Ilmiy risola va monografiya tuzilishiga ko`ra kirish, asosiy qism va xulosalarni o`z ichiga olib, ilmiy ish natijalarini keng, asosli, dalillar va tahlillar bilan yoritishga qaratilgan bo`ladi. Monografiya tarix fanlari doktori ilmiy darajasini himoyasi uchun zarur bo`lgan talablar qatoriga kiradi. O`z navbatida chop etiladigan ilmiy maqola va risolalar tadqiqot natijasi uchun, xususan dissertatsiya himoyalari talabiga javob beradigan bo`lishi kerak.

Tadqiqotlar natijasini o`quv qo`llanma (**darslik**)da ham ko`rsatish mumkin. Tezis, ilmiy maqola, risola, monografiyadan farqli o`laroq, o`quv qo`llanma (**darslik**) faqat ilmiy tadqiqot natijasi, mazmunini yoritishga qaratilgan bo`lmaydi. O`quv qo`llanma olyi ta`lim muassasasi o`quv rejasida ko`rsatilgan

vaqt me`yorlariga hajm jihatidan javob berishi kerak. O`quv qo`llanmada bayon etish usuli talabalar uchun tushunarli, sodda, ilmiy iboralarga kamroq burkangan holda bayon etilishi kerak.

Yuqorida zikr etilganiardan tashqari o`quv ko`rsatma, uslubiy tavsiyalar ham tadqiqot turlariga kiradi.

Shuni alohida ta`kidlash joizki, har qanday ilmiy tadqiqot savodli, tushunarli, fikr-mulohazalar mantiqan bir-biri bilan uzviy bog`langan holda bayon etilgan bo`lishi kerak.

Biroq, har bir sohada bo`lganidek, ilmiy tadqiqot bilan shug`ullanuvchilar uchun ham yozilgan va yozilmagan talablar, tartib-qoidalar mavjud. Bu "tartib-qoida"ni shartli ravishda "**Tadqiqotchilar ilmiy odobnomasi**" deyish ham mumkin.

"Tadqiqotchilar ilmiy odobnomasi" quyidagi tartib-qoidalar doirasida bo`lishi darkor:

- tarixga oid tadqiqotlarda keltirilgan dalillar, sanalar, voqeа-hodisalar haqiqiy manbalarga asoslanganiga javob berishi kerak;
- o`zidan avval tadqiqotchilar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan tarixiy manbalarni "o`zlashtirmasdan", ilk bor ilmiy iste`molga kiritilyapti demaslik lozim;
- boshqalar tadqiqotida keltirilgan ilmiy yangiliklarni o`ziniki qilib ko`rsatmaslik kerak;
- o`zga tadqiqotchilar tomonidan foydalanilian adabiyotlar, arxiv manbalaridan o`z ilmiy ishida iqtibos keltirganda, o`sha adabiyot va manbalarga emas, balki muallifning asari, tadqiqotiga ishora qilmoq darkor;
- ilmiy izlanish jarayonida o`zidan avvalgi tadqiqotchilar tomonidan tarixiy voqeа-hodisalar, dalillar, sanalar, shaxslar faoliyati, ismi-sharifi bilan bog`liq voqealar bo`yicha yo`l qo`ylgan xatolar, noaniqliklarga nisbatan munosabat har qanday qo`pol iboralardan yiroq, odob doirasidan chiqmagan holda bayon etilishi maqsadga muvofiq;
- tadqiqotda boshqalarning asarlari, ilmiy tadqiqotlardan iqtibossiz keltirilgan fikrlar, nazariy g`oyalar ko`chirmachilik hisoblanadi;
- tadqiqotda o`zidan avvalgi ilmiy izlanuvchilar tomonidan amalga oshirilgan muvaffaqiyatlarni e`tirov eta bilish, ko`r-ko`rona tanqidga o`tmaslik kerak;
- o`zgalar tadqiqotiga, hech qanday hissa qo`shmay turib, hammualliflikka intilmaslik lozim. Bunday urinish haqiqiy ilmiy odobsizlik hisoblanadi.

Tayanch so`zlar

Tarixiy-geografik atamalar, tushuncha, ibora, izoh, qisqartma, uyrug, graf, devon, kaderlar, eserlar, Jambul, "Beshinchи kolonna", "Varfolemey kechasi", Kazus belli, "Orenburg to`sиг`и", o`lchov birliklari, "Qizil Sharq", "Oloy malikasi", prezident, rezident, tezis, ilmiy maqola, risola, monografiya, o`quv qo`llanma, darslik, o`quv ko`rsatma, uslubiy tavsiya.

Nazorat savollari

1. Tarixiy, tarixiy-geografik atamalar ilmiy tadqiqotlarda qanday ahamiyatga ega?
2. Tarixiy tushuncha va izohlar ilmiy ishda qanday o`rin tutadi?
3. Tadqiqotda tarixiy qisqartmalardan foydalanish usuli haqida so`zlab bering?
4. Ilmiy-tadqiqot yakuniga oid nashrlar haqida nimalarni bilasiz?

ADABIYOTLAR:

1. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. – Т., 1998.
2. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008.
3. Алимов И. А. Архившунослик. – Андижон, 2005.
4. Алимов И. А., Эргашев Ф., Бўтаев А. Архившунослик. – Т., 1997.
5. Бекмуҳамедов Х. Ю. Тарих терминлари изоҳли луғати. – Т., 1978.
6. Библиография: термины и определения. ГОСТ. 70-77. – М., 1977.
7. Дипломная работа по специальности «История». – Казань, 1990.
8. Дербов Л. А. Введение в изучение истории. – М., 1981.
9. Дусимов З. Эгамов Х. Жой номларининг изоҳли луғати. – Т., 1977.
- 10.Дъяков В. А. Методология истории в прошлом и настоящем. – М., 1974.
- 11.Ерастов Н. П. Методика самостоятельной работы. – М., 1985.
- 12.Исоков Б., Талапов Б. Тарих факультети битирувчиларига диплом иши тайёрлаш бўйича услубий тавсиялар. – Наманган, 1995.
13. Как самостоятельно изучать политическую книгу. –М., 1984.
14. Крайская З. В. Организация архивного дела в СССР. – М., 1980.
15. Курс ишларини ёзиш ва расмийлаштириш бўйича йўриқнома. –Т., 2007.
16. Малакавий битирув иши ва магистрлик диссертацияларини ёзиш ва расмийлаштириш бўйича йўриқнома. – Т., 2008.
17. Муратов Х. М., Дерпер М. Я. Введение в специальность. – Т., 1977.
18. Мухитдинов М., Потапов А. Подготовка и защита диссертации. – Т., 2005.
19. Нишонов М., Улухўжаев Н. Битирув малакавий ишларини бажариш ва ҳимоя килиш (услубий курсатмалар). – Наманган, 2004.
20. Основы организации обучения в вузе. – Т., 1986.
21. Правила оформления диссертации и автореферата. – Т., 2008.
22. Пронштейн А. П., Задёра А. Г. Методика работы над историческими источниками. – М., 1977.
- 23.Словарь иностранных слов (издание 14-е, исправленное). – М., 1987.
24. Ўлжаева Ш. М. Тарих фанининг илмий тадқикот усуллари (ўкув қўлланма). – Т., 2003.
- 25.Ўрта асрлар тарихидан изоҳли луғат. – Т., 1979.
26. Чориев З. Тарих атамаларининг кискача изоҳли луғати (қадимги ва ўрта асрлар). –Т., 1999.

ILOVALAR

1- ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
VATAN TARIXI KAFEDRASI

ASHIROV MUZAFFAR YULCHIBEKOVICH

TARIXSHUNOSLIK FANIDAN
KURS ISHI

AT-TABARIYNING “TARIXI AR-RUSUL VAL MULUK” ASARIDA
MOVAROUNNAHRDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY AHVOLNING YORITILISHI

**Ilmiy rahbar: tarix fanlari nomzodi Sarimsoqov
Abdulatif Abdurahimovich**

Namangan – 2012

“TASDIQLAYMAN”
_____ kafedra mudiri,

(ilmiy darajasi, unvoni, F.I.Sh)

“ ”
(sana)

Bitiruv malakaviy ishini yozish bo'yicha

ISH REJASI

№	Ish tartibi va davri	Muddati		Hisobot usuli
		boshlanishi	Oxiri	
1	Mavzu tanlash			
2	Adabiyot va manbalar bilan tanishish, bibliografiya tuzish			
3	Bitiruv malakaviy ishi rejasi va kengaytirilgan ish rejasi			
4	Mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarini aniqlash			
5	Mavzuga oid materiallarni klassifikatsiya qilish			
6	Boblar va paragraflarni yozish			
7	Boblarni tahrir qilish			
8	Bitiruv malakaviy ishining kirish va xulosasi ustida ishslash			
9	Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatini tuzish			
10	Ilovani rasmiy lashtirish			
11	Bitiruv malakaviy ishini ilmiy rahbarga topshirish			
12	Bitiruv malakaviy ishini taqrizchilarga berish			
13	Bitiruv malakaviy ishini himoya uchun kafedra mudiri tasdig'iga berish			

(talaba F.I.Sh)

(imzo)

(ilmiy rahbar, ilmiy darajasi, unvoni F.I.Sh)

(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK

ALIYEV RASHID KOMILOVICH

XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON TARAQQIY PARVARLARINING
IQTISODIY MASALALAR BO'YICHA QARASHLARI

SA220201 – Vatan tarixi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

**Ilmiy rahbar: tarix fanlari doktori, professor
Ergashev Ahror Valiyevich**

Namangan – 2012

M U N D A R I J A

Kirish.....	3
I bob. XX asr boshlarida Turkiston iqtisodiy hayotining Rossiya imperiyasi manfaatlariga bo`ysundirilishi.....	13
1.1. Turkistonning Rossiya engil sanoati uchun xom-ashyo etkazib beruvchi o`lkaga aylantirilishi.....	23
1.2.Turkiston paxtachilik sanoatining vujudga kelishidagi asosiy omillar.....	34
II bob. Turkiston taraqqiyparvarlarining iqtisodiy masalalarda mustamlaka ma`muriyatiga munosabati.....	35
2.1. Turkiston taraqqiyparvarlarida iqtisodiy mustamlaka siyosatiga qarshi g`oyalarning vujudga kelishi.....	45
2.2. Turkiston taraqqiyparvarlari va mustamlaka ma`muriyati o`rtasida iqtisodiy masala yuzasidan munozaralar.....	56
III bob. Turkiston taraqqiyparvarlarining iqtisodiy masalalar bo`yicha qarashlarining tarixiy manbalarda aks etishi.....	57
3.1. Mustamlaka ma`muriyati matbuotida Turkiston taraqqiyparvarlarining iqtisodiy qarashlariga munosabat.....	67
3.2. Milliy matbuot nashrlarida Turkiston taraqqiyparvarlari g`oyalaring aks etishi.....	77
Xulosa.....	87
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati.....	95
Ilova.....	100

Tadqiqotda sahifalar o'chами

Yuqori tomon 25 mm

Chap tomon 30 mm

O'ng tomon 15 mm

Quyi tomon 25 mm



Xorijiy adabiyotlar va arxiv hujjatlariga iqtibos berish tartibi

I. Xorijiy adabiyotlarga iqtibos berish

a) adabiyot birinchi bor keltirilganda:

Pierce R.A. Russian Central Asia 1867 – 1917: A study in colonial rule. – Los Angeles: University of California Press, 1960. – R. 204 – 210.

b) aynan shu adabiyot keyingi iqtiboslarda:

Pierce R.A. Russian Central Asia ... – R. 255 – 256.

v) xorijiy jurnallardan olingan maqolalarga:

Schamiloglu U. The Formation of Tatar Historical Consciousness: Şihabaddin Marçani and the Image of the Golden Horde // Central Asian survey, 1990. Volume 9, Number 2. – R. 39 – 47.

II. Arxiv manbalariga iqtibos berish

2.1. O`zbekiston Respublikasidagi arxivlar

a) matnda birinchi bor keltirilganda:

O`zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivsi (O`zR MDA), I.19-fond, 1-ro`yxat, 69- ish, 2- varaq va orqasi.

b) matnda aynan shu arxiv manbalari:

O`zR MDA, I.1- fond, 20- ro`yxat, 1191- ish, 8- varaq.

v) matnning bir betida ketma-ket aynan bir arxivdan:

O`sha joyda, I.1- fond, 20- ro`yxat, 1191- ish, 12- varaq.

Yoki: O`sha joyda, 20- ro`yxat, 1191- ish, 14- varaq.

Yoki: O`sha joyda, 1191- ish, 18- varaq.

Yoki: O`sha joyda, 20- varaq.

Yoki: O`sha joyda.

2.2. Xorijiy davlat arxivlari

a) matnda birinchi bor keltirilganda:

Центральный государственный исторический архив Республики Башкортостана (ЦГИА РБ), ф. Р- 629, оп. 1, д. 472, л. 49.

b) matnda aynan shu arxiv manbalari:

ЦГИА РБ, ф. Р- 629, оп. 1, д. 472, л. 55.

v) matnning bir betida ketma-ket aynan bir arxivdan:

Там же, ф. Р- 629, оп. 1, д. 472, л. 62.

Foydalanimanba va adabiyotlar ro'yxati

I. Kitoblar

1.1. Bir jildlik kitoblar, monografiyalar, davriy to'plamlardagi maqolalar:

- a) *bir muallif*: Агзамходжаев С. История Туркестанской автономии: (Туркистан Мухторияти). – Т.: Тошкент ислом университети, 2006. – 268 с.
- b) *ikki muallif*: Алимова Д. А., Рашидова Д. А. Махмудхужа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. – Т.: Академия, 1999. – 53 б.
- v) *mualliflar jamoasi*: Тарих шохидлiği ва сабоклари / Н. А. Абдурахимова ва бошк. Мухаррир Д. А. Алимова. – Т.: Шарқ, 2001. – 463 б.
- g) *davriy to'plam*: Болтабоев Ё. Давлат Думасида мусулмон депутатларининг иштироки // Тарих тилга кирганда... Даврий түплам. – №1. – Наманган, 2007. – Б. 40 – 43.

1.2. Ko'p томли kitoblar:

- а) Узбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистан чор Россияси мустамлакачилиги даврида / Содиков X. ва бошк. – Т.: Шарқ, 2000. – 463 б.

II. Dissertatsiya va avtoreferatlar

- 2.1. Абдуллаева Я. А. XIX аср охири ва XX асрда Қорақалпоғистонда хотин-кизлар масаласи (ижтимоий-сиёсий аспект): Тарих фан. докт. ... дисс. – Т., 2005. – 369 б.
- 2.2. Вохидова К. А. Исхакхан Жунайдуллаходжа Ибрат и его научно – историческое наследие: Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – Т., 2002. – 25 с.

III. Gazeta va jurnallar

- 3.1. Акрамов Х. М. Наманганда гул байрами // Наманган ҳақиқати. 2008. 21 август.
- 3.2. Сувонов К. Х. Туркистан матбуоти жонкуяри // Тафаккур. – Т., 2004. – №4. – Б. 20 – 22.

IV. Konferensiya materiallari

- 4.1. Ражабов Қ. Туркистан минтакасида совет режимига қарши куролли ҳаракат тарихининг манбашунослиги (Архив хужжатлари ва эълон қилинган түпламлар материаллари мисолида) // Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари (2008 йил 25 апрель). – Т., 2008. – Б. 323-332.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy
davlat arxivi direktori
ga

Hurmatli _____!

Namangan Davlat universiteti rektorati, Siz rahbarlik qilayotgan arxiv fondidan Tarix fakul'teti IV kurs talabasi Aliyev Temur Shamsiyevichning "Turkistonda neft sanoatining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)" mavzusidagi bitiruv małakaviy ishi uchun manbalar toplashiga ruxsat berishingizni so'raydi.

Sizga hurmat bilan

Rektor:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy
davlat arxivi direktori
ga

Hurmatli _____ !

Namangan Davlat universiteti rektorati, Siz rahbarlik qilayotgan arxiv fondidan Tarix fakul'tetining quyidagi IV kurs talabalariga bitiruv malakaviy ishi uchun manbalar to'plashiga ruxsat berishingizni so'raydi.

1. Turdiyev A. – Namangan uezdi tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).
2. Azimov N. – Turkistonda milliy ozodlik harakati tarixshunosligi.
3. Hakimova S. – Farg'ona vodiysida engil sanoatning vujudga kelish tarixi.

Sizga hurmat bilan

Rektor:

TARIXIY QISQARTMALAR

- BKP – Buxoro kommunistik partiyasi
 BMIQ – Butunrossiya markaziy ijroiya qo'mitasi
 BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti
 BXSR – Buxoro xalq sovet respublikasi
 VKP(b) – Butunittifoq kommunistik partiyasi (bol'sheviklar)
 VCHK – Butunrossiya favqulodda komissiyasi
 GOELRO – Rossiyanı elektrlashtirish bo'yicha davlat komissiyasi
 GPU – Davlat siyosiy boshqarmasi
 EXHT – Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti
 IHT – Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti
 KPSS – Sovet ittifoqi kommunistik partiyasi
 MOPR – Proletar inqilobchilarning xalqaro tashkiloti
 NATO – (North Atlantic Treaty Organization) Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti
 NKVD – Ichki ishlar xalq komissarligi
 NEP – Yangi iqtisodiy siyosat
 OPEK – (Organization of Petroleum Exporting Countries) – Neft' eksport qiladigan mamlakatlar tashkiloti
 OYOMK – Ochlarga yordam markaziy komissiyasi
 RKP(b) – Rossiya kommunistik partiyasi (bol'sheviklar)
 SAGU – O'rta Osiyo Davlat universiteti
 SAKU – O'rta Osiyo kommunistik universiteti
 Sredazbyuro – O'rta Osiyo siyosiy byurosi
 SredazEKOSO – O'rta Osiyo Iqtisodiy kengashi
 TKP – Turkiston kommunistik partiyasi
 TRMB – Turkiston rayon muhofaza bo'limi
 Turkkomstaris – Tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va o'rghanish bo'yicha Turkiston qo'mitasi
 TurkMIQ – Turkiston markaziy ijroiya qo'mitasi
 TES – Turkiston Iqtisodiy kengashi
 O'zMU – O'zbekiston Milliy universiteti
 O'OQMDN – O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy nazorati
 O'LYoK – O'zaro iqtisodiy yordam kengashi
 XKP – Xorazm kommunistik partiyasi
 XXSR – Xorazm xalq sovet respublikasi
 SHHT – Shanxay hamkorlik tashkiloti
 YUNESKO – (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization) BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti.

Foydalaniłgan adabiyotlardan iqtibos keltirish tartibi

I. Kitoblar

1.1. Bir jıldlik kitoblar, monografiyalar, davriy to`plamlardagi maqolalar:

- a) *bir muallif*: Муртазаева Р.Х. Узбекистонда миллиатларо муносабатлар ва бағрикенглик. – Т.: Университет, 2007. – Б. 12.
- b) *ikki muallif*: Алимова Д. А., Раширова Д. А. Махмудхұжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури. – Т.: Академия, 1999. – Б. 15.
- v) *mualliflar jamoasi*: Тарих шохидліги ва сабоқлари / Н.А.Абдурахимова ва бошқ. Мұхарріп Д. А. Алимова. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 46.
- g) *davriy to`plam*: Болтабоев Ё. Давлат Думасида мусулман депутаттарининг иштироки // Тарих тилга кирганда... Даврий тұплам. – №1. – Наманган, 2007. – Б. 40.

1.2. Ko`p tomlı kitoblar:

- a) Узбекистоннинг янги тарихи. Туркистан чөр Россияси мустамлакачилиги даврида / тузувчилар Содиков Ҳ. ва бошқ. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 63.
- b) *aynan shu adabiyot keyingi eslashlarda*: Туркистан чөр Россияси мустамлакачилиги даврида... – Б. 88.

II. Dissertatsiya va avtoreferatlar

- 2.1. Абдуллаева Я. А. XIX аср охири ва XX асрда Қоракалпоғистонда хотин-қизлар масаласи (ижтимоий-сиёсий аспект): Тарих фан. докт. ... дисс. – Т., 2005. – Б. 45.
- 2.2. Вохидова К. А. Исхакхан Жунайдуллаходжа Ибрат и его научно – историческое наследие: Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – Т., 2002. – С. 7.

III. Gazeta va jurnallar

- 3.1. Акрамов Х. М. Наманганда гул байрами // Наманган ҳақиқати. 2008. 21 август.
- 3.2. Сувонов К. Х. Туркистан матбуоти жонқуяри // Тафаккур. – Т., 2004. – №4. – Б. 20.

IV. Konferensiya materiallari

- 4.1. Ражабов Қ. Туркистан мінтақасыда совет режимига қарши қоролли қарқындықтар (Архив хужжатлари ва эълон қилинган тұпламлар материаллари мисолида) // Тарихий манбашунослық мұаммолари. Республика ғылыми-амалий анжуманы материаллари (2008 йил 25 апрель). – Т., 2008. – Б. 328.

TURKISTONDA PAXTA EKISH MAYDONLARI TO'G'RISIDA MA'LUMOT
(1907-1917 yy.)

yillar	Farg`ona viloyati desyatina	Sirdaryo viloyati desyatina	Samarqand viloyati desyatina	Kaspiyorti viloyati desyatina	jam'i desyatina
1907	199994	32125	15521	34000	288640
1908	190884	28007	21683	42000	282574
1909	208053	31463	31269	31000	301785
1910	235891	35675	25224	28000	324790
1911	268317	49268	28666	38000	383281
1912	255566	64450	29130	42319	319465
1913	274897	76726	31758	43000	426381
1914	283000	84399	30846	62260	460505
1915	333525	74050	55573	57466	523614
1916	348469	64535	60305	60362	533671
1917	286699	56134	42004	33953	418790

⁴⁹ Qarang: Зиёева Д. X., Зиёев X. Z. Чор империясининг хазинасидаги Туркистон маддий бойликлари // Тарих шохидлиги ва сабоклари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 125.

DAVRIY KO`RSATKICHLAR IZOHI

Miloddan avvalgi II asr- IV asrlar: bu olti asrni o`z ichiga oladi.

III asr o`rtalari: 240- 260- yillar oralig`i

V asr boshlari: 400- 410- yillar oralig`i

VI- IX asrlar: 500- 799- yillar oralig`i

XII asr oxiri – XIII asr birinchi yarmi: 1190- 1250- yillar oralig`i

XV asr birinchi yarmi: 1400- 1450- yillar oralig`i

XV asr oxirgi choragi – XVI asr: 1475- 1599- yillar oralig`i

XVII asr birinchi choragi: 1600-1625- yillar oralig`i

XVIII asr o`rtalari: 1740- 1760- yillar oralig`i

XIX asr oxirgi choragi: 1876- 1900- yillar oralig`i

XIX asr oxirlari: 1890- 1900- yillar oralig`i

XIX asr oxiri – XX asr boshlari: 1890- 1910- yillar oralig`i

XX asr birinchi choragi: 1900- 1925- yillar oralig`i

XX asr 20- 30 yillari: 1920- 1939- yillar oralig`i

Ilk o`rta asrlar (Osiyoda): V – IX asrlar oralig`i

Ilk o`rta asrlar (Yevropada): V – XI asrlar oralig`i

O`rta Osiyoda Uyg`onishda davri: IX – XII asrlar oralig`i

Turg`unlik yillari: XX asr 70- 80- yillari oralig`i

Qayta qurish yillari: 1985- 1990- yillar oralig`i

Istiqlol yillari: O`zbekistonda 1991- yil 1- sentyabrdan keyingi yillar

ТУРКЕСТАНСКИЙ

СБОРНИКЪ.

СОДЕРЖАНИЕ СОВРЕМЕННОГО

О ТУРКЕСТАНСКОМЪ КРАѢ ВООВИДЕ

СОВРЕМЕННЫХЪ СЪ НИМЪ СТРАНЪ СРЕДНЕЙ АЗИИ.

СОПРОВОДИТЕЛЬСТВО

В. Я. МЕНЮВЫМЪ.

Томъ. 57

Букл. № 111. Академия наук Узбекской ССР. Ученые издания № 100.

XIX asrning 70-yillaridan 1916-yilgacha chop etilgan ma'lumotlarni o'zida jamlagan,
594 jilddan iborat "Turkiston to'plamii"ning 1873-yildagi 57-jildi.

Литературная и политическая газета „ТЕРДЖИМАНЪ“, три раза въ недѣлю. Г. Бакчесвара

ترجمان

شیر «نیخیسا رايد هفتاده، از جع»

- مرتبه شتر اویتلان سیاسی ادبیه -

در غصی و تیماری سرگات (امداد) -

دو آتشی آبلوی بیکی رو بیلاره -

1905 г. № 110

دیکرس اوسیس سه دایمی

د کار ۲۰ - سه ۱۹۰ -

(دی المقدمة ۱۷ - سه ۱۹۰)

سنه ایک پیدا شورت رو بیلاره -

دوره ۱۱۰

آقى گلدار باش گوستور و شرکان، چند
تاده، اسان خلا، تکریبی، زاده
ترکستان، شاهزاده خوشیه خان چاپ
و گشت، «نیخیسا» اویتلان، بولگاره بولی
فالستاند، «جعیدیه»، جنت مکان همه اینان
گوئیشکی لاله، سپاهان و شوانی باقه با خود
کار، «بابی» فالستاند، فایر و مسکونه
دوشنبه شاهزاده سرگات مسروبه غر کلی سانان
و زواران اهلتر، اخبار یعنی زانی گلکیش
فالستاند، «اضرس خارجیه»، شاهان طغیان
پیش و پیش ایقان خار آشند، شیخان
ازد ایله گلدار گشتر نزین و راپلیزه
سو، ایلی گلکیش در

پیش ایله شاهزاده نهر بیله بیک
سما ملوق اولوکه، بو، نه، داش خود
کیتاب، «کلیل و کلیل»، داش خاره ایله
کیل قره، مرسم نیم افندی قیروف ایله
مالیکان، اصلانه بر ایمان ده قیروس
بر گلاره در حسنه بیوچل بر نهله، داش
پیش و ملات، پولانش من بیت ملیکه دره
و طربه، داشان دعا اسان (امداد)
گوئیشکی
پیشک: خدا نیک، ایلکن خانیل ایله
مده و قیچیم ایله، خرف ایله، خرنی
او خرد و همین خرف زاره ایله
بر فاجیره زیر گوکاره، بر کله دنکه
ایله دسته، ایله کله دنکه
ایله آکش ایله، دوا و ماس، دنکه
هیله سیاه، زان، خانه زانه، خانه زانه
گز نیکنکه، دیچکنی بیش بیش دره
بر آقى گلدار، ایلکه، خلیشکه، کلکیشکه
دن سارف و زان، میانه، شاهه، بر دست
کلکل ایلکه، زانه، خلیشکه، ایلکه - لانکه
مله، شیخه ایلکه.

پیکنی، شن، سترهون، شه طلبه
و ایشان و ایشان، ایلکه، ایلکه
چوچوب، بوز، بوز، خانه، خانه، خانه
لیشکه، قش، سولولانه، بیش، دره، خانه
ایلدرا، ایلدرا، ایلدرا، بیش، بیش
کاشن، خلیشکه، ایله، خانه، کلکیشکه
پیکل، پیکل، خلیشکه، ایله، خانه، کلکیشکه
کلکل، و سونک ایله ایله، ایله، ایله

امسان و شتر

پیش ایله شاهزاده نهر بیله بیک

سما ملوق اولوکه، بو، نه، داش خود

کلکل، خانه، خرف ایله، خرنی



(ای) مکریم فوسکاره و فوجیلکاره

پیش ایله هر زیره ۲۷ مس

و ایلکه، ۸ ملکیس (لان) ایله

سلکاره، آم بیکاره، هر زیره و

هر زیره، خدمت فیضه، بیکس، آی

سنس، شام، قریش،

هدن، موک، هرگ، و دهن، قبه

و سیاه ایشان، زان، قریش،

گلدار، جان، حل، سان، پوشن،

ای، سیزه، بیلاره، هر زیره ایشانه

زان، گلدار، بیکس، آی، آی،

پوچک، پاچک، آی، باشک، و زان،

چان، ایله، قیوسه، لانه، ملکه

و سان، ایله، قیوسه، لانه، ملکه

1883-1914-yillari Boqchasaroyda nashr etilgan "Tarjimon" gazetasini



1917-1918-yillari Toshkentda nashr etilgan "Ulug' Turkiston" gazetası

So'z boshi	3
1-mavzu: Ilmiy tadqiqot asoslari fani predmeti, mazmuni va vazifalari ...	5
2-mavzu: Ilmiy tadqiqotni tashkil etish va olib borish asoslari	9
3-mavzu: Ilmiy tadqiqot olib borish ko'nikmalari.....	14
4-mavzu: Kurs ishi yozish asoslari.....	25
5-mavzu: Bitiruv malakaviy ishini yozish va rasmiylashtirish.....	31
6-mavzu: Magistrlik dissertatsiyasini yozish va rasmiylashtirish	40
7-mavzu: Ilmiy tadqiqot asosiy tamoyillari: vazifalar, xususiyatlar, uslubiyot.....	49
8-mavzu: Ilmiy tadqiqot materiallari ustida ishlash	57
9-mavzu: Tadqiqotlarda ilmiy apparatning rasmiylashtirilishi.....	75
10-mavzu: Tadqiqotlarda tarixiy, tarixiy-geografik atamalar, tushunchalar, qisqartma va iboralar.....	85
Adabiyotlar	98
Ilovalar.....	99

Tarix fanlari doktori, professor A. N. Rasulov,

Tarix fanlari nomzodi, dotsent A. A. Isoqboyev

Tarix fanining ilmiy tadqiqot asoslari va uslubiyoti

(o`quv- qo`llanma)

Muharrir:	B. Mallabayev
Musavvir:	I. Soliyev
Tex. muharrir:	B. Vahobov
Musahhih:	B. Qurbanov



